Так, И.А.Зимняя рассматривает компетентность как интегративное качество личности, включающее знания, умения, навыки, опыт деятельности и ценностные ори-

ентации. По мнению исследователя, компетентность проявляется в способности человека успешно решать практические задачи в различных сферах жизнедеятельности [1:34].

А.В.Хуторской определяет компетенцию как совокупность взаимосвязанных качеств личности, необходимых для продуктивной деятельности в определенной области. Ученый выделяет ключевые образовательные компетенции, которые должны формироваться в процессе обучения и обеспечивать готовность обучающегося к самостоятельной деятельности и непрерывному образованию [2:58].

В работах В.А.Болотова и В.В.Серикова компетентностный подход рассматривается как средство преодоления разрыва между теоретической подготовкой и практической деятельностью. Авторы подчеркивают, что образование должно быть направлено не столько на передачу знаний, сколько на развитие способности применять их в реальных жизненных ситуациях [3:11].

Проблема образовательных результатов в контексте компетентностного подхода также исследуется В.В.Краевским и А.А.Вербицким. Они отмечают, что современное образование должно обеспечивать формирование у обучающихся опыта практической деятельности, коммуникативных умений, критического мышления и способности к саморазвитию. [4:19].

Особое значение компетентностный подход приобретает в методике обучения языкам. В трудах А.Н.Щукина, Т.И.Капитоновой, Л.В.Московкина и И.П.Лысаковой формирование коммуникативной компетенции рассматривается как основная цель языкового образования. Исследователи подчеркивают, что результатом обучения языку должна стать способность обучающихся использовать язык как средство общения в различных коммуникативных ситуациях. «Обучение речевому общению должно строиться на основе коммуникативных ситуаций, максимально приближенных к естественным условиям общения» [5:84].

В современной педагогической науке отсутствует единое толкование понятий «компетенция» и «компетентность». Различные исследователи акцентируют внимание на отдельных аспектах данных категорий, что обуславливает необходимость их сравнительного анализа.

Наиболее значительный вклад в разработку теории компетентностного подхода внесли И.А.Зимняя и А.В.Хуторской. Несмотря на общность исходных позиций, их научные взгляды имеют определенные различия.

И.А.Зимняя рассматривает компетентность как интегративное качество личности, формирующееся на основе знаний, умений, опыта деятельности и ценностных ориентаций. По мнению ученого, компетентность проявляется в способности человека эффективно действовать в различных жизненных и профессиональных ситуациях. Исследователь подчеркивает личностный характер компетентности и ее связь с мотивационной сферой человека.

А.В.Хуторской, в свою очередь, разграничивает понятия «компетенция» и «компетентность». Под компетенцией он понимает совокупность требований к образовательной подготовке обучающегося, а под компетентностью – владение соответствующей компетен-

цией и личностное отношение к ней. Такой подход позволяет рассматривать компетенцию как нормативно заданный образовательный результат, а компетентность – как его практическое воплощение.

Таблица. Сравнительная характеристика подходов И.А.Зимней и А.В.Хуторского

Критерий сравнения	И.А.Зимняя	А.В.Хуторской
Понимание компетентности	Интегративное качество личности	Владение соответствующей компетенцией
Соотношение понятий «компетенция» и «компетентность»	Часто рассматриваются во взаимосвязи	Четко разграничиваются
Основной акцент	Личностные качества и опыт деятельности	Образовательные результаты и требования
Практическая направленность	Способность решать жизненные и профессиональные задачи	Реализация компетенций в деятельности
Роль личности	Центральная	Рассматривается через отношение к деятельности

Сравнительный анализ научных взглядов показывает, что все исследователи признают необходимость перехода от традиционной знаниевой модели обучения к модели, ориентированной на формирование опыта практической деятельности. Вместе с тем И.А.Зимняя делает акцент на личностной составляющей компетентности, А.В.Хуторской – на структуре образовательных результатов.

Таким образом, несмотря на различия в трактовках, представленные подходы дополняют друг друга и позволяют комплексно рассматривать компетентность как результат образования, включающий знания, умения, опыт деятельности, личностные качества и готовность к решению профессиональных и социальных задач. Данное понимание лежит в основе современной образовательной практики и определяет направления развития компетентностного подхода в системе образования.

Основными принципами компетентностного подхода являются:

- ориентация на практическое применение знаний;
- интеграция знаний, умений и личностных качеств;
- развитие самостоятельности и ответственности обучающихся;

- формирование готовности к непрерывному образованию;

- обеспечение связи обучения с профессиональной деятельностью.

В современной образовательной практике компетентностный подход реализуется через внедрение активных и интерактивных методов обучения, проектную деятельность, проблемное обучение, кейс-технологии, исследовательскую работу и использование цифровых образовательных ресурсов. Такие методы позволяют создавать условия для развития у обучающихся коммуникативных, информационных, социальных и профессиональных компетенций.

Особое значение компетентностный подход приобретает в языковом образовании. Основной целью обучения языку становится формирование коммуникативной компетенции, предполагающей способность эффективно использовать язык в различных ситуациях общения. В этой связи возрастает роль практико-ориентированных заданий, моделирующих реальные коммуникативные ситуации.

Современные образовательные стандарты также ориентированы на компетентностную модель подготовки обучающихся. В них результаты образования представлены в виде совокупности универсальных, общепрофессиональных и профессиональных компетенций, что свидетельствует о широком признании компетентностного подхода в образовательной практике.

Несмотря на значительные достижения, реализация компетентностного подхода сталкивается с рядом трудностей. К ним относятся недостаточная разработанность диагностических инструментов оценки компетенций, необходимость совершенствования методической подготовки педагогов и поиска эффективных технологий формирования компетентностей обучающихся.

Анализ и результаты. Практика внедрения компетентностного подхода в педагогических институтах свидетельствует о его высокой эффективности при условии комплексной организации образовательного процесса. Современные педагогические институты ориентируют подготовку будущих учителей не только на освоение системы теоретических знаний, но и на формирование профессиональных компетенций, необходимых для успешной педагогической деятельности.

Одним из наиболее эффективных направлений реализации компетентностного подхода является интеграция теоретической подготовки с практико-ориентированным обучением.

Особое место занимает учебная и производственная педагогическая практика. Во время прохождения прак-

тики студенты самостоятельно разрабатывают уроки, проводят учебные занятия, организуют воспитательные мероприятия, осуществляют диагностику образовательных результатов школьников и анализируют собственную педагогическую деятельность. Наставничество со стороны преподавателей института и опытных учителей школ обеспечивает постоянную профессиональную рефлексию и корректировку профессиональных действий студентов.

Подобная организация обучения позволяет будущим педагогам применять полученные знания в реальных условиях образовательной деятельности, развивая профессиональное мышление, коммуникативные навыки и способность принимать педагогические решения.

Результаты анализа практического опыта позволяют сделать вывод, что реализация компетентностного подхода обеспечивает повышение качества профессиональной подготовки будущих педагогов. Студенты демонстрируют более высокий уровень сформированности профессиональных компетенций, способность эффективно применять знания в нестандартных педагогических ситуациях, готовность к инновационной деятельности и непрерывному профессиональному развитию.

Заключение. Проведенное исследование позволяет сделать вывод о том, что компетентностный подход является важнейшей характеристикой современного образования. Его внедрение способствует повышению качества подготовки обучающихся, развитию их способности применять знания в практической деятельности и успешно адаптироваться к изменяющимся условиям общественной жизни. Компетентностный подход обеспечивает переход от передачи готовых знаний к формированию личности, способной к самостоятельному решению профессиональных и социальных задач, что соответствует современным требованиям к результатам образования.

Литература

1. Зимняя И.А. Ключевые компетенции как результативно-целевая основа компетентностного подхода в образовании. – Москва: Исследовательский центр проблем качества подготовки специалистов, 2004.
2. Хуторской А.В. Ключевые компетенции как компонент личностно-ориентированной парадигмы образования. // Народное образование. 2003, № 2. – С. 55-61.
3. Болотов В.А., Сериков В.В. Компетентностная модель: от идеи к образовательной программе. // Педагогика. 2003. № 10. – С. 8-14.
4. Краевский В.В., Вербицкий А.А. Проблема образовательных результатов в контексте компетентностного подхода. // Образование и современность. 2021, № 3. – С. 15-25.
5. Капитонова Т.И., Московкин Л.В., Шукин А.Н. Методы и технологии обучения русскому языку как иностранному. – Москва: Русский язык. Курсы, 2009.

ХАРАКТЕРИСТИКА МЕТОДИЧЕСКОГО ИНСТРУМЕНТАРИЯ МОТИВАЦИИ В УЧЕБНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СТУДЕНТОВ БАКАЛАВРИАТА

Кошанова Гулбахар Кутлымуратовна – старший преподаватель

koshanovagulbahar40@gmail.com

Нукусский государственный педагогический институт имени Ажинияза

БАКАЛАВРИАТ ТАЛАБАЛАРИНИНГ ЎҚУВ ФАОЛИЯТИДА УСЛУБИЙ МОТИВАЦИЯ ВОСИТАЛАРИНИНГ ХУСУСИЯТЛАРИ

Кошанова Гулбахар Кутлымуратовна – катта ўқитувчи

Ажинийёз номидаги Нукус давлат педагогика институти

CHARACTERISTICS OF METHODOLOGICAL TOOLS FOR MOTIVATION IN STUDENT EDUCATIONAL ACTIVITIES

Koshanova Gulbakhar Kutlimuratovna – Senior teacher

Nukus State Pedagogical Institute named after Ajiniyaz

Таянч сўзлар: мотивация, ўқув фаолияти, бакалавриат, педагогик технологиялар, методик воситалар, билиш фаоллиги.

Резюме. Мақолада бакалавриат босқичи талабаларининг ўқув мотивациясини шакллантириш ва ривожлантиришга қаратилган методик воситалар ёритилган. Муаллиф дидактик воситалар, педагогик технологиялар ҳамда ўқув фаолиятини фаоллаштирувчи усуллар таҳлил қилади. Шунингдек, талабаларнинг индивидуал хусусиятларини инобатга олган ҳолда таълим жараёнини ташкил этиш бўйича амалий тавсиялар келтирилган.

Ключевые слова: мотивация, учебная деятельность, бакалавриат, педагогические технологии, методический инструментарий, познавательная активность.

Резюме. В статье рассматриваются ключевые аспекты методического инструментария, направленного на формирование и развитие учебной мотивации студентов бакалавриата. Автор акцентирует внимание на педагогических технологиях, стимулирующих познавательную активность, а также на конкретных методах и приёмах, обеспечивающих устойчивую мотивацию к обучению. Представлены практические рекомендации по проектированию учебного процесса с учётом индивидуальных особенностей студентов.

Key words: motivation, learning activity, undergraduate education, pedagogical technologies, methodological tools, cognitive engagement.

Summary. The article examines the methodological tools aimed at stimulating learning motivation among undergraduate students. The author highlights pedagogical technologies and techniques that activate cognitive engagement and sustain motivation. Practical recommendations for organizing the learning process considering students' individual traits are provided.

Введение. Современная система высшего образования сталкивается с задачей формирования не только профессиональных, но и личностных компетенций обучающихся. В этом контексте мотивация становится важнейшим фактором успешного освоения образовательных программ. Особенно актуально это для студентов бакалавриата, находящихся на этапе становления как специалистов. Мотивация в учебной деятельности обеспечивает направленность, активность и устойчивость учебных действий, что требует от преподавателя владения разнообразным методическим инструментарием.

Современное высшее образование переживает трансформационные процессы, в центре которых находится личность студента. Одним из важнейших факторов успешного усвоения знаний является учебная мотивация. Аманкулов Ш. подчеркивает что, методический инструментарий, обеспечивающий формирование устойчивой учебной мотивации, становится приоритетным направлением педагогического проектирования [1]. В рамках педагогической практики мотивация классифицируется на: внутреннюю (интерес к знаниям, стремление к саморазвитию); внешнюю (оценки, контроль, перспективы трудоустройства); положительную

(удовольствие от процесса); отрицательную (страх перед наказанием, неуспехом).

Разработка методического инструментария должна учитывать все эти виды мотивации, их динамику и индивидуальные особенности обучающихся.

Проблема мотивации учебной деятельности занимает одно из центральных мест в психолого-педагогических исследованиях. Теоретические основы изучения мотивационной сферы личности были заложены в трудах отечественных ученых, рассматривавших мотивацию как внутренний механизм, определяющий направленность и активность деятельности человека. Существенный вклад в разработку теории мотивации внесли А.Н.Леонтьев, Л.И.Божович, А.К.Маркова, Е.П.Ильин, И.А.Зимняя и другие исследователи. В работах Е.П.Ильина мотивация трактуется как сложная система мотивов, потребностей, целей и интересов личности, определяющих деятельность человека [2].

Н.Малошенок, Т.Семенова и Е.Терентьев подчеркивают, что теория самодетерминации является одной из наиболее продуктивных для анализа мотивации студентов высшей школы, так как позволяет учитывать как внутренние, так и внешние причины вовлечения в учебную деятельность [3].

В исследованиях А.Н.Леонтьева мотивация раскрывается через категорию деятельности, в которой мотив выступает в качестве побуждающего фактора активности личности. Автор подчеркивал, что именно мотив определяет личностный смысл деятельности и влияет на степень вовлеченности человека в процесс обучения.[4]

М.В.Ляшенко отмечает, что лишь незначительная часть студентов демонстрирует устойчивую внутреннюю мотивацию к обучению, тогда как большинство ориентировано преимущественно на внешние стимулы: получение диплома, социальное одобрение или избегание неудач [5].

В работах А.К.Марковой учебная мотивация рассматривается как сложная многоуровневая система, включающая познавательные, социальные и профессиональные мотивы. Автор подчеркивала, что развитие мотивационной сферы студентов напрямую связано с организацией образовательного процесса и характером педагогического взаимодействия. Особое внимание исследователь уделяла формированию внутренних мотивов учения, обеспечивающих осознанное и активное отношение к обучению [6].

И.А.Зимняя рассматривала мотивацию как важнейший структурный компонент учебной деятельности. По мнению исследователя, уровень учебной активности студентов определяется степенью их личностной заинтересованности в образовательном процессе, а также способностью преподавателя создавать условия для проявления самостоятельности и познавательной инициативы обучающихся [7].

В исследованиях Т.В.Семеновой предпринята попытка систематизировать теоретико-методологические подходы к изучению учебной мотивации. Автор выделяет несколько ключевых направлений: теорию драйва, теорию ожиданий и ценности, атрибутивную теорию, теорию самоэффективности, теорию достиженческих целей и теорию самодетерминации. Согласно выводам исследователя, мотивация учебной деятельности представляет собой многоуровневую систему, включающую когнитивный, эмоциональный и поведенческий компоненты [8].

Современные зарубежные исследования мотивации учебной деятельности преимущественно базируются на теории самоопределения Э.Деси и Р.Райана. Согласно данной концепции, наиболее устойчивой формой мотивации является внутренняя мотивация, основанная на интересе к содержанию деятельности и стремлении личности к саморазвитию. Исследователи выделяют три базовые психологические потребности, влияющие на формирование устойчивой мотивации: потребность в автономии, компетентности и социальной принадлежности. Удовлетворение указанных потребностей способствует повышению познавательной активности студентов и развитию их самостоятельности в обучении.

Методический инструментарий: понятие и структура

Под методическим инструментарием мотивации понимается совокупность приёмов, методов, форм и средств обучения, направленных на активизацию внутреннего стремления студента к освоению знаний. Он включает:

– мотивационные методы преподавания (проблемное обучение, исследовательская деятельность, кейс-методы);

– дидактические средства (ИКТ, мультимедийные ресурсы, игровые формы);

– формы контроля, стимулирующие учебную активность (проектные задания, самооценка, рефлексия).

В исследованиях Беспалько В.П., «результативность обучения напрямую зависит от согласованности педагогических целей, содержания и средств их реализации» [3].

Психолого-педагогическая основа мотивации

Мотивация студентов базируется на таких теориях, как теория иерархии потребностей А. Маслоу, теория мотивации достижения Д.Макклелланда, а также на деятельностном подходе Л.С. Выготского. С точки зрения педагогики высшей школы, мотивация является неотъемлемой частью компетентностного подхода, ориентированного на активное включение студента в образовательный процесс.

Практические методы и технологии

В практике вузовского преподавания эффективными методами являются:

проектное обучение, которое формирует у студентов личностный интерес через решение актуальных задач;

портфолио, как способ самопрезентации и оценки личных достижений;

обратная связь, основанная на конструктивной оценке и поддержке;

технология "обучение через наставничество", повышающая внутреннюю мотивацию за счёт эмоционального вовлечения.

Также важную роль играют индивидуальные траектории обучения, которые учитывают личные мотивы и цели студентов.

Опыт преподавания в бакалавриате показывает, что наиболее эффективным является комбинированный подход, сочетающий традиционные и инновационные методики. Например, внедрение мотивационного модуля в начале курса (вводная лекция, анкетирование, мотивационные карты) позволяет определить доминирующие типы мотивации у студентов и адаптировать курс к этим данным.

Также эффективны рефлексивные задания – эссе, дневники наблюдений, самооценка, которые стимулируют внутреннюю мотивацию через осознание смысла учёбы. Рекомендуется регулярное проведение мониторинга мотивации (например, с использованием шкалы учебной мотивации А.М. Прихожан), что позволяет своевременно корректировать методику преподавания.

Рекомендации по внедрению

Для эффективного применения методического инструментария мотивации рекомендуется:

1. Использовать диагностику учебной мотивации на начальном этапе.

2. Применять технологии адаптивного обучения.

3. Создавать мотивационную образовательную среду с учётом ценностей и интересов молодёжи.

4. Постоянно обновлять учебные кейсы, привлекая студентов к их созданию.

Проблемы и ограничения

На практике выявлены трудности, мешающие эффективному применению мотивационного инструментария:

Недостаточная методическая подготовка преподавателей;

Ограниченность времени на занятия;

Низкий уровень цифровой грамотности у студентов и преподавателей;

Недооценка роли мотивации в учебных планах и программах.

Заключение. Таким образом, методический инструментарий мотивации студентов бакалавриата представляет собой гибкую, адаптивную систему, способную не только поддерживать познавательный интерес, но и формировать устойчивую установку на

саморазвитие. В условиях цифровизации образования, педагогическая задача заключается в том, чтобы находить эффективные способы включения студентов в активную учебную деятельность на основе внутренних мотивов.

Развитие методического инструментария мотивации в образовательной деятельности бакалавров является актуальной задачей современного педагогического процесса. Эффективность обучения напрямую зависит от уровня мотивации, а значит – и от того, насколько грамотно преподаватель использует комплекс педагогических, цифровых и психолого-дидактических средств. Необходимо дальнейшее теоретическое осмысление и практическое обоснование методических решений, интеграция инновационных технологий и развитие педагогической рефлексии.

Литература

1. Аманкулов Ш. Мотивация студентов к обучению и профессиональному развитию. ([in-academy.uz])
- 2.: https://vo.hse.ru/article/view/15408?utm_source=chatgpt.com Учебная мотивация студентов российских вузов: возможности теоретического осмысления | Вопросы образования / Educational Studies Moscow.
3. Малошенок Н., Семенова Т., Терентьев Е. Учебная мотивация студентов российских вузов: возможности теоретического осмысления. ([vo.hse.ru])
4. Леонтьев А.Н. Проблемы развития психики. - Москва: МГУ, 1972.
5. Ляшенко М.В. Мотивация учебной деятельности: основные понятия и проблемы. [vestnik.susu.ru]
6. Маркова А.К. Формирование мотивации учения. - Москва: «Просвещение», 1990.
7. Зимняя И.А. Педагогическая психология. - Москва: «Логос», 2002.
8. Семенова Т.В. Теоретико-методологические подходы к изучению учебной мотивации: комплексный взгляд. ([monitoringjournal.ru])

MAKTAB O'QUVCHILARIDA INTELLEKTUAL SAVODXONLIKNI
RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Matmuratova Gulistan Kamalatdinovna – katta o'qituvchi

g.matmuratova@ndpi.uz

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОЙ
ГРАМОТНОСТИ У ШКОЛЬНИКОВ

Матмуратова Гулистан Камалатдиновна – старший преподаватель

Нукусский государственный педагогический институт имени Ажинияза

PEDAGOGICAL FOUNDATIONS OF DEVELOPING INTELLECTUAL
LITERACY IN SCHOOLCHILDREN

Matmuratova Gulistan Kamalatdinovna – Senior teacher

Nukus State Pedagogical Institute named after Ajiniyaz

Tayanch so'zlar: intellektual savodxonlik, tanqidiy fikrlash, mantiqiy tafakkur, pedagogik texnologiyalar, mustaqil fikrlash, ijodkorlik, kompetensiya, ta'lim sifati.

Rezyume. Mazkur maqolada intellektual savodxonlik mazmuni, uning tarkibiy qismlari, tanqidiy va mantiqiy fikrlashni rivojlantirishdagi o'zni hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida o'quvchilarning mustaqil fikrlash, ijodkorlik va muammolarni hal etish kompetensiyalarini shakllantirish masalalari yoritilgan.

Ключевые слова: интеллектуальная грамотность, критическое мышление, логическое мышление, педагогические технологии, самостоятельное мышление, творчество, компетентность, качество образования.

Резюме. В данной статье рассматриваются сущность и структура интеллектуальной грамотности, её роль в развитии критического и логического мышления, а также значение современных педагогических технологий в формировании самостоятельного мышления, творческих способностей и навыков решения проблем у школьников.

Key words: intellectual literacy, critical thinking, logical thinking, pedagogical technologies, independent learning, creativity, competence, quality of education.

Summary. This article examines the essence and structure of intellectual literacy, its role in developing critical and logical thinking, as well as the significance of modern pedagogical technologies in forming independent thinking, creative abilities, and problem-solving skills in schoolchildren.

Kirish. XXI asrda jamiyat rivoji bilimli, tanqidiy fikrlaydigan va yangicha yechimlar topa oladigan shaxslarga ehtiyoj sezmoqda. Shu bois, ta'limning ilk bosqichidanoq o'quvchilarning intellektual savodxonligini rivojlantirish masalasi muhim ahamiyatga ega. Boshlang'ich sinflar bolaning fikrlash, anglash, tahlil qilish va ijodiy yondashish qobiliyati asosi qo'yiladigan davr hisoblanadi.

Bugungi kunda ta'lim tizimi oldida turgan asosiy vazifalardan biri – o'quvchilarning intellektual salohiyatini rivojlantirish va zamonaviy bilimlarga ega, mustaqil fikrlay oladigan shaxslarni tarbiyalashdir. Boshlang'ich sinf – bolaning fikrlash, mulohaza qilish, axborotni qayta ishlash va qo'llash ko'nikmalari shakllanadigan muhim bosqich hisoblanadi. Shu bois, intellektual savodxonlikni oshirishga qaratilgan maqsadli yondashuv bu bosqichda juda ahamiyatlidir.

Intellektual savodxonlik – bu axborotni qabul qilish, tahlil qilish, mantiqiy xulosa chiqarish va uni amaliyotda qo'llay olish qobiliyatidir. Bu tushuncha bir necha asosiy yo'nalishlarni o'z ichiga oladi:

Tanqidiy fikrlash – ma'lumotni baholash, asosli va asossiz fikrlarni ajratish.

Mantiqiy tahlil – ma'lumotlar o'rtasidagi bog'liqlik va sabab-oqibat munosabatlarini topish.

Ijodiy yechimlar – muammolarga yangi va samarali yo'l topish.

Axborotdan to'g'ri foydalanish – ishonchli manbalarni tanlash va ularni tahlil qilish [1].

Intellektual savodxonlik – bu o'quvchining axborotni to'g'ri qabul qilish, tahlil qilish, xulosa chiqarish va

amaliyotda qo'llash qobiliyatidir. U faqat bilim olish bilan cheklanib qolmaydi, balki:

Mustaqil fikrlash

Manbalar bilan ishlash

Muammolarni ijodiy yechish

Mantiqiy tahlil qilish

kabi ko'nikmalarni ham o'z ichiga oladi.

Intellekt atamasi kundalik hayotimizda juda ko'p ma'noda qo'llanadi, turlicha izoh beriladi. Intellektni mustaqil reallik sifatida ajratishni asosiy mezonini uning xulq atvorini boshqarish funksiyasi hisoblanadi. O'zbekistonda esa bu masala yuzasidan M.G.Davletshin, E.G'.G'oziyev, B.R.Qodirov, G'.B.Shoumarov, V.M.Karimova R.Toshimov, M.M.Mamatov, E.Z.Usmonova, Z.E.Nishonova, M.Vohidovlarning fikrlarini o'rganish maqsadga muvofiqdir.

E.G'.G'oziyev O'zbekistonda tafakkur psixologiyasini keng yoritgan olimlardan biridir. Muallifning fikriga ko'ra, inson tafakkuri o'zining mustaqilligi jihatidan mustaqil va nomustaqil tafakkurga ajratiladi. «Tafakkurning mustaqilligi deganda, kishining shaxsiy tashabbusi bilan o'z oldiga konkret maqsad, yangi vazifalar qo'ya bilishi, ular yuzasidan amaliy va ilmiy xarakterdagi faraz qilishi, natijani ko'z oldiga keltira olishi, qo'yilgan vazifani hech kimning ko'magisiz, ko'rsatmasisiz o'zining aqliy izlanishi tufayli, turli yo'l, usul va vositalar topib, mustaqil ravishda hal qilishdan iborat aqliy qobiliyatni tushunish kerak»

Tafakkurning mustaqilligi aqlning sertashabbusligi, pishiqiligi va tanqidiyligida namoyon bo'ladi. Aqlning sertashabbusligi deganda insonning o'z oldiga yangi muammo, aniq maqsad va konkret vazifalar qo'yishini, ana

shularning barchasini amalga oshirish, nihoyasiga yetkazishda, yechimini qidirishda usul va vositalarning shaxsan o'zi izlashi, aqliy zo'r berib intilishi, ularga taalluqli qo'shimcha belgi va alomatlarning keltirilishidan iborat bosqichlarning bo'lishini nazarda tutamiz. Aqlning pishiqiligi vazifalarni tez echishda, echish paytida yangi usul va vositalarni tez izlab topishda, ularni saralashda, ana shu usullar va vositalarni o'z o'rnida aniq qo'llashda trafaretga aylangan usul, eski yo'l va usullardan forig' bo'lishda va boshqa jarayonlarda ifodalanadi.

E.G'.G'oziyev aqliy taraqqiyotning o'sishini maktabda olinadigan bilimlar ta'minlaydi, deb hisoblaydi. O'quvchilarni aqliy jihatdan o'stirish uchun ularni faqat bilimlar tizimi bilangina emas, balki muayyan aqliy faoliyat usullari (tahlil, sintez, taqqoslash, turkumlash, mavhumlashtirish, umumlashtirish, esda olib qolish va boshqalar) o'quv, ko'nikma va malakalarni ko'zda tutish kerakligini ta'kidlaydi. O'quvchilar aql-zakovatini kamol toptirishda mantiqiy tafakkurning ahamiyati katta, chunki tafakkurning rivojlanishi aqlni qo'shimcha ma'lumotlar bilan boyitadi.

Aqliy faoliyat insonning muayyan bilimlarni o'zlashtirish yoki yangiliklarni ochish bilan bog'liq psixik faoliyatdir. Tafakkur atrof-muhitdagi voqelikni nutq yordami bilan bevosita, umumlashtirgan holda aks ettiruvchi psixik jarayon, sotsial-sababiy bog'lanishlarni anglashga, yangilik ochishga va prognoz qilishga yo'naltirilgan aqliy faoliyatdir [2].

Tahliliy yondashuv. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida intellektual savodxonlikni rivojlantirish uchun o'qituvchi quyidagi masalalarga e'tibor qaratishi lozim:

Ta'lim jarayonida faol ishtirokni ta'minlash

Masalan: 2-sinf tabiat fanidan "Suvning holatlari" mavzusida dars o'tilganda, bolalarga tajriba orqali muzning erishi va suvning qaynashi ko'rsatiladi. Keyin "Nima uchun muz eriganda suv hosil bo'ladi?" kabi savollar orqali mantiqiy fikrlashga undaydi.

Muammoli vaziyatlar yaratish

Masalan: Matematika fanidan "Ahmad 3 dona qalam sotib oldi, unda yana 2 dona qalam bor edi. Uning jami necha qalami bo'ldi?" kabi oddiy misoldan tashqari, "Ahmad 5 dona qalamini do'stlariga teng taqsimlamoqchi. U har bir d'stiga necha qalam berishi mumkin?" kabi ijodiy savol qo'shiladi.

Topishmoqlar ongga ta'sir qilishning ko'p taraflama vositasi hisoblanib, maqsadi shaxs kamolotining barcha boshqa jihatlar bilan yaxlitlikda topishmoqlardagi o'qil (dono fikrlar, teran va muhim narsa haqidagi ko'plab ma'lumotlar) va go'zallik (topishmoqlarning mukammal badiiy shakllari, inson hayotining va tabiiy hodisalalarning shoironaligi)ning uzviy bog'liqligi sharofati bilan erishilgan. Ayni holda, aql xalq tomonidan maqsad, go'zallik esa vosita deb baholangan. Aynan topishmoqlardagi go'zallik tufayli sog'liq ahloq, mehnat haqidagi fikrlar bu qadar ma'nodorlik kasb etgan. Etnopedagogik mitti asarlar maqol va topishmoqlar xalq hayotida katta ahamiyatga ega bo'lib kelgan. Ularning ahamiyati bugungi kunda ham zarracha kamaygani yo'q. Xalq so'zlarni tejab ishlatgan, fikrni saqlash va uzatishdagi samarador vositalarni qadrlagan, ayniqsa nutq lo'ndaligini yuqori baholagan: «Ko'p gap eshakka yuk». Azaldan maqollar haqida ajoyib fikrlar mavjud. Yunonlar va rimliklar uchun maqollar jamiyatning hukmron fikri

bo'lgan, italiyaliklar uchun – xalq maktabi, ispanlar uchun – ruh ozig'i, cheklar uchun – ajdodlar donoligi, chuvashlar uchun – keksalar o'giti, Sharq xalqlari uchun – dur shodasidek so'zning husni, o'zbeklar uchun donolik va ezgulik maktabi hisoblangan. Barcha uchun esa xalq maqol va topishmoqlari xalq xazinasidagi bebaho boylik, deb qaralgan.

Topishmoqlar bolaning xotirasini, fikrlash qobiliyatini, zehn o'tkirligini oshirishga imkon tug'dirgan.

Topishmoqlar bolaga turli narsalarning belgilarini qiyoslashga, ulardagi umumiylikni topishga o'rgatgan va shu bilan birga narsalarni tasnif qilish, ulardagi kerak narsalarni olib tashlash uquvini shakllantirgan. Boshqacha aytganda, topishmoqlar yordamida nazariy, ijodiy tafakkur asoslari shakllangan.

Savol-javob topishmoqlar odamlar hayoti va faoliyatining ko'p tomonlarga daxl qiladi. Ularda xalqning odatlagi tasavvurlari aks etadi. Aqliy tarbiyada bu topishmoqlarning ahamiyati g'oyat yuksak. Ular nafaqat fahmlash va faol fikriy faoliyatni talab etadi, balki ko'proq xotirlashga ham undaydi. Ayrim savol-javob topishmoqlarga javoban bolalar maqollar, qo'shiqlar va ertaklarda uchradilar. Ertaklardagi javoblar turli variantlardan iborat bo'ladi. Mazmun jihatdan ishonchli va shakl jihatdan shoirona javob eng muvaffiyatli hisoblanadi. Masalan «Dunyoda odam uchun eng qimmatli narsa nima» degan topishmoqqa «Vatandan qimmatli narsa bo'lmas» degan javob «Xujayin va uning malayi» degan tarixiy ertakda bor.

Topishmoqlar bolaning kuzatuvchanligini rivojlantiradi. Bola qancha kuzatuvchan bo'lsa, u shunchalik tez va tug'ri topadi. Topishmoq topishni o'rgangan bolaga o'zi ham topishmoqlar to'qishini vazifa qilib bersa bo'ladi.

Axborot texnologiyalaridan foydalanish

Masalan: Internetda "Google Earth" yordamida geografiya bo'yicha virtual sayohatlar o'tkazish. Bu orqali o'quvchilar axborot izlash, taqqoslash va taqdim qilish ko'nikmasiga ega bo'ladi.

Tadqiqotchilik ko'nikmasini shakllantirish

Masalan: 3-sinfda "O'simliklar hayoti" mavzusini o'tganda o'quvchilarga uyda kichik tajriba qilish topshiriladi – urug'ni suvda va quruq muhitda o'stirish va natijalarini sinfda taqdim etish.

Amaliy tavsiyalar. Maktab o'quvchilarining intellektual savodxonlikni oshirishda bir qancha interaktiv o'qitish metodlaridan foydalanish samara beradi.

"Aql xaritasi" metodi – mavzuni umumiy sxemada aks ettirish, masalan, "Suvning ahamiyati" bo'yicha markazda "Suv" so'zi yoziladi va undan turli tarmoqlar chiqariladi (ichimlik, tozalash, qishloq xo'jaligi, energiya).

"Ikki qismli kundalik" – kitob o'qishda bir kolonkada matndan iqtibos, ikkinchi kolonkada shaxsiy fikr yoziladi.

"Oyna orqali qarash" – voqeani boshqa shaxs nuqtai nazaridan tasvirlash mashqi. Jamoaviy loyihalar – masalan, "Mening orzu shahrim" maketi, u yerda bolalar ijodkorlik va mantiqiy rejalashtirish ko'nikmalarini ishlatadi.

"Aql charog'i", "Fikrlar xaritasi" kabi usullar orqali o'quvchilarning fikrlash jarayonini faollashtiradi. Jamoaviy muhokamalar, rol o'yinlari va savol-javoblar o'tkazish va hakoza [3].

Maktab o'quvchilarining ta'lim faoliyatida texnologiya-larni faol qo'llovchi pedagoglar tarbiyalanuvchilarda ta'lim jarayoni samaraliroq kechishini, texnologiyalardan

foydalanish bolalarga o'quv materialini batafsil o'rganish imkonini berishini va o'zlashtirish yanada qiziqarli darajada kechishini ta'kidlaydilar. Zamonaviy dunyo innovatsion texnologiyalarga asoslangan samarali va qiziqarli ta'lim usullarini talab qiladi, chunki zamonaviy ta'lim zamonaviy texnologiyalar bilan hamqadam bo'lib bormoqda.

Bundan tashkari o'quvchilar bilan sinfda kichik tadqiqot ishlarini olib borish bolalarning intellektual savodxonligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda bolalar bilan tabiat, jamiyat yoki oddiy hayotiy masalalar bo'yicha kichik tadqiqotlar tashkil qili, bolalarni topilmalarini sinfda taqdim etishga o'rgatish, axborot texnologiyalaridan foydalanish, komp'yuter dasturlari, ta'limiy platformalar va mul'timedia materiallari yordamida bilimni chuqurlashtirish, onlayn kitoblar va ensiklopediyalar bilan tanishtirish, muammoli vazifalar berish, oddiy mashqlar o'rniga ijodiy va mantiqiy fikrlashni talab qiluvchi savollar berish orqali ukuvchilarning tanqidiy fikrlashni rivojlantiriladi.

Bul ishlarni tashkil etishda o'qituvchining roli bexiyos. O'qituvchi intellektual savodxonlikni rivojlantirish jarayonida qo'llab-quvvatlovchi, yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi va ilhomlantiruvchi shaxs bo'lishi lozim. U bolalarda bilimga qiziqish uyg'otishi, savol berishga rag'batlantirishi va mustaqil izlanish ko'nikmasini shakllantirishi kerak.

Xulosa. Intellekt inson aqliy faoliyatining, aql-zakovatini, ongli hatti-harakatining yuksak shakli hisoblanadi. Intellekt tevarak-atrofni, ijtimoiy muhitni hamda voqelikni bilish quroli, shuningdek, insonning keng ko'lamdagi faoliyatini oqilona amalga oshirishning asosiy sharti sanaladi.

Chindan ham intellektual salohiyatni yuksaltirish bugungi kunda milliy taraqqiyotning asosiy sharti va mezoniga aylanmoqda. Chunki intellektual jihatdan qoloq xalq hech qachon rivojlanmaydi. Dunyodagi taraqqiy topgan mamlakatlar eksport qiladigan mahsulotlarining ko'pchiligi intellektual mulk hisoblanadi.

Intellektual savodxonlikni rivojlantirish – bu faqat bilim berish emas, balki bolani mustaqil fikrlaydigan, tahlil qiladigan va ijodiy yechim topadigan shaxs sifatida tarbiyalashdir. Boshlang'ich sinfda bu jarayonni interaktiv usullar, axborot texnologiyalari va tadqiqotchilik faoliyati bilan uyg'unlashtirish eng samarali yo'l hisoblanadi.

Maktab o'quvchilarining intellektual savodxonlikni oshirish – kelajakda bilimli, ijodkor va mustaqil fikrlaydigan yosh avlodni voyaga yetkazishning asosiy garovidir. Bu jarayonda zamonaviy pedagogik texnologiyalar, ijodiy yondashuv va bolalarning qiziqishlarini hisobga olgan holda tashkil etilgan ta'lim eng samarali natijalarni beradi.

Adabiyotlar

1. Выготский Л.С. Мышление и речь. – Москва: «Лабиринт», 1999.
2. Axmedova M. Boshlangich sinflarda o'qitish metodikasi. –Toshkent: «O'qituvchi», 2018.
3. Xolikov D. Boshlangich ta'limda innovasion metodlar. –Toshkent: «Fan», 2020.

**BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'QUVCHILARNING ADABIY TAHLIL
KO'NIKMASINI SHAKLLANTIRISH****Matchonov Safo** – *pedagogika fanlari doktori, professor*safomatchonov1949@gmail.com*Chirchiq davlat pedagogika universiteti***РАЗВИТИЕ НАВЫКОВ ЛИТЕРАТУРНОГО АНАЛИЗА У УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ****Матчонов Сафо** – *доктор педагогических наук, профессор**Чирчикский государственный педагогический университет***DEVELOPING STUDENTS' LITERARY ANALYSIS SKILLS IN PRIMARY GRADES****Matchonov Safo** – *Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**Chirchik State Pedagogical University*

Tayanch so'zlar. Badiiy matn, asar tahlili, ifodali o'qish, asarning g'oyaviy asoslari va mavzusi, obrazlar tizimi, syujet chizig'i, kompozitsiyasi va tasviriy vositalari, o'quvchilarning bilish faoliyatini shakllantirish.

Rezyume. Maqolada umumiy o'rta ta'lim tizimida adabiyot mustaqil o'quv fani sifatida o'z statusiga ega bo'lgani sababli boshlang'ich ta'limda ham bolalar adabiyotini o'qitish metodikasiga metodist olimlar mustaqil o'quv predmeti sifatida qarash lozimligi ilmiy-metodik jihatdan asoslangan. Shuningdek, boshlang'ich sinflarda badiiy matn ustida ishlash bosqichlariga usullari haqida so'z yuritilgan.

Ключевые слова: художественный текст, анализ произведения, выразительное чтение, идейная основа и тема произведения, система образов, сюжетная линия, композиция и художественно-изобразительные средства, формирование познавательной деятельности учащихся.

Резюме. В статье научно-методически обосновано, что, поскольку литература в системе общего среднего образования имеет статус самостоятельной учебной дисциплины, методика преподавания детской литературы в начальном образовании также должна рассматриваться учёными-методистами как самостоятельный учебный предмет. Кроме того, рассматриваются этапы и методы работы над художественным текстом в начальных классах.

Key words: literary text, literary analysis, expressive reading, ideological basis and theme of the work, system of characters, plot line, composition and stylistic devices, development of students' cognitive activity.

Summary. This article provides a scientific and methodological justification that, since literature has the status of an independent academic subject within the general secondary education system, the methodology of teaching children's literature in primary education should also be regarded by methodologists as an independent academic discipline. The article also discusses the stages and methods of working with literary texts in primary school.

Kirish. Boshlang'ich sinflarda badiiy asar ustida ishlashni to'g'ri, tez, ongli va ifodali o'qishga o'rgatish vazifasi o'quvchilarda asarni tahlil qilish ko'nikmasini shakllantirish bilan birga amalga oshiriladi. O'qish malakalarini shakllantirish bilan matn ustida ishlashning o'zaro bog'liqligi asarni tahlil qilishga qanday yondashishni belgilab beradi.

Badiiy asar ustida ishlashning 2-bosqichi asar tahlilidir. Asarni tahlil qilishning asosiy yo'nalishi matnning aniq mazmuni (voqealar va uning rivojlanishi)ni, kompozitsiyasini, ishtirok etuvchi shaxslarning axloqi va xarakterli xususiyatlarini, asarning g'oyasini aniqlash hisoblanadi.

Asarni tahlil qilishning metodik shartlaridan biri asar mazmunini uning tasviriy-ifodaviy vositalari bilan bog'liq holda qarashdir. Yana bir asosiy qoida asar ustida ishlash jarayonida ta'lim-tarbiyaviy vazifalarni umumiy ravishda amalga oshirish hisoblanadi. Bu qoidalar asar ustida ishlashning asosiy yo'nalishini belgilaydi, shuningdek, matnni tahlil qilish jarayonida o'quvchilar bajaradigan topshiriqlarni va muhokama qilish uchun ularga beriladigan savollarning xarakterini aniqlab olishga yordam beradi.

Asar tahlili jarayonida matn ustida ishlashning quyidagi turlaridan foydalaniladi:

1. Tanlab o'qish. Bunda o'quvchi matnning berilgan vazifaga mos qismini o'qiydi. Vazifa asarning mazmunini oydinlashtirish, sabab-natija bog'lanishini belgilash, badiiy xususiyatini ochish, o'qilgan matnga o'z shaxsiy munosabatini ifodalashdan iborat bo'lishi mumkin. Tanlab o'qish matn ustida ishlashning eng samarali usulidir.

Tanlab o'qishdan matn ustida ishlashning barcha bosqichlarida turli xil qiyinchilikda, murakkablikda foydalaniladi. U o'quvchilarda yaxshi o'qish sifatlarini o'stirish bilan birga ularning ijodiy tasavvuri, nutqi va zehni o'stirishga yordam beradi. Eng oddiy tanlab o'qish asar mazmuni yuzasidan bo'ladi.

Tanlab o'qish ongli va ifodali o'qish malakasini shakllantirishni matn ustida ishlash ko'nikmasini shakllantirish bilan birga qo'shib olib borishga, bolalarning ijodiy tasavvurini, nutqi va zehni o'stirishga imkon beradi. Shuning uchun undan o'qish darslarida keng foydalaniladi. Tanlab o'qish matn rejasini tuzishda (matn qismiga uning mazmunini ifodalaydigan gapni, ya'ni reja qismini topishda) qahramonga tavsif berish (matndan qahramonning muayyan bir xususiyatini, harakatini tavsiflovchi materiallar tanlash)da, asar g'oyasini aniqlash (g'oyani anglatgan o'rinni topib o'qish)da tatbiq etiladi.

2. O'quvchilarning berilgan savol va topshiriqlarga o'z so'zlari bilan javob berishi. Mashqning bu turi o'quvchilarda o'qilganlar yuzasidan muhokama yuritish ko'nikmasini o'stirishga, asarda qatnashuvchi qahramonlarni baholashga, muallif tasvirlagan hayotiy lavhalar bilan asar g'oyasi o'rtasidagi bog'lanishni aniqlashga imkon beradi. Ishning bu turida beriladigan savollar ma'lum maqsadga yo'naltirilgan va muayyan izchillikda bo'lishi, o'quvchilarni mustaqil fikrlashga undashi lozim. Boshlang'ich sinf o'qish darslarida savol va topshiriqlar qaysi maqsadga yo'naltirilganiga ko'ra quyidagicha tasnif qilinadi:

a) asar mazmunini o'zlashtirish va qayta hikoyalashga doir savol-topshiriqlar.

b) asar tilini o'rganish va o'zlashtirishga doir savol-topshiriqlar.

Savol-topshiriqlar ustida jamoa, juft va yakka tartibda ishlash mumkin.

3. O'quvchilarni savol berishga o'rgatish. O'quvchilarning o'zlarini ham savol tuzishga o'rgatish lozim. Zero, to'g'ri qo'yilgan masalaning o'zi yarim javobdir. Matn yuzasidan savol tuzishda o'quvchining dars mavzusi bilan bog'liq jihatlarga e'tibor berishi asarda tasvirlangan voqea-hodisalar o'rtasidagi sababiy bog'lanishlarni bilib olishga, hayotiy xulosalar chiqarishga yo'l ochadi. Shuning uchun ham matn yuzasidan savol tuzish o'quvchini ongli va tushunib o'qishga yo'llaydi. O'quvchilarni savol berishga o'rgatish matn ustida ishlashda yaxshi natija beradi. O'quvchilar matnni ongli o'zlashtira olsalargina, matn yuzasidan savol bera oladilar. Sh.Sa'dullaning **"Qovun sayli"** hikoyasi yuzasidan savol tuzish topshirig'i quyidagicha beriladi:

– Hikoyadagi birinchi xatboshini o'qing va shu qism yuzasidan savol tuzing.

– Hikoyadagi birinchi xatboshida qo'llangan so'zlarning ma'nosini izohlash bo'yicha savol-topshiriqlar tuzing. (Bejirim, sektor so'zlarining ma'nosini izohlang)

– Hikoya qahramonlari tabiati, boshqalar bilan munosabatlari yuzasidan savollar tuzing va shu kabilar.

Keyinchalik o'quvchilar muhokama va ijodiy savollar berishni ham o'zlashtirib oladilar.

4. Matnni tasvirlash. Matnni tasvirlash matn ustida ishlashda katta ahamiyatga ega bo'lib, o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradi, undan to'g'ri foydalanish esa asarda yozuvchi tasvirlagan hayotiy manzaralarni o'quvchilar aniq tasavvur qilishlari uchun qulay imkoniyat yaratadi. Matnni ikki xil tasvirlash mumkin: 1) **so'z bilan tasvirlash**; 2) **grafik tasvirlash**.

So'z bilan tasvirlash o'ziga xos murakkab ish turi bo'lib, unda manzarani so'z yordamida aniq qayta tiklash talab etiladi. So'z bilan tasvirlash, shuningdek, grafik tasvirlash uchun ham o'quvchi matnni, undagi voqea sodir bo'lgan vaziyatni, qatnashuvchilarning tashqi ko'rinishini, xarakterli xususiyatlarini yaxshi bilishi zarur. So'z bilan tasvirlashda so'zlarni aniq tanlash talab qilinadi, bu esa o'quvchilar nutqini rivojlantirishda foydali vositalardan biri hisoblanadi.

Tasvirlashdan o'qituvchi turli maqsadlarda, chunonchi, reja tuzishga asos sifatida, qayta hikoyalashga tayyorlashda, voqea yuz bergan sharoitni aniqlashda foydalanadi. Tasvirlashdan mustaqil ish sifatida ham foydalaniladi: o'qituvchi matnning ma'lum qismidan o'quvchilarga juda ma'qul bo'lgan manzarani so'z bilan yoki grafik tasvirlashni, unga muallif so'zini tanlashni hamda turli tabiat manzaralarini, qatnashuvchi kishilarning tashqi ko'rinishini, voqea sodir bo'lgan joylarni tasvirlashni topshiriq qilib berishi mumkin.

Matnni so'z bilan tasvirlashga o'rgatishni darslikda beriladigan rasmlarni matndagi shu rasmga mos qism bilan taqqoslab tasvirlashdan boshlash kerak.

So'z bilan tasvirlash bosqichma-bosqich, maxsus tayyorgarlikdan so'ng amalga oshiriladi:

1. Matndan manzara, vaziyat yoki qahramonlarning tashqi ko'rinishi tasvirlangan o'rinlar aniqlanadi.

2. Nisbiy tugallangan o'rinlar ajratiladi.

3. Tasvirlashga leksik-uslubiy tayyorgarlik ko'riladi, ya'ni yozuvchi, shoir qo'llagan lug'aviy birliklarga o'quvchilar diqqati tortiladi va ular tahlil qilinadi. Tasvirlashda so'zni aniq tanlashga yordam beriladi.

4. So'z bilan tasvirlashga o'rgatishning dastlabki paytida xattaxtaga foydalaniladigan so'zlar yozib qo'yilishi zarur. So'z bilan tasvirlash qayta hikoyalashga aylanib qolmasligi lozim.

Grafik tasvirlash ko'proq uyda bajariladi. Buning uchun o'quvchilar tasvirlanadigan matn qismini ajratadilar, uni diqqat bilan o'qib chiqadilar, mazmunini o'zlashtiradilar va unga mos rasm chizadilar. Bunda o'quvchilar bilan qanday ranglardan foydalanish, ranglar ifodalaydigan ma'nolar bo'yicha suhbat o'tkaziladi. Rasmlar ko'rgazmasi tashkil etiladi. Har bir rasm muallifi o'zi chizgan rang tasvirini izohlab beradi. Kompyuterlashtirilgan sinflarda grafik tasvirlash sinfda ham bajartirilishi mumkin. Bunda o'quvchilarning ijodiy yondashuvlariga imkon beriladi.

O'quvchilar asar voqealari rivojini seriyali rasmlar asosida muayyan izchillikda tasvirlashlari ham, har bir rasm seriyasi ostida shu qismda ifoda etilgan muhim fikrlarni yozib qo'yishlari ham mumkin. Bular asar matnini to'liq qayta hikoyalash, shuningdek, o'qilgan hikoya, maqolaning rejasini tuzish, matn mazmunini, uning tasviriy vositalarini bilib olishga yordam beradi.

5. Asar rejasini tuzish. Reja matn mazmunini ongli va chuqur tushinishda, asosiy fikrni ajratishda, voqealarning izchilligini belgilashda, matn qismlarining o'zaro bog'lanishini tushinishda o'quvchilarga yordam beradi. Reja ustida ishlash o'quvchilar nutqi va tafakkurini o'stiradi. Ular matnni mazmunan tugallangan qismlarga bo'lishga va har bir qismning asosini topishga, ularga qisqa va aniq sarlavha topishga, uni reja qismi sifatida shakllantirishga o'rganadilar.

Reja tuzishga tayyorgarlik ishlari savod o'rgatish davridayoq boshlanadi. Tayyorgarlik mashqining eng oddiy turi berilgan sarlavhalardan kichik matn mazmuniga mosini topib qo'yish hisoblanadi. Bunday mashqqa o'rgatishda o'qituvchi sarlavha asosiy fikrni ifodalashini ta'kidlaydi, bolalar topgan sarlavhani tahlil qilib, u yoki bu sarlavha nima uchun mos yoki mos emasligini tushuntiradi. Reja tuzishga tayyorgarlik ishining ikkinchi turi o'qituvchi rahbarligida tanlab o'qish hisoblanadi, bolalar matndan o'qituvchi bergan savolga javob bo'ladigan o'rinni topib o'qiydilar.

Reja tuzish "oddiydan murakkabga" tamoyili asosida asta-sekin murakkablashtirilib, muayyan izchillikda o'tkazib boriladi. O'quvchilar 1-sinfda o'qilgan kichik matnga o'qituvchi rahbarligida so'roq gap tarzida sarlavha tanlashlari, 2-sinfda kichik maqolaning rejasini o'qituvchi rahbarligida so'roq yoki darak gap tarzida tuzishlari, 3-sinfda o'qilgan matn rejasini jamoa bo'lib tuzishlari, 4-sinfda mustaqil reja tuza olishlari kerak.

Rejaning eng oddiy shakli rasmi reja hisoblanadi. Buning uchun avval bolalar kitobda berilgan rasmlardan matn qismiga mosini tanlashga va uni nomlashga o'rgatiladi, keyin matn qismiga tayyor rasm berilmaydi, uni bolalarning o'zlari so'z bilan tasvirlaydilar. Hikoya o'qiladi va qismlari bo'yicha tahlil qilinadi, so'ng o'quvchilar matnning 1-qismini o'qiydilar, o'qituvchi ulardan qanday rasm chizish mumkinligini so'raydi. Qolgan qismlari ustida ham ishlar shu tarzda ishlanadi. O'quvchilar chizgan

rasmlariga nom (sarlavha) qo'yadilar. Ular qo'ygan nom sarlavha doskaga reja qismi tarzida yozib beriladi.

O'quvchilar rasmi reja tuzishdan mantiqiy reja tuzishga o'tadilar. Bunday reja tuzish quyidagi izchillikda o'rgatiladi:

1. O'qituvchi qismlarga bo'lingan matnga tanlab reja tuzadi va matn rejasining o'rnini almashtirib, sarlavha tarzida xattaxtaning chap tomoniga yozib qo'yadi. O'quvchilar matnning 1-qismini o'qiydilar, shu qism mazmuniga mos sarlavhani topadilar, uni o'qituvchi xattaxtaning o'ng tomoniga yozadi. Ana shu tarzda xattaxtada o'qilgan matnning rejasi hosil bo'ladi.

2. Matn qismlarini tahlil qilish jarayonida o'quvchilar o'qituvchi rahbarligida har bir qismdagi asosiy g'oyani aniqlaydilar va unga sarlavha topadilar, o'qituvchi sarlavhalarni reja tarzida xattaxtaga yozib boradi.

3. Qismlarga bo'linmagan matn tanlanadi, sarlavhalar matn rejasi tartibida xattaxtaga yoziladi. O'quvchilarga berilgan sarlavhalardan foydalanib, matn qismlarga bo'lish topshiriladi. Ular matn o'qishadi va sarlavhalarga tegishli qismni ajratadilar.

10. Tajbenova S.S. Ona tili darslarida o‘quvchilarning lingvistik kompetensiyasini shakllantirish metodikasi (ta’lim qoraqalpoq va qozoq tillarida olib boriladigan boshlang‘ich sinflar misolida): Pedagogika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. – Nukus, 2025.

**BO‘LAJAK MUSIQA O‘QITUVCHILARINING KREATIVLIK JIHATLARINI
TAKOMILLASHTIRUVCHI PEDAGOGIK OMILLAR****Romanova Sanobar Yerejepovna** – *pedagogika fanlari nomzodi, dotsent*rsanobar75@gmail.com*Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti***ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ, СОВЕРШЕНСТВОВАЮЩИЕ КРЕАТИВНЫЕ
АСПЕКТЫ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ МУЗЫКИ****Романова Санобар Ережеповна** – *кандидат педагогических наук, доцент**Нукусский государственный педагогический институт имени Ажинияза***PEDAGOGICAL FACTORS IMPROVING THE CREATIVE ASPECTS
OF FUTURE MUSIC TEACHERS****Romanova Sanobar Yerejepovna** – *Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor**Nukus State Pedagogical Institute after named Ajiniyaz*

Tayanch so‘zlar: pedagog, mahorat, malaka, ijodkorlik, tarbiya, musiqa kuylash, tinglash, musiqa savodi, o‘qituvchi mahorati.

Rezyume. Maqola oliy ta‘limda bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonida foydalanilayotgan samarali usullar zamonaviy pedagogik talablar asosida takomillashtirilishi, darsda faol va interfaol metodlar, amaliy-ijodiy mashg‘ulotlar, loyiha faoliyati, integrativ ta‘lim va raqamli texnologiyalar bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining kasbiy-kreativ kompetentligini shakllantirishda muhim ahamiyatga egaligi va mazkur usullarning tizimli va maqsadli qo‘llanilishi oliy ta‘lim tizimida raqobatbardosh, ijodkor va zamonaviy musiqa o‘qituvchilarini tayyorlashga xizmat qilishi haqida yozilgan.

Ключевые слова: педагог, мастерство, квалификация, креативность, воспитание, исполнение музыки, прослушивание, музыкальная грамотность, педагогическое мастерство.

Резюме. В статье рассматривается совершенствование эффективных методов подготовки будущих учителей музыки в высших учебных заведениях на основе современных педагогических требований. Подчеркивается, что активные и интерактивные методы, практические творческие занятия, проектная деятельность, интегративное обучение и цифровые технологии имеют важное значение в формировании профессионально-креативной компетентности будущих учителей музыки. Также отмечается, что системное и целенаправленное применение этих методов способствует подготовке конкурентоспособных, творческих и современных учителей музыки в системе высшего образования.

Key words: pedagogue, skill, competence, creativity, education, singing, listening, music literacy, teacher's skills.

Summary. The article discusses the improvement of effective methods used in the process of training future music teachers in higher education based on modern pedagogical requirements, the importance of active and interactive methods in lessons, practical and creative activities, project activities, integrative education, and digital technologies in forming the professional and creative competence of future music teachers, and the systematic and targeted application of these methods to train competitive, creative, and modern music teachers in the higher education system.

Kirish. Zamonaviy ta‘lim tizimi globallashuv va innovatsion rivojlanish sharoitida pedagog kadrlarni tayyorlashga nisbatan yangi talablarni ilgari surmoqda. Ayniqsa, oliy ta‘lim tizimida bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarini tayyorlash jarayoni faqat nazariy bilimlar bilan cheklanmay, ularning kasbiy-pedagogik, ijodiy va metodik kompetensiyalarini rivojlantirishni talab etadi.

Bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining kreativlik sifatlarini oshirish ko‘p qirrali pedagogik jarayon bo‘lib, u innovatsion texnologiyalar, ijodiy muhit, shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv, motivatsiya va musiqiy-improvizatsion tajriba orqali amalga oshiriladi. Ushbu omillar uyg‘unligi musiqiy ta‘lim jarayonini zamonaviylashtiradi, bo‘lajak o‘qituvchilarni ijodkor, innovatsion fikrlaydigan professional mutaxassis sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

Har qanday fanni, shu jumladan, musiqa fanini o‘qitish jarayonida ham faollashtiradigan, ularni darsning faol ishtirokchilariga, mustaqil fikrovchi mushohada qiluvchi o‘z fikrlarini bildirish oluvchi o‘quvchi sifatida namoyon qilishi uchun imkoniyat yaratuvchi – bu o‘qituvchidir. O‘qituvchi o‘zi va o‘rganuvchi o‘quvchilar uchun qulay va qiziqarli bo‘lgan o‘qitish usullari, yo‘llari, shakllari,

vositalari ulardan foydalanish shart-sharoitlarini belgilaydi, ilg‘or pedagogik texnologiyalar yordamida o‘quv jarayoni samaradorligini oshirishga harakat qiladi. Shu boisdan ham pedagogik texnologiya, didaktik texnologiya, ta‘lim texnologiyalariga o‘quv jarayonidagi eng samarali vositalar sifatida qaralmoqda. Ulardan bugungi kunda jahon pedagogikasi amaliyotida keng foydalanilmoqda.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Pedagogika oliy ta‘lim fan dasturlari mazmuni bo‘lajak o‘qituvchilarga kasb bo‘yicha bilimlar berish, pedagog faoliyat sirlarini o‘rgatish va talabalarda ko‘nikma hosil qilishga qaratilgan. Yuqorida qayd etilgan vazifalarni bajarishda bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining kasbiy va pedagogik mahoratini shakllantirishga ahamiyat berish zarur. Mahorat – bu “ishni muvaffaqiyatli bajarish uchun zarur bo‘lgan shaxsning shaxsiy xususiyatlari kombinatsiyasidir”. Zero o‘qituvchi “pedagogik kasbiga doir bilimlarni, ya‘ni psixologik, pedagogik malaka va mahoratni, ilmiy-nazariy va amaliy bilimlarni puxta egallagan bo‘lishi” [3, 2] maqsadga muvofiq. Pedagogik texnologiya hozirgi kunda eng rivojlangan mamlakatlar ta‘lim tizimida bo‘lgani kabi bizning Respublikamizda ham ta‘lim jarayonini tashkil qilish, boshqarish, nazorat qilish bilan bog‘liq ishlarda ustuvor o‘rini egallamoqda.

Shuning uchun ham pedagogik texnologiyalardan barcha pedagoglar yaxshi xabardor bo'lishi, ta'lim jarayonida ularni qo'llab dars o'tishlariga muhim e'tibor berilmoqda. Bu aynan jamiyat taraqqiyotining obyektiv qonuniyatlariga mos bo'lib, jamiyat taraqqiy etishi bilan ta'lim-tarbiya mazmuni, maqsad va vazifalari shunga mos ravishda takomillashib borishi bilan bog'liqdir. Hozirgi sharoitda inson faoliyatining asosiy yo'nalishlari taraqqiyotga mos maqsadlarni to'liq amalga oshirish imkoniyatlarini beruvchi modelli tizimga, ya'ni ta'limni texnologiyalashtirishga aylanib bormoqda.

Natijalar va muhokama. Musiqiy ta'lim mazmunini milliy asosda shakllantirish, milliy musiqiy merosdan to'laonli foydalanish, xalq kuy-qo'shiqlari, doston, mumtoz va maqom hamda ularning ta'sirida yaratilgan zamonaviy musiqalar vositasida o'quvchi yoshlarni milliy qadriyatlarimizni teran anglaydigan, Vatanga, o'z xalqiga, tilimizga, dinimizga, tariximizga, san'atimizga ongli munosabatda bo'ladigan va unga vorislik qila oladigan ma'nan yetuk, barkamol shaxsni tarbiyalash asosiy maqsad va vazifa sifatida ko'rsatilgan. Ta'lim jarayonida o'quvchilar musiqa san'atini butun nafosati bilan o'rganishlari, idrok etishlari ommaviy musiqa faoliyatlari: musiqa tinglash, tahlil qilish, jamoa bo'lib qo'shiq kuylash, nazariy bilimlarni o'zlashtirish, (musiqa savodxonligi) raqsga tushish, bolalar cholg'u asboblari chalish va unga jo'r bo'lish, musiqaga ritmik jo'r bo'lish masalalarini shakllantirish musiqiy ta'limning asosiy mazmunini tashkil etadi.

Pedagogik texnologiyalarni barcha turlarida birdek qo'llaniladigan va ta'lim-tarbiya jarayonini tadrijiy tarkib topishida va rivojlanib borishida hal qiluvchi omillar hamda tarkibiy elementlar uch xil faoliyatdan iborat bo'lib, ular so'zlash, ko'rsatish va mashqlar bajarishdan iborat bo'lib musiqa darslariga uni tadbiiq etilganda quyidagicha ketma-ketlik va bog'liqlikda amal qiladi. Musiqa ta'limining o'ziga xosligi tashkiliy tuzilishi, amaliy ijrochilik faoliyatlari, o'qitish usullari, ularning samaradorligini ta'minlovchi omillar, vositalar tahlili va ularni umumiy ijodiy va ijobiy jihatlarni umumlashtirish musiqa ta'limini o'zigagina xos bo'lgan yangi turlarini ishlab chiqish imkonini berdi. Bular ham o'z maqsadi va bajaradigan vazifasi mazmun va mohiyatiga ko'ra pedagogik texnologiya bo'lib, ularni musiqa mashg'ulotlariga tadbiiq etish yaxshi natija bermoqda. Bunday darslar o'quvchilarda yaxshi kayfiyat, jo'shqinlik, ko'tarinki ruh va intilishni kuchaytirmoqda.

Musiqa o'qituvchisi nafaqat musiqiy bilim va ijrochilik mahoratiga ega bo'lishi, balki ta'lim jarayonini samarali tashkil eta oladigan, innovatsion metodlardan foydalanuvchi, ijodkor pedagog bo'lishi lozim. Shu bois, oliy ta'limda bo'lajak musiqa o'qituvchilarini tayyorlashda foydalanilayotgan samarali usullarni aniqlash va ilmiy asoslash dolzarb pedagogik muammo hisoblanadi. Mazkur tadqiqot quyidagi metodologik yondashuvlarga asoslanadi:

Kompetensiyaviy yondashuv bo'lajak musiqa o'qituvchisining kasbiy, ijodiy va pedagogik kompetensiyalarini shakllantiradi. Faoliyatga asoslangan yondashuv esa bilimlarni amaliy va ijodiy faoliyat jarayonida egallashda shaxsga yo'naltirilgan yondashuv orqali talabalarining individual qobiliyatlari va ijodiy salohiyatini hisobga olishni ma'qul topadi. Bunda talabalar bilan tizimli yondashuv orqali musiqa o'qituvchisini

tayyorlash jarayonini yaxlit pedagogik tizim sifatida ko'rib chiqiladi.

Bo'lajak musiqa o'qituvchilarini tayyorlash metodologiyasi pedagogika, psixologiya va musiqa san'ati fanlarining integratsiyasiga asoslanadi. D.B.Kabalevskiy, E.B.Abdullin, L.V.Shkolyarlarning ilmiy qarashlariga asoslangan xulosamizda musiqa o'qituvchisining kasbiy tayyorgarligi tizimli va bosqichma-bosqich tashkil etilishi zarur. Ushbu jarayonda musiqa san'atining estetik mohiyati va pedagogik maqsadlar uyg'unligi ta'minlanadi. Ilmiy adabiyotlarda bo'lajak musiqa o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligi ko'p komponentli tizim sifatida talqin etiladi. E.B.Abdullin va L.V.Shkolyarlarning tadqiqotlari asosida musiqa o'qituvchisining kasbiy tayyorgarligi pedagog uchun [1]:

1. Musiqaga nazariy jihatdan tayyorgarlik;
2. Ijro qilish (qo'shiq va cholg'u ijrochiligi) tayyorgarligi;
3. Pedagogik hamda metodik tayyorgarlik;
4. Kreativ hamda innovatsion faoliyatga tayyorgarlik kerak va zarur bo'ladi.

Ta'lim jarayonida qo'llaniladigan usullar mazkur komponentlarning barchasini rivojlantirishga xizmat qilishi lozim. Zamonaviylikda faol va interfaol usullar ta'lim samaradorligini oshiruvchi muhim omil sifatida e'tirof etiladi. Muammoli ta'lim, munozara, aqliy hujum, keystadiy kabi usullar bo'lajak musiqa o'qituvchilarining mustaqil fikrlashini rivojlantiradi, interfaol metodlar talabalarining o'quv jarayonidagi faolligini oshirib, ularni bilimni ijodiy o'zlashtirishga undaydi hamda kreativlikni oshirishda asosiy pedagogic omil bo'lib xizmat qiladi. Musiqa ta'limida bu usullar asar tahlili, ijro talqini va dars loyihalash jarayonida samarali qo'llaniladi. Musiqiy komponentlar vokal, xor, cholg'u ijrochiligi, improvizatsiya va bastakorlik elementlari bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy mahoratini oshiradi. Hamda musiqiy ijrochilik faoliyati orqali talabalarda pedagogik sezgirlik va ijodiy tafakkur rivojlanishi tadqiqotlarda isbotlangan.

Bugungi oliy ta'lim tizimida auditoriyadan tashqari mustaqil ta'limga ko'p e'tibor qaratilib talabalarga mustaqil ravishda dars ishlanmalari, konsert dasturlari va musiqiy loyihalar yaratish imkonini bermoqda. Loyiha faoliyati bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy-kreativ kompetentligini, mas'uliyatini va ijodiy tashabbuskorligini rivojlantiradi.

Musiqa ta'limida fanlararo integratsiya samarali usullardan biri hisoblanadi. Oliy ta'limni raqamli texnologiyalarsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Kompyuter dasturlari yordamida musiqa yaratish, nota yozish va audio-video tahlil qilish bo'lajak musiqa o'qituvchilarining ijodkorlik faolligini oshiradi. Raqamli texnologiyalar asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni talabalarining innovatsion fikrlashini rivojlantiradi. Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, oliy ta'limda bo'lajak musiqa o'qituvchilarini tayyorlashda samarali usullardan foydalanish ta'lim sifatini oshirib faol, amaliy va innovatsion usullar talabalarining kasbiy tayyorgarligini mustahkamlaydi, ularning ijodiy salohiyatini ro'yobga chiqaradi.

Bo'lajak musiqa o'qituvchilarining kreativ sifatlarini shakllantiruvchi pedagogik omillar bu innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanish bo'lib texnologiya bilan musiqiy san'atni jamlash, interaktiv metodlarni oson va qiziqarli olib borish, musiqiy virtual asboblari, audio tahlil

platformalari va multimedia vositalari orqali musiqa darsini vizuallashtirish orqali dars qiziqarli bo'ladi. Bu texnologiyalar o'quvchilarning musiqiy materialni o'zlashtirish jarayonini qiziqarli va ijodiy qiladi. Kreativlikni rivojlantirish ko'p jihatdan ta'lim muhitiga bog'liq. Ijodiy muhit quyidagilar bilan ta'minlanadi:

-erkin fikrlash va ifoda imkoniyati;

-xatolarni ijodiy jarayonning tabiiy qismi sifatida qabul qilish;

-talabalarga mustaqil musiqiy loyihalar yaratish vazifalarini berish;

-musiqiy improvizatsiyalarni rag'batlantirish [2]

Pedagog tomonidan berilayotgan rag'batlantirish, bilmaganlarini bilishiga ko'maklashish talabada ichki motivatsiyani kuchaytiradi. talabalarining ichki motivatsiyasi kuchaysa, ijodiy faolligi ham ortadi. Konkurslar, festivallar, ijodiy loyihalar, konsert dasturlarida qatnashish kreativlikning shakllanishi uchun muhim omildir.

O'qituvchining e'tirofi, qo'llab-quvvatlashi ham shaxsning ijodiy o'sishiga ta'sir ko'rsatadi. Musiqa darslarida improvizatsiya kreativlikning eng samarali va natijali shaklidir. Talabalarining ritmik, melodik, vokal yoki instrumental improvizatsiyaga jalb qilinishi musiqiy tafakkur, fantaziya va kompozitsion qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Bo'lajak musiqa o'qituvchilarining kreativlik sifatlarini oshirish ko'p qirrali pedagogik jarayondir. Innovatsion texnologiyalar, ijodiy muhit, shaxsga yo'naltirilgan yondashuv, motivatsion omillar va improvizatsion faoliyat birgalikda talabaning musiqiy ijodkorlik potensialini yuksaltiradi. Natijada musiqiy ta'lim zamon talablari asosida rivojlanadi, ijodkor va raqobatbardosh musiqa o'qituvchilari shakllanadi [3, 1].

Bo'lajak musiqa o'qituvchilarining kreativlik sifatlarini oshirish uchun quyidagi metodik taklifni tadbqiq qilmoqchi edim. Pedagoglar bo'lajak musiqa o'qituvchilarining tayyorlashdagi shart sharoitlarni o'rganish, pedagogika nazariyasi va didaktik tamoyillar asosida retseptura ishlab chiqish, ta'limda talabalarining kreativlik sifatlarini aniqlash va uni oshiruvchi manbalarni qidirish, moslashtirib o'rgatish, talabalarni kreativ sifatlarini pedagogik omillar orqali oliy ta'lim tizimida belgilangan metodlarni taklif qilish va shu taklif qilinadigan usullar talabalarni kreativ sifatlarini oshirishga xizmat qilishlari kerak. Bular pedagog tomonidan ishlab chiqilgan pedagogik shakl va usullar

orqali amalga oshiriladi. Ularga kreativlik sifatlarini oshiruvchi pedagogik omillarni ko'rsatib berishda mavjud didaktik tamoyillar asosida an'anaviy, interaktiv va aktiv zamonaviy metodlardan foydalaniladi.

Talabaga bu metodlarni amalga oshirishda nazariyaga etibor berib mavzuga oid falsafiy, pedagogik va psixologik adabiyotlar, davlat hujjatlari, konsepsiya va dasturlarni o'rganish hamda tahlil qilish, metodlarni solishtirish, saralash, bo'lajak musiqa o'qituvchilarini o'qitish jarayonini va o'quvchilarni kreativlikka yo'llovchi aspektlarni kuzatish, talabalarga metodlarni qo'llab shu metodlar natijasini tahlil qilish va yaxshi ta'sir qilgan sifatli metodlarni olib qolish hamda qo'llashni taklif qilamiz. Suhbat jarayonida quyidagi kabi savollarni berib ularning bilimlarini sharxlab turishimiz maqsadga muvofiq:

1) Kreativlik nima?

2) Innovatsiya nima?

3) Texnologiya nima?

4) Texnika nima?

5) Bularning musiqa ta'limiga aloqasi nimada?

6) Musiqiy komponentlar bu?

7) Pedagogik sezgirlik va ijodiy tafakkur rivojlanishi uchun musiqa o'qituvchisi nima qilish kerak?

8) Mustaqil ta'limni qanday bajarasiz? Qanday bajarilishi kerak? Hemisda yoki qandaydir qoidasini ko'rganmisiz?

9) Musiqa darsi loyihasi tushunchasi?

10) Muammoli ta'lim, munozara, aqliy hujum, keystadiy kabi usullarni bittasini opisaniya qilib bering?

11) Musiqiy elementlarning barchasini bilasizmi?

12) Musiqa kalitlarini 4 tasini sanab yozing.

13) Multimedia vositalari orqali musiqa darsini vizuallashtirish nima beradi? Tushuntiring...

14) Musiqiy eshitish qobiliyati turlari?

15) Didaktika nima uning maqsadlari

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, oliy ta'limda bo'lajak musiqa o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida foydalanilayotgan samarali usullar zamonaviy pedagogik talablar asosida takomillashtirilishi zarur. Darsda faol va interfaol metodlar, amaliy-ijodiy mashg'ulotlar, loyiha faoliyati, integrativ ta'lim va raqamli texnologiyalar bo'lajak musiqa o'qituvchilarining kasbiy-kreativ kompetentligini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Mazkur usullarning tizimli va maqsadli qo'llanilishi oliy ta'lim tizimida raqobatbardosh, ijodkor va zamonaviy musiqa o'qituvchilarini tayyorlashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar

1. Иброхимов О.А. Ўзбек халқ мусика ижоди (методик тавсиялар, I қисм). – Тошкент: «Ибн Сино», 1994.
2. Маркова А.К. Психология профессионализма. – Москва: «Знание», 1996.
3. Mavlonova R., Abdurahimova R. Pedagogik mahorat. – Toshkent: «Fan va texnologiya», 2009.
4. Romanova S., Kuchkarova N. «Pedagogical factors that improve the creative qualities of future music teachers» has been accepted for oral presentation as well as inclusion in the conference proceedings of IV. International firat scientific research congress to be held in Elazığ. – Türkiye during, December 5-6, 2025.

**IMO-ISHORA TILINING KAR BOLALARDA MATNNI TUSHUNISH KO'NIKMALARINI
RIVOJLANTIRISHGA TA'SIRI**

Salamova Feruza Xakimbekovna – *pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori*

salomovaferuza73@gmail.com

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

**ВЛИЯНИЕ ЖЕСТОВОГО ЯЗЫКА НА РАЗВИТИЕ НАВЫКОВ ПОНИМАНИЯ
ТЕКСТА У ГЛУХИХ ДЕТЕЙ**

Саламова Феруза Хакимбековна – *доктор философии по педагогическим наукам*

Нукусский государственный педагогический институт имени Ажинияза

**THE ROLE OF SIGN LANGUAGE IN DEVELOPING
TEXT COMPREHENSION SKILLS AMONG DEAF CHILDREN**

Salamova Feruza Khakimbekovna – *Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences*

Nukus State Pedagogical Institute named after Ajiniyaz

Tayanch so'zlar: kar bolalar, imo-ishora tili, matnni tushunish, surdopedagogika, lingvistik bilingvizm, kognitiv rivojlanish.

Rezyume. Maqolada imo-ishora tilining kar va zaif eshituvchi o'quvchilarda matnni o'qish va tushunish ko'nikmalarini rivojlantirishga ko'rsatadigan ta'siri tahlil qilingan. Tadqiqotning maqsadi bilingval yondashuv asosida imo-ishora nutqining kar bolalar mantiqiy va obrazli tafakkurini shakllantirish hamda matn mazmunini dekodlash (shifrdan chiqarish) tezligini oshirishdagi pedagogik imkoniyatlarini aniqlashdan iborat. Tadqiqot metodologiyasi sifatida korreksion-pedagogik eksperiment va o'quvchilarning matnni tushunish darajasini aniqlovchi qiyosiy monitoring usullari qo'llanilgan. Natijalar shuni ko'rsatdiki, dars jarayonida tizimli ravishda vizual-fazoviy imo-ishora tayanchlaridan foydalanish kar bolalarda mavhum so'z va tushunchalarni grafik matn bilan bog'lash vaqtini o'rtacha 30% ga qisqartiradi hamda matn mohiyatini anglash darajasini sezilarli darajada oshiradi. Xulosa qilib aytganda, imo-ishora tili kar o'quvchilar uchun matnli ma'lumotlarni o'zlashtirishda fundamental «kognitiv ko'pri» vazifasini bajaradi va maxsus ta'lim tizimida bilingval metodikani keng joriy etish zaruratini asoslaydi.

Ключевые слова: глухие дети, жестовый язык, понимание текста, сурдопедагогика, лингвистический билингвизм, когнитивное развитие.

Резюме. В данной статье анализируется влияние жестового языка на развитие навыков чтения и понимания текста у глухих и слабослышащих учащихся. Целью исследования является определение педагогического потенциала жестовой речи на основе билингвального подхода в формировании логического и образного мышления глухих детей, а также в повышении скорости декодирования содержания текста. В качестве методологии исследования использовались коррекционно-педагогический эксперимент и методы сравнительного мониторинга уровня понимания текстов учащимися. Результаты показали, что систематическое использование визуально-пространственных жестовых опор в учебном процессе сокращает время соотнесения абстрактных слов с графическим текстом у глухих детей в среднем на 30% и значительно повышает уровень осмысления текста. В заключении сделан вывод о том, что жестовый язык служит фундаментальным «когнитивным мостом» для усвоения текстовой информации глухими учащимися, что обосновывает необходимость широкого внедрения билингвальной методики в систему специального образования.

Key words: deaf children, sign language, text comprehension, deaf education, linguistic bilingualism, cognitive development.

Summary. This article analyzes the impact of sign language on the development of text reading and comprehension skills in deaf and hard-of-hearing students. The purpose of the study is to identify the pedagogical potential of sign language, based on a bilingual approach, in shaping the logical and figurative thinking of deaf children, as well as in increasing the speed of decoding text content. The research methodology involved a correctional-pedagogical experiment and methods of comparative monitoring to determine the students' level of text comprehension. The results indicated that the systematic use of visual-spatial sign anchors in the educational process reduces the time required for deaf children to connect abstract words with graphic text by an average of 30% and significantly increases the depth of text comprehension. In conclusion, sign language serves as a fundamental "cognitive bridge" for deaf students to assimilate textual information, which justifies the necessity of widely implementing bilingual methods in the special education system.

Kirish. Zamonaviy maxsus pedagogika va inklyuziv ta'lim tizimining eng muhim vazifalaridan biri imkoniyati cheklangan, xususan, eshitishida nuqsoni bo'lgan (kar va zaif eshituvchi) bolalarni jamiyatga moslashtirish va ularga sifatli ta'lim berishdan iboratdir [1]. Eshitish qobiliyati cheklangan bolalarning intellektual va ijtimoiy

rivojlanishida yozma nutqni egallash, ya'ni matnni o'qish va uni tushunish ko'nikmasi markaziy o'rinni egallaydi. Zero, matn dunyo haqidagi axborotlarni olishning asosiy manbayidir.

Ammo amaliyotda kar bolalarning matnli ma'lumotlarni idrok etish va ularning mazmun-mohiyatini to'liq

tushunishida jiddiy qiyinchiliklar kuzatiladi. Sababi ular fonetik va auditorlik muhitdan uzilgan holda, soʻzlarning maʼnosini va gaplarning grammatik qurilishini vizual tarzda qabul qilishga majburlar. Bu jarayonda imo-ishora tili kar bolalarning tabiiy va birinchi tili (ona tili) sifatida namoyon boʻladi. Lekin imo-ishora tili shunchaki qoʻl harakatlari yigʻindisi emas, baki oʻzining boy lugʻat tarkibi, murakkab grammatikasi va vizual-fazoviy tuzilishiga ega boʻlgan mukammal tizimdir [3].

Soʻnggi yillarda oʻtkazilgan psixolingvistik va surdopedagogik tadqiqotlar shuni koʻrsatadiki, bolaning oʻz ona tilida (imo-ishora tilida) fikrlash darajasi qanchalik yuqori boʻlsa, uning ikkinchi tilini (yozma nutqni) qabul qilish va matnni tushunish koʻnikmasi shanchalik tez rivojlanadi [6]. Shuning uchun imo-ishora tilining kar bolalarda matnni tushunish koʻnikmalarini shakllantirishdagi oʻrni va taʼsir mexanizmlarini ilmiy asoslash bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Ilmiy muammo. Kar bolalarda matnni tushunish jarayoni eshituvchi tengdoshlariga nisbatan murakkab kechadi. Buning asosiy sabablaridan biri ogʻzaki nutq va yozma tilni oʻzlashtirishdagi qiyinchiliklar hisoblanadi [5]. Taʼlim jarayonida imo-ishora tilidan samarali foydalanish matn mazmunini anglashga qanday taʼsir koʻrsatishi yetarli darajada oʻrganilmagan. Shu bois, imo-ishora tilining kar bolalarda matnni tushunish koʻnikmalarini rivojlantirishdagi pedagogik imkoniyatlarini aniqlash va ilmiy-metodik asoslash muhim ilmiy muammo hisoblanadi.

Tadqiqot maqsadi. Imo-ishora tilining kar bolalarda matnni tushunish koʻnikmalarini rivojlantirishga taʼsirini oʻrganish hamda ushbu koʻnikmalarni shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqot vazifalari:

- Kar bolalarda matnni tushunish koʻnikmalarining psixologik-pedagogik asoslarini tahlil qilish.
- Imo-ishora tilining taʼlim jarayonidagi oʻrni va imkoniyatlarini oʻrganish.
- Kar oʻquvchilarning matnni tushunish darajasini aniqlash mezonlarini ishlab chiqish.
- Imo-ishora tili asosida matn bilan ishlashga doir amaliy topshiriqlar tizimini ishlab chiqish.

Tadqiqot obyekti. Kar bolalarda matnni tushunish koʻnikmalarini rivojlantirish jarayoni.

Mavzuning oʻrganilish darajasi. Surdopedagogikada uzoq vaqt davomida eshitish qobiliyati cheklangan bolalarda faqat eshitish-nutq idrokini rivojlantirishga qaratilgan tibbiy yondashuv ustunlik qilib keldi. Biroq ushbu paradigma doirasidagi asosiy muammo bolalar tomonidan nutqning yozma shaklini oʻzlashtirishdagi toʻsiqni bartaraf etish boʻlib qolmoqda [5]. Kar bola uchun kitob oʻqish ikkinchi til tizimini oʻrganish jarayoni hisoblanadi, uning sintaksisi va morfologiyasi imo-ishora nutqi tuzilishidan tubdan farq qiladi [3].

Asosiy lingvistik qarama-qarshilik erta yoshda birlamchi til bazasining yetishmasligidadir. Tabiiy va tushunarli muloqot tizimi (bunday tizim vazifasini imo-ishora tili bajaradi) mavjud boʻlmasa, bolada bosma matnlarni dekodlash (shifrdan chiqarish) va chuqur tushunish uchun zarur boʻlgan tushunchalar apparati hamda


kognitiv sxemalarning shakllanishi qonuniy ravishda kechikadi [2, 8].

Tadqiqot metodlariga esa taʼlim jarayonida lingvistik koʻnikmalarning ijobiy tillararo transferi (koʻchishi) haqidagi gipotezani tekshirish uchun kvazieksperimental dizayn doirasida amalga oshirilgan kompleks qiyosiy metod qoʻllanildi. Tadqiqot davomida qiyosiy tahlil uchun kichik maktab yoshidagi (8–10 yosh), nomverbal intellekt darajasi oʻxshash va ijtimoiy-iqtisodiy maqomi bir xil boʻlgan kar bolalarning ikki guruhga ajratilgan holda oʻrganildi:

Eksperimental guruh: Tugʻilganidan boshlab imo-ishora tili muloqotning tabiiy birinchi tili boʻlgan (kar ota-onalar oilasidagi) kar bolalar kiritildi.

«MAKTAB»

«SINF»



1-rasm. Eksperimental guruh (Imo-ishora orqali toʻgʻridan-toʻgʻri semantik tarjima).

Nazorat guruhi: Eshituvchi ota-onalar oilasida faqat eshitish-nutq (oral) metodikasi boʻyicha taʼlim olayotgan, erta bolalik davrida imo-ishora tili qoʻllanmagan bolalar tashkil etdi.

- qoʻllanmagan bolalar tashkil etdi.

«MAKTAB»




«SINF»



2-rasm. Nazorat guruhi (Harfma-harf tahlil).

Ikkala guruh uchun lingvistik ragʻbatlantiruvchi vosita sifatida oʻzaro taʼsir va ruhiy holat feʼllaridan (masalan, "MAKTAB", "SINF") foydalanildi. Mazkur guruhlarda vizual materialni qabul qilish xususiyatlari quyidagicha modellashtirildi:

• **Ekspperimental guruh yondashuvi:** «MAKTAB» va «SINF» soʻzlari koʻrsatilganda, grafik shakl toʻgʻridan-toʻgʻri fazoviy semantik ishoraga oʻgiriladi (1-rasm).



1-rasm. Ekspperimental guruhda soʻzlarni idrok etish jarayoni.

• **Nazorat guruh yondashuvi:** Birlamchi vizual-fazoviy tayanchni his qilmaslik sababli soʻzlar harfma-harf tahlil qilish obyektiga aylanadi (2-rasm).

«MAKTAB» daktil tahlili	«SINF» daktil tahlili
(M) + (A) + (K) + (T) + (A) + (B)	(S) + (I) + (N) + (F)

2-rasm. Nazorat guruhida harfma-harf tahlil (daktil-lash) jarayoni.

Matnni tushunish koʻnikmalarini kompleks baholash standartlashtirilgan metodikalar yordamida oʻtkazildi. Bunga:

- Ichda oʻqish tezligi va sifati;
- Matnning aniq mazmuni va yashirin kontekstini (inferensiya) aniqlash boʻyicha savollarga javob berish;
- Tushirib qoldirilgan soʻzlarni toʻldirish metodikasi (klouz-test) kiritildi.

Klouz-test topshiriqlari namunasi:

1. “Bahorda daraxtlarda yangi _____ paydo boʻladi” (Mos javob daktilda:

B + A + R + G



yoki

2. “Qushlar qaysi faslda _____ uchib keladi” (Mos javob daktilda:

B + A + H + O + R



Ushbu metodika oʻquvchilarning matn mazmunini anglash, mantiqiy bogʻlanishlarni tushunish va lugʻat boyligidan foydalanish darajasini aniqlash imkonini berdi.

Tadqiqot natijalari-qiyosiy tahlil jarayonida guruhlar oʻrtasidagi diagnostik koʻrsatkichlarda statistik jihatdan muhim farqlar qayd etildi.

Ekspperimental guruhdagi tabiiy bilingv boʻlgan va imo-ishora tilini kognitiv darajada yuqori egallagan bolalar, nazorat guruhi vakillariga qaraganda, oʻqilgan matn tuzilishini sifat jihatidan ancha yuqori darajada tushunishini namoyish etdilar [4]. Kar bolalar mantiqiy xulosa chiqarish (inferensiya) topshiriqlarini muvaffaqiyatliroq bajardilar, matn syujetidagi sabab-oqibat aloqalarini aniqroq belgilab berdilar va ularda metamatnli tushunish darajasi yuqoriligi kuzatildi.

Baza hisoblangan imo-ishora tilini erta oʻzlashtirish mavhum bosma belgilarni ongda shakllangan psixik konseptlar bilan solishtirish va mental xaritalash jarayonini osonlashtirgan mustahkam kognitiv poydevor boʻlib xizmat qildi. Aksincha, nazorat guruhida vizual-fazoviy tayanchni mavjud emasligi matnni mexanik tarzda harfma-harf tahlil qilinishiga olib keldi, bu esa matn mazmunini umumiy tushunish darajasini sezilarli darajada pasaytirdi.

Muhokama-olingan empirik natijalar zamonaviy til ontogenezi nazariyasiga va sensor deprivatsiya (sezgi cheklanishi) sharoitida tillararo transfer konsepsiyasiga salmoqli xulosalar qoʻshadi:

✓ **Eskirgan qarashlarning rad etilishi:** Tadqiqot imo-ishora nutqidan foydalanish ogʻzaki/yozma til rivojlanishini sekinlashtiradi degan eskirgan tezisni mazmunan rad etadi va J. Kamminsning tillararo bogʻliqlik gipotezasi (*Linguistic Interdependence Hypothesis*) "ishora — matn" modalligiga nisbatan ham toʻgʻri ekanligini tasdiqlaydi [6].

✓ **Kognitiv koʻnikmalar transformatsiyasi:** Vizual-fazoviy modallik orqali rivojlantirilgan asosiy kognitiv koʻnikmalar (axborotni tizimlashtirish, diqqatni jamlash, syujetni prognoz qilish) tekis bosma matnni oʻqishda lingvistik kompetensiyaga muvaffaqiyatli transformatsiya boʻlishi isbotlandi [7].

✓ **Praktik ahamiyati:** Taqdim etilgan maʼlumotlar taʼlim standartlarini isloh qilish uchun ishonchli ilmiy-metodik asos boʻladi hamda zamonaviy surdopedagogika amaliyotiga bikultural va bilingval taʼlim modellarini keng joriy etish zaruriyatini asoslab beradi.

Xulosa. Nazariy tahlil va empirik maʼlumotlar asosida shunday xulosaga kelish mumkinki, imo-ishora tili kar

bolaning ko'rgazmali-obrazli tafakkuri bilan yozma nutqning abstrakt tuzilishi o'rtasida samarali ko'prik (mediator) vazifasini bajaradi. Kar bolalarning matnni tushunish darajasi bevosita ularning imo-ishora tilidagi lisoniy kompetensiyasi chuqurligiga bog'liq.

Tavsiyalar: Ta'lim jarayonini yanada takomillashtirish maqsadida maxsus (korreksion) maktablar amaliyotiga maxsus vizual tayanch vositalar, bilingval raqamli materiallar va ikki tilli o'quv qo'llanmalarni keng joriy etish tavsiya etiladi.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktyabrdagi "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4860-sonli Qarori.
2. Выготский Л.С. Основы дефектологии: учебник для вузов. - Санкт-Петербург: «Лань», 2024.
3. Зайцева Г.Л. Жестовая речь. Дактилология: учебник для студентов высших учебных заведений. - Москва: «Владос», 2019.
4. Комарова А.А. Билингвистическое обучение глухих: история и современность. // Альманах Института коррекционной педагогики. 2020. № 40. - С. 15-32.
5. Соловьева Т.А. Особенности понимания текста текстов разных стилей учащимися с нарушениями слуха. / Т.А.Соловьева, И.Л.Соловьева. // Дефектология. 2021. № 3. - С. 44-53.
6. Cummins J. Bilinguality and Literacy Development in Deaf Children. // Journal of Deaf Studies and Deaf Education. 2021. Vol. 26, no. 3. - P. 315-326.
7. Hoffmeister R.J. The relationship between American Sign Language (ASL) and reading comprehension in deaf children. / R.J.Hoffmeister, Caldwell-Harris C.L. // Frontiers in Psychology. 2022. Vol. 13. Article 914853.
8. Mayberry R.I. Reading development in deaf children: The critical role of early language acquisition. // Developmental Science. 2023. Vol. 26, no. 1. - P. 112-125.

**ÁBDIQÁDIR BEKIMBET ULÍNÍN MÁDENIY-AGARTIWSHÍLÍQ
KÓZQARASLARI**

Seytmuratov Qalbay – *pedagogika ilimleriniń kandidati*

qalbay1954@gmail.com

Ájiniyaz atındaǵı Nókis mámleketlik pedagogikalıq instituti

**КУЛЬТУРНЫЕ И ПРОСВЕЩЕНЧЕСКИЕ ВЗГЛЯДЫ
АБДИКАДИРА БЕКИМБЕТ УГЛЫ**

Сейтмуратов Калбай – *кандидат педагогических наук*

Нукусский государственный педагогический институт имени Ажинияза

**THE CULTURAL AND EDUCATIONAL VIEWS OF ABDIKADIR
BEKIMBET UGLI**

Seytmuratov Qalbay – *Candidate of Pedagogical Sciences*

Nukus State Pedagogical Institute named after Ajiniyaz

Tayanch so'zlar: madaniyat, maorif, ma'rifat, maktab, madrasa, adabiyot, jadidchilik, darslik.

Rezyume. Maqolada qoraqalpoq xalqining jafokash marifatparvar farzandi, istedodli shoir Abduqodir Bekimbet uglining madaniy-marifiy qarashlari haqida suz boradi.

Ключевые слова: культура, образование, просвещение, школа, медресе, литература, джадидизм, учебник.

Резюме. В статье рассматриваются культурные и образовательные взгляды талантливого поэта Абдукадира Бекимбета оглу, страдающего и просвещенного сына каракалпакского народа.

Key words: culture, education, enlightenment, school, madrasah, literature, Jadidism, textbook.

Summary. The state is considering the cultural and educational views of the talented poet Abdukadir Bekimbet oglu, a martyr and enlightened son of the Karakalpak people.

Kirisiw. Belgili shayır, qaraqalpaq xalqınıń talantlı perzentleriniń biri bolǵan Ábdıqádir Bekimbet ulı óz dóretiwshiligi dawamında kóplegen mádeniy-agartıwshılıq pikirlerdi zamannıń talabınan kelip shıǵıp jazdı hám keleshek áwladqa miyras etip qaldırdı. Ol óz qosıqlarında xalıqtıń awır turmıs sharayatın jırlay otırıp, turmıstaǵı ústem klass wákilleri, ayırım din ulamaları tárepinen islenip atırǵan nahaqlıqlardı áshkaralap, insanlardı insapqa, ádalatlı bolıwǵa shaqırıp keldi. Sonıń menen birge tálim-tárbiyaǵa, ásirese jaslar tárbiyasına úlken dıqqat qaratıp, keleshek áwladtıń bilimli-ilimli, kámil insan bolıp jetilisiwin násiyatladı.

Ábdıqádir Bekimbet ulı 1860-jılı Qaraqalpaqstanńń házirgi Shımbay qalasına jaqın jerdegi Taǵıap awılında (Mánjiwli awılı dep te ataydı) Ayımbet iyshan elatında jarlı shańaraqta dúnyaǵa kelgen. Shayırdıń ákesi Bekimbet joqshılıq, kámbaǵallıqta jasaǵan. Ábdıqádirdi kórgen, onı jaqsı biletuǵın adamlardıń aytıwına qaraǵanda Qaraqalpaqstanda Keńes húkimeti ornaǵanǵa shekem ol ákesi sıyaqlı kemtarlıq, joqshılıq turmıstı hám awır qısıwmetlerdi basınan keshiredi.

Ábdıqádir turmıs qıyınshılıqlarına qaramastan awılındaǵı Ayımbet iyshannıń meshiti janındaǵı mektepte tálim aladı hám sawatın ashadı. Ol jerde diniy bilim alıw menen birge sol jerde sabaqlıq retinde paydalanıp kelinggen belgili shıǵıs shayır-oyshıllarınıń shıǵarmaları menen tanısıp, olardıń shıǵarmalarındaǵı keń dúnyaqarası, ádebiy sheberlikleri, waqıya hám hádiyselerdi sheberlik penen súwretley alıw qábiletleri menen tanısa kele ózinde de qosıq jazıwǵa degen iqlas oyana baslaydı. Jergilikli shayırlardan Ótesh, Jiyen jıraw, Berdaq, Kúnxoja, Ájiniyaz hám basqa da shayırlardıń shıǵarmaların, dúnyaǵa bolǵan kózqarasların qunt penen úyrenedi,

Turmıs táshwishleri menen ol dáslep Shabbazda (házirgi Beruniy qalası), Petro-Aleksandrovskte (házirgi Tórtkúl) hám Xorezmde boladı. Keyin ala Sırdárya boylarına barıp,

qazaq xalqı arasında bolıp, talap isleydi. Qaraqalpaqstanda sovet hákimiyatı ornamastan burınraq shayır Taxtakópirdegi «Sarıtay qumı» degen jerde otratuǵın bjasın panalap, sol jerge kóship baradı. Biraq usı jılları shayırdıń hayalı qaytıw bolıp, balaları menen óziniń tuwılıp ósken awılına qayta kóship keliwge májbúr boladı. Sol dáwirdegi qaraqalpaq shayır-oyshıllarınıń dóretiwshiligin úyrene otırıp, ol basqa jerlerdegi jasawshı xalıqlardıń turmıs sharayatı, kún kórisi menen tanısadı. Petro-Aleksandrovskte bolǵan waqıtları ruslar menen baylanıs jasaydı. Nátiyjede onıń dúnya qarası bir qansha keńeyip, jámiyettegi awhalǵa ózinshe baha beriw dárejesine erisedi hám ózide azı-kem qosıqlar toqıy baslaydı [1:406].

Tiykargı bólim. Ábdıqádir Bekimbet ulınıń jas waqıtlarınan baslap-aq ádebiyatqa degen qızıǵıwshılıǵınıń baslanǵan kóremiz. Ózinen burınǵı Kúnxoja, Ájiniyaz, Berdaq, Óteshtiń shıǵarmaları menen jaqınnan tanıw bolǵan. Mısalı, Ábdıqádirdiń «Ol nege dárkar», «Jaqsıdı», «Bolar» qosıqları Berdaqtıń «Xalıq ushın», «Jaqsıraq» qosıqları menen pútınley únles keledi.

Ábdıqádir eki zamandı kórgen shayır. Jarlı xalıqqa pana bolǵanday bolǵan jańa húkimettiń, sovet húkimetiniń ornawın úlken úmitler menen kútip aladı. Bunı biz onıń 1920-jılı jazǵan «Kórdim» qosıǵında bul waqıyanıń ayqın sáwlelengenligin kóremiz. Húkimettiń xalıqtiki ekenligin, jaslardıń oqıp bilim alıwın jaqlaydı.

Metodologiya. Shayırdıń dóretiwshiligi bir qatar ádebiyatshı alımlarımız tárepinen ádebiy miyras sıpatında úyrenilgen (A.Paxratdinov, K.Allambergenov, M.Bekbergenova. XX ásir qaraqalpaq ádebiyatı tariyxı. Nókis, «Qaraqalpaqstan», 2011). Onıń shıǵarmalarındaǵı tálim-tárbiyalıq pikirler pedagogika ilimleriniń doktorı, professor Ó.Álewov tárepinen de úyrenilgen [1:400]. Degen menen biz onıń dóretiwshiligin sol dáwirdegi nápesinen kelip shıǵıp, mádeniy-agartıwshılıq kózqarastan kórip shıǵıwdı maqul kórdik.

Biz onıń qosıqlar toplamın (Ábdıqádır Bekimbetov. Tańlamalı qosıqları. Nókis, «Qaraqalpaqstan» baspası, 1966) oqıp kórgenimizde shıǵarmalarınń tiykarǵı bólegin jaslar kamalatı, olarǵa berilip atırǵan tálim-tárbiya máseleleri, kámil insandı tárbiyalaw, ustazlıqtıń jámiyettegi ornı, onıń qıyınshılıǵı hám minnetleri haqqında ekenligin kóremiz. Ol óziniń «Ustaz» [2:55] atlı qosıǵında óziniń jas ustazǵa shákirt túskenligin, ol dáslebinde tartınsa da keyin qushaq ashıp kútip alǵanlıǵın jazadı:

Yash uǵlandı ustaz desem,
Dadı, páriyad bilan qashtı,
Taza álip úrgát desem,
Qullıq etip qushaq ashtı.
Soday aq:

Qashma-qashma bolıp nadan,
Ustaz aytsa úrgán mudam,
Nadanlıqta qalǵan jaman,

Kim úrgátse bolar ustaz, - dep jaslardı nadanlıqta qalıp ketpey ilim-bilim úyreniwge, ustazdıń aytqanın islewge shaqıradı. Usınıń menen xalqımız arasındaǵı «Ustaz-atańnan ullı» degen túsinikti ele de rawajlandıradı.

«Jigirma besh» qosıǵında bolsa bul jastıń áhmiyetine toqtalıp, onı «Atajaq tańnıń sáhari, Jas ómiriniń báhari» dep táriyipleydi. Jaslardı onıń qádirin biliwge shaqırıp, onı aylanıp kelmeytuǵınlıǵın bılay súwretleydi:

Jigirma besh belli dáwrán,
Ótip keter sizge árman,
Qayta kelmes etseń fárman,
Bir ótken soń jigirma besh.

Sonıń menen birge bul qosıǵında: «Qorǵap qalmaq yalǵız basın, Elin qorır jigirma besh» dep jazıp, jaslardı azamatlıq wazıypasın orınlawǵa, Watandı qorǵawdıń hár bir jas jigit ushın minnet ekenligin esletip, oǵan hámıyshe tayar turıwǵa shaqıradı.

Jigirma besh qaytpas tastan,
Siltesen keskir almastan,
Xızmet qıl ornına bastan,

El qádirin bil jigirma besh, - dep jaslardı Watan súyiwshilikke tárbiyalap, olardı xalıq xızmeti ushın barmılla tayar bolıwǵa, elge xızmet etiwge shaqıradı.

Shayır qazıwda júrip jazǵan «Qazıwda» atlı qosıǵında Seypulla ata mısasında: «Az emesdur nasıbayıń, Kóknardı qoy, Seypulla ata» dep jazıp, jaslardı hár qıylı zıyanlı ádetlerden saqlanıwǵa shaqırıp, bunıń durıs narse emes ekenligine, Islam tálimatı kózqarasınan da bunday ádet jaqsı emes ekenligine dıqqat awdaradı:

Kóknarshınıń jayı dozaq,
Kóknardı qoy, Seypulla ata.
Shayır óziniń «Bolar» atlı qosıǵında bolsa:

Alımlıq qashadı kitap ashpa,
Shıqqan kún batadı shuǵla shashpa,
Kókke ushar qıyınshılıqtan qashpa,

Bilimliler qatarınan zor bolar, - dep jazıp, jaslarımızǵa kitap ashpa, oqımasa sawatlı alım bola almaslıǵın, bilimli insanlardıń óz teńleslerinen aldında bolatuǵınlıǵın hám baxıtqa erisetuǵınlıǵın uqtıradı. «Balaları isker, jangán shoq bolsa, Xalıq súygen baxıtlı azamat bolar», dep xalıqtı, jaslardı ilim-bilim iyelewge, baxıtlı insanlardan bolıp ómir súriwge shaqıradı. Soday-aq:

Dana bolsań nadan menen talaspa,
Ábdıqádır aqmaqlardı alasla,
Bilgir, ádil jigit bolsań jol basla,
Bilimliniń eter isi sol bolar, - dep bilimli adamlardıń

dana, adamgershilikli, ozıq oyılı bolatuǵınlıǵın kórsetip, olardı jol baslawshı bolıwǵa ılayıq insanlar bola alatuǵınlıǵın aytıp ótedi.

Shayır sonıń menen birge ayırım ustazlardıń óz wazıypasına nemquraylıq penen qarawların qatań sıǵa aladı. Ol óziniń «Ustazım» atlı qosıǵında: «Bilimli adam shırrıyǵa bolama» dep, hár bir ustazdıń ózine tán elementar pedagogikalıq takt hám pedagogikalıq etikaǵa iye bolıwı zárúrligi, sonıń menen birge hár bir pedagogtıń olarǵa ámel etiwı shárt ekenligin eskertedi. Ol usı qosıǵında:

Sizden úyrenbey aq hesh bir hárip,
Xalıq aldında ustaz deymen men ǵarip,
Shırrıyıp adam demeysen sen «Shárrik»,
Ulamanıń kárin etpey, ustazım, - dep, hár bir pedagogta

basqalar menen qarım-qatnasta kommunikativlik qábiletiniń zárúr ekenligine toqtaladı.

Ábdıqádır Ayymbet iyshannıń awılında tuwılıp óskenlikten onıń áwladları menen awıllas, ayırımları menen qońsı bolıp jasadı. Degen menen ayırım bolıs hám aqsqaqallardıń, din ulamalarınń orınsız islerin kórip, olardı áshkaralap, olarǵa arnap kritikalıq baǵdarda qosıqlar dóretdi. «Qazıwda», «Qızketken» atlı qosıqlarında qazıwǵa beldar alıwdaǵı ádalatsızlıq, paraxorlıq, miynetkeshlerge ápiwayı sharayatlardıń jaratılmawı, «Qattıaǵardan jıqqın ketti» atlı qosıǵında bolsa bolıs hám aqsqaqallardıń jıqqınnıń aldın alıw hám bógew islerindegi arqayınlıqqa beriliwı, tiyisli sharalar kórmegenligi, hámme jıqqındı baylawǵa atlanıp, úlken qıyınshılıqtı baslarınan keshirip atırǵanda baylar hám hámeldarlardıń ǵoddaslap awılda júrgenligin, olarǵa hesh qanday járdem kórsetpegenligi ayawsız áshkaralanadı. Nátiyjede qanshadan-qansha adamlardıń qara úyleriniń suwǵa ıǵıp ketkenligi, eginleriniń nabit bolǵanlıǵı, sol sebepli xalıqtıń asharsılıqqa gırıptar bolǵanlıǵı haqqındaǵı ashshı haqıyqatlıq ashıp beriledi. Shayır bul qosıǵında:

Eldi suw alıp jatqanda,
Qara úy suwda qalıqqanda,
Aralǵa qarap aqqanda,
Bolıs elde jatqan eken.

Baylawǵa kórmey háreket,
Qolında bar qárejet,
Bolıs, aqsqaq qara bet,
Biymanı sóz aytqan eken, - dep jazadı.

«Iyshanım» atlı qosıǵında bolsa:
Riyshat berdiń hár páridke,

Axayıt bilmegen iytké, - dep, jazadı. (Riyshat-diniy bilimge iye degen gúwaliq, párit-sawatsız adam, axayıt-tıym salınbaǵan mánisinde). Soday aq, «Jaqsıdı» qosıǵında bolsa:

Bul zamanda iyshan, háziret, bay hesap,
Qáte emes, bári desem biyinsap,
Yamasa:

Qayırı joq, tekte hasa uslaǵan,
Bunday pirden qara jılan jaqsıdı, - dep kórsetedi.

Ábdıqádırdıń miynetkesh xalıqtıń jırshısı bolǵanın onıń «Ol nege dárkar», «Jaqsıdı», «Bolar», «Kerek» hám taǵı basqa qosıqlarında kórsetedi. Ol shıǵarmalarında da xalıqtı hadal miynetke shaqırıp, xalıq ushın xızmet etiw, ádil emes basshı menen eldegi buzaqılardan qashıp, olarǵa qarsı gúres alıp barıp, adamgershilikke shaqırıp hám t.b. progressiv ideyalardı alǵa súredi.

Ábdıqádir shayır zamanınıń ziyalı insanı sıpatında Patsha Rossıyasınıń eziwshilik siyasatı xalıqtıń kún kórisin jáne de awırlastırıp atırǵanlıǵın tereń túsinedi. Ekinshi jer júzilik urıs sebepli Rossıya patshası Nikolay II niń 1916-jıl 25-ıyundaǵı «Front artında jumıs islewge (márdikarlıqqa) Túrkıstan, Sibir hám Kavkazdıń milleti rus bolmaǵan xalıqları (inonarodecler) arasınan jası 19 dan 31 jas aralıǵındaǵı er adamlardan front artında qorǵanı obyektlernı qurıw ushın jumısshı (márdikar) alıw haqqında»ǵı №1526 sanlı pármanında [3:266] Túrkıstannan 250 mıń adamnıń alınıwı kózde tutıldı. Bul ádalatsızlıq, sonday-aq shaqırılıw mapazındaǵı teńsizlik, paraxorlıq h.t.b. illetler xalıq arasında úlken narazılıqlardıń payda bolıwına alıp keldi. Usı dáwirdegi jádidshilik ideyalarınan ilhamlanǵan shayır óziniń «Megzer» atlı qosıǵında:

Áne kóriń, alınbaqsı márdikar,

Bizge qayırı barma, ol kimge dárkar, – dep jazǵan edi.

Ábdıqádir Bekimbet ulınıń 1966-jılı basılıp shıqqan «Tańlamalı qosıqları» toplamına alǵı sóz jazǵan N.Japaqov hám A.Kárimovlar bılay dep kórsetedi: «Ábdıqádir Bekimbet ulı menen shayır, dramaturg hám mámleketlik

isker Qasım Áwezov arasında kúshli baylanıs bolǵan. Qasım Áwezov Tórtkúlde islep júrgen jıllarında Ábdıqádirdi Tórtkúlge kel dep ótinish etken. Onı rásmiy shaqırǵan. Biraq shayır Tórtkúlge bara almay-aq, 1930-jılı qaytı boladı».

Juwmaq hám usınısılar. Shayırdıń bul toplamın baspaǵa tayarlawshılar onıń birde-bir qosıǵınıń aldın jarıq kórmegenligin, hámmesi xalıq awzınan jazıp alınǵanlıǵın bildiredi. Demek onıń qosıqları xalıqtıń diydisinen shıǵıp, kewlindegi pikirlerdi ózinde jámlegenlikten awızdan-awızǵa ótip, yad alınǵan. Xalıq arasınan ele de onıń aldın járiyalanbaǵan dóretpeleri tabıladı dep úmit etemiz.

Bul shayırdıń waqtında óz zamanına say dóretiwshilik penen shuǵıllanǵanlıǵın, xalıqtıń arız-ármanların, jırın jırlaǵanlıǵın, xalıqtıń kewlinen shıǵarlıqtay shıǵarmalardı dóretkenligin tastıyıqlaydı. Ásirese onıń jaslar tálim-tárbiyası haqqındaǵı oyları, ustazlar ushın pedagogikalıq sheberliktiń áhmiyeti haqqındaǵı kózqarasları házirgi kúnde de úlken áhmetke iye. Onıń shıǵarmalarındaǵı progressiv pikirlerdi ele de tereńirek úyreniwimiz hám olardan házirgi úzliksiz bilimlendiriw sistemasında paydalanıwımız zárúr.

Ádebiyatlar

1. Álewov Ó. Qaraqalpaqstanda tálim-tárbiyalıq oylardıń qalıplesiwi hám rawajlanıwı. –Nókis: «Bilim», 1993.
2. Ábdıqádir Bekimbet ulı. Tańlamalı qosıqları. –Nókis: «Qaraqalpaqstan», 1966.
3. Xoshimov K. va b. Pedagogika tarixi. -Toshkent: «O‘qituvchi», 1996.

**APPLYING COMMUNICATIVE LANGUAGE TEACHING (CLT)
TO ENHANCE EARLY ENGLISH SPEAKING IN KINDERGARTEN**

Tolibekova Feruza Minajatdinovna – student
Dauletmuratova Xurziya Elubaevna – senior teacher
dauletmuratovakhurziya@gmail.com
Nukus State Pedagogical Institute named after Ajiniyaz

**ИСПОЛЬЗОВАНИЕ КОММУНИКАТИВНОГО ОБУЧЕНИЯ ЯЗЫКУ (CLT)
В ОБУЧЕНИИ АНГЛИЙСКОМУ ЯЗЫКУ МЛАДШИХ УЧАЩИХСЯ
В ДОШКОЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЯХ**

Толыбекова Феруза Минажатдиновна – студент
Даулетмуратова Хурзия Елубаевна – старший преподаватель
Нукусский государственный педагогический институт имени Ажинияза

**MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARIDA YOSH O'QUVCHILARGA
INGLIZ TILINI O'QITISHDA KOMMUNIKATIV TIL O'QITISHDAN (CLT) FOYDALANISH**

Tolibekova Feruza Minajatdinovna – talaba
Dauletmuratova Xurziya Elubayevna – katta o'qituvchi
Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

Tayanch so'zlar: kommunikativ til o'qitish (CLT), bog'cha bolalari, so'z boyligi, sinfdagi muloqot, kommunikativ kompetensiya, Dell Hymes, Michael Canale, Merrill Swain, Savitri Savignon, harakatga asoslangan tadqiqot, o'yinlar, rol o'ynash, qo'shiqlar.

Rezyume. Maqolada kommunikativ til o'qitish (CLT) metodining bog'cha yoshidagi bolalarga ingliz tilini o'rgatishdagi samaradorligi o'rganilgan. Tadqiqot davomida o'yinlar, kartochkalar, rol o'ynash va qo'shiqlar kabi interaktiv faoliyatlar bolalarning so'z boyligini va darsdagi ishtirokini oshirganligi aniqlangan. Tadqiqot 4-6 yoshdagi bolalar bilan sinf asosida olib borilgan. Natijalar CLT bolalarning faolligini va motivatsiyasini oshirishini ko'rsatdi, ammo ularning nutqi asosan oddiy so'zlar va qisqa iboralardan iborat bo'ldi. Umuman olganda, CLT erta til o'rganishda samarali yondashuv hisoblanadi.

Ключевые слова: коммуникативный метод обучения (CLT), дети дошкольного возраста, усвоение словарного запаса, взаимодействие в классе, коммуникативная компетенция, Dell Hymes, Michael Canale, Merrill Swain, Savitri Savignon, исследование действия, игры, ролевые игры, песни.

Резюме. В статье рассматривает применение коммуникативного метода обучения (CLT) при обучении английскому языку детей дошкольного возраста. Изучается влияние интерактивных заданий, таких как игры, карточки, ролевые ситуации и песни, на развитие словарного запаса и участие детей в уроках. Исследование проводилось в формате классного action research с детьми 4-6 лет. Результаты показали, что CLT повышает мотивацию и активность учащихся, однако их речь ограничивается отдельными словами и короткими фразами. В целом метод CLT является эффективным для раннего изучения языка.

Key words: Communicative Language Teaching (CLT), kindergarten learners, vocabulary acquisition, classroom interaction, communicative competence, Dell Hymes, Michael Canale, Merrill Swain, Savitri Savignon, action research, games, role-play, songs, participation.

Kommunikativ kompetentlik nazariyasining poydevori D.Hymesning «kommunikativ kompetentlik» tushunchasiga oid ishlarida mustahkamlangan bo'lib, u bu kompetentlikni tilni faqat tuzilmaviy jihatdan bilishdan farqli ravishda, ijtimoiy kontekstga mos ravishda qo'llay olish qobiliyati sifatida ta'riflagan [5]. Keyinchalik Canale va Swain ushbu tushunchani to'rtta komponentga – grammatik, ijtimoiyolingvistik, diskursiv va strategik kompetentliklarga – ajratib tahlil qilishdi. Bu model hozirgi kunga qadar kommunikativ kompetentlikni o'rganishdagi eng keng tarqalgan metodologik asos hisoblanadi [6]. O'zbek pedagogikasida esa B.Hasanov kommunikativ kompetentlikni o'quvchining muloqot vaziyatlariga muvofiq harakat qila olishi va o'z nutqini ongli boshqara olish ko'nikmasi deb belgilaydi [1]. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun bu kompetentliklarni rivojlantirish alohida metodologik yondashuvni talab etadi, chunki bu yoshdagi bolalarning asosiy idrok qilish mexanizmi o'yin faoliyati orqali amalga oshiriladi.

Geymifikatsiya nazariyasi K. Werbachning ishlarida tizimli ko'rinish kasb etgan bo'lib, u o'yin elementlarini uch darajaga ajratadi: dinamikalar (narrativ, taraqqiyot, munosabatlar), mexanikalar (vazifalar, raqobat, fikr-mulohaza), va komponentlar (ballar, nishonlar, reytinglar) [4]. Ushbu tuzilma ta'lim jarayoniga tatbiq etilganda, o'quvchilarning faollikni o'z-o'zidan qo'llab-quvvatlashi kuchayadi. Rus pedagogi A.A.Verbitskiy o'quv o'yinlarini "kontekstli ta'lim" doirasida muhim metodologik vosita sifatida baholagan va ularning motivatsion ta'sirini nazariy asoslagan [3]. Uning ta'kidlashicha, o'yin shaklida tashkil etilgan o'quv vaziyatlari o'quvchida real hayot muloqotini modellashtirib, kommunikativ tajriba orttirishning eng samarali yo'lidir.

Geymifikatsiyaning boshlang'ich ta'limdagi o'rnini tadqiq etgan N.Deterding va boshqalar o'yin elementlari

motivatsion va kognitiv ta'sir orqali ta'lim natijalarini yaxshilashini ko'rsatgan [7]. Ayniqsa, vaziyatli rolli o'yinlar va jamoaviy vazifalar bolaning ijtimoiy nutqini faollashtiradi, chunki bunday o'yinlarda fikr almashish, muzokaralar olib borish, kelishuv qidirish zaruriyati tug'iladi. Bu esa kommunikativ kompetentlikning strategik va diskursiv komponentlarini bevosita mashq qildiradi. O'zbek pedagog-metodisti G'.Qodirovning ta'kidlashicha, o'quvchilarning muloqot faoliyatini rag'batlantirishda o'yin vositalaridan foydalanish milliy pedagogik an'analarda ham chuqur ildiz otgan bo'lib, xalq o'yinlari boshlang'ich ta'limning tabiiy didaktik resursi bo'lib xizmat qilgan [8]. Bu nuqtai nazar geymifikatsiyaning mahalliy ta'lim kontekstida tarixiy va madaniy legitimligini ham tasdiqlaydi.

Geymifikatsiyaning kommunikativ kompetentlikka ta'sirini o'rganishda til o'rganishdagi motivatsiya nazariyalari ham muhim ahamiyat kasb etadi. R.Ryan va E.Desining o'z-o'zini belgilash nazariyasi (Self-Determination Theory, 1985) ichki motivatsiyaning uchta asosiy omilini – kompetentlik, avtonom boshqaruv va aloqa (relatedness) hissini – ajratib ko'rsatadi [9]. Geymifikatsiya o'yin elementlari orqali aynan ushbu uchala omilni qo'llab-quvvatlashga qodir: vazifalarning bosqichliligi o'quvchida kompetentlik hissini, mustaqil tanlov imkoniyati avtonom boshqaruvni, jamoaviy o'yinlar esa aloqa hissini shakllantiradi. Bu nazariy asoslar geymifikatsiyaning kommunikativ ta'lim jarayonidagi ta'sirini tushuntirishda ishonchli asos beradi. Bundan tashqari, Lev Vigotskiyning "yaqin rivojlanish zonasi" tushunchasi geymifikatsiya doirasida ham o'z ahamiyatini saqlab qoladi: o'yin vaziyatlarida bola o'zi mustaqil bajara olmaydigan kommunikativ vazifalarni tengdoshlar yoki kattalar yordamida muvaffaqiyatli hal etadi, bu esa nutqiy rivojlanishni tezlashtiradi [10].

Natijalar va muhokama. Adabiyotlar tahlilining natijalariga ko'ra, geymifikatsiyaning kommunikativ kompetentlikni shakllantirishdagi mazmuniy asoslari bir necha o'zaro bog'liq yo'nalishda ko'rib chiqilishi lozim. Birinchi yo'nalish – motivatsion aspekt. Boshlang'ich sinf o'quvchilari hali irodaviy xususiyatlarini to'liq rivojlantirmagan bo'lib, ularning o'quv faoliyatdagi ishtiroki ko'proq bevosita qiziqish va hissiy jalb etilishga bog'liq [3]. Geymifikatsiya elementlari – vazifani muvaffaqiyatli bajarish uchun berilgan rag'bat, taraqqiyot ko'rsatkichlari, jamoaviy raqobat – o'quvchining faollikni o'zi ichidan boshqarish qobiliyatini mustahkamlaydi. Natijada o'quvchi kommunikativ vazifaga nafaqat baholash uchun, balki shaxsiy qiziqish orqali murojaat etadi. Bu esa nutqiy faollikning sifat jihatdan yangi darajaga ko'tarilishi uchun psixologik zamin hozirlaydi. Ushbu yo'nalish bo'yicha adabiyotlar geymifikatsiyaning motivatsion ta'siri eng avvalo ichki rag'batni kuchaytirishda namoyon bo'lishini bir ovozdan tasdiqlaydi.

Ikkinchi yo'nalish – kommunikativ kompetentlikning tarkibiy jihatdan rivojlanishi. Grammatik kompetentlik – nutqning to'g'ri tuzilishini – an'anaviy o'quv usullari ham rivojlantirishga qodir. Biroq ijtimoiyolingvistik kompetentlik (vaziyatga mos nutq) va strategik kompetentlik (muloqotda yuzaga kelgan to'siqlarni engish usullari) faqat haqiqiy muloqot vaziyatlarida, ya'ni o'quvchi jonli aloqa o'rnatishga majbur bo'lganda shakllanadi. Rolli o'yinlar, stsenariy asosidagi muloqot vazifalari va jamoaviy

muhoqamalar aynan shunday vaziyatlarni modellashtiradi. Masalan, «savdo» yoki "sayohat" mavzusidagi rolli o'yinda o'quvchi savol berish, ma'lumot so'rash, kelishuv izlash va o'z fikrini isbotlash kabi turli diskursiv funksiyalarni amalda o'zlashtiradi. Bu esa grammatik o'quv mashqlariga nisbatan ancha boy kommunikativ tajribani ta'minlaydi [7]. Geymifikatsiya doirasida vazifalarning bosqichliligi ham muhim: dastlab oddiy dialog, so'ng guruhii muhoqama, nihoyat murakkab rolli stsenariy – bu ketma-ketlik o'quvchining nutqii imkoniyatlarini asta-sekin kengaytirib boradi.

Uchinchi yo'nalish – ijtimoiy va hamkorlikka oid o'lchovlar. Kommunikativ kompetentlik nafaqat individual nutq qobiliyatlarini, balki guruhda ishlash, kelishuv qidirish, boshqalarning fikrini tinglab tushunish va o'z nuqtai nazarini hisobga olgan holda muloqot olib borish ko'nikmalarini ham o'z ichiga oladi. Jamoaviy geymifikatsiya vazifalari – masalan, o'quvchilar birgalikda belgilangan maqsadga erishishi lozim bo'lgan kooperativ o'yinlar – aynan ushbu ko'nikmalarni mashq qildiradi. Bunday o'yinlarda raqobat individual emas, guruhii bo'ladi, bu esa tengdoshlar o'rtasidagi muloqot intensivligini oshiradi. Vigotskiy ta'kidlaganidek, ijtimoiy o'zaro ta'sir kognitiv rivojlanishning harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi, geymifikatsiya esa ushbu ijtimoiy o'zaro ta'sirni tashkiliy jihatdan strukturalashtiradi va mazmunli qiladi [10].

To'rtinchi yo'nalish – mazmunii tanlov masalasi. Geymifikatsiya elementlari qanchalik jozibali bo'lmasin, ular kommunikativ maqsadlarga xizmat qilishi uchun mazmunii jihatdan pedagogik maqsadlarga uyg'un bo'lishi lozim [8]. Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, geymifikatsiyaning eng katta xatosi – o'yin elementlarini mazmundan ajratgan holda sirtqi rag'bat sifatida qo'llashdir. Bunday holatda o'quvchi ball yig'ish uchun harakat qiladi, kommunikativ vazifa esa ikkinchi o'ringa tushib qoladi. Shu sababli samarali geymifikatsiya kommunikativ vazifani o'yinning markazii tarkibii qismiga aylantirishi, o'yin mexanikasini esa ushbu vazifani hal etish jarayonining organik davomi sifatida loyihalashi zarur [4]. Masalan, "bahs-munozara" geymifikatsiyasida o'quvchi o'z argumentini qanchalik mantiqli va ishonchli ifodalasa, shuncha yuqori natijaga erishadi – bu holda o'yin mexanikasi bevosita kommunikativ sifatni baholaydi va rag'batlantiradi.

Bundan tashqari, o'qituvchining roli geymifikatsiya sharoitida qayta ko'rib chiqilishi lozim. An'anaviy ta'limda o'qituvchi bilim manbai va monologik ta'sir sub'ekti bo'lsa, geymifikatsiya doirasida u o'yin muhitini loyihalashtiruvchi, faoliyatni yo'naltiruvchi va refleksiyanii tashkil etuvchi murabbiyga aylanadi [3]. Bu o'zgarish boshlang'ich ta'limda ayniqsa muhim, chunki o'quvchining o'qituvchi bilan emotsional munosabati uning o'quv motivatsiyasiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir qiladi. O'qituvchi geymifikatsiya vazifalarini shunday tuzadiki, har bir o'quvchi o'z kommunikativ imkoniyatlari darajasiga mos vazifani topa olsin va muvaffaqiyat hissini his qilsin – bu esa kommunikativ faollikning barqaror motivatsion bazasini vujudga keltiradi [9].

Beshinchi yo'nalish – baholash va fikr-mulohaza mexanizmlari. Kommunikativ kompetentlikni shakllantirish jarayonida baholash nafaqat yakuniy natijani, balki jarayonning o'zini ham qamrab olishi lozim. An'anaviy

baholash tizimida o'quvchi o'z nutqii faoliyatining sifati haqida ko'pincha kechiktirilgan va bir tomonlama ma'lumot oladi – bu esa xatolarni ongli tushunish va o'zini takomillashtirish imkoniyatini cheklaydi. Geymifikatsiya esa tezkor va ko'p qatlamli fikr-mulohaza (feedback) tizimini tabiiy tarzda o'z ichiga oladi: o'yin jarayonida o'quvchi darhol o'z harakatining natijasini ko'radi, qaysi kommunikativ strategiya samarali ekanini his qiladi va keyingi vazifaga yanada ongli tayyorlanadi. Bundan tashqari, geymifikatsiya doirasida tengdoshlar baholashi ham muhim o'rin tutadi – o'quvchilar bir-birining nutqii faoliyatini kuzatib, izoh berish orqali o'zlari ham tanqidiy nutqii tafakkurni rivojlantiradilar. Izarenkovning ta'kidlashicha, kommunikativ kompetentlikni rivojlantirishda o'quvchining o'z nutqii faoliyatini refleksiv baholay olishi – ya'ni metakommunikativ ko'nikma – alohida didaktik maqsad sifatida belgilanishi zarur [2]. Geymifikatsiya aynan ushbu refleksiv baholashni o'yin jarayoniga organik kiritish imkonini beradi, bu esa boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'z-o'zini boshqarish va nutqii mas'uliyat hissini shakllantirishga xizmat qiladi.

Oltinchi yo'nalish – geymifikatsiyaning differentsial ta'lim bilan uyg'unlashuvi. Boshlang'ich sinf sinfxonasida o'quvchilar nutqii rivojlanish darajasi, temperament, ijtimoiy tajriba va o'quv uslubi jihatidan bir-biridan sezilarli darajada farq qiladi [1]. An'anaviy frontal dars formati bu farqlanishni hisobga olishga qodir emas – hamma uchun bir xil vazifa va sur'at belgilanadi, bu esa past darajadagi o'quvchilarni orqada qoldirib yuborish, yuqori darajadagilarni esa zeriktirib qo'yish xavfini tug'diradi. Geymifikatsiya tizimi esa vazifalarni darajalash, individual traektoriyalarni loyihalash va har bir o'quvchiga mos muloqot muhitini yaratish imkonini beradi. Masalan, uyatchan yoki muloqotga tortinchoq o'quvchi uchun avval ikkilik dialog, so'ng kichik guruh, nihoyat butun sinf oldida nutq kabi bosqichma-bosqich kommunikativ vaziyatlar taklif etilishi mumkin – bu yerda o'yin formatining tabiiy tartiblilik xususiyati differentsial yondashuvning pedagogik vositasiga aylanadi. Leontevning faoliyat nazariyasiga ko'ra, kommunikativ faoliyat o'quvchida shaxsiy mazmun kasb etgandagina haqiqii rivojlanishga xizmat qiladi; geymifikatsiya esa turli xil o'quvchilar uchun turlicha, ammo har birida shaxsiy ahamiyat tug'diradigan muloqot vaziyatlarini yaratish vositasi sifatida ushbu nazariy talabni amalda qondira oladi.

Xulosa. Amalga oshirilgan adabiyotlar tahlili va nazariy mushohada asosida quyidagi xulosalar chiqarish mumkin. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kommunikativ kompetentlikni shakllantirish murakkab, ko'p o'lchovli pedagogik jarayon bo'lib, u o'quvchining motivatsion, kognitiv va ijtimoiy rivojlanishini bir vaqtning o'zida qamrab olishini talab etadi. Geymifikatsiya – o'yin mexanizmlarini o'quv jarayoniga maqsadli tatbiq etish – ushbu talablarni qondirish uchun nazariy jihatdan puxta asoslangan va amaliy imkoniyatlari keng bo'lgan pedagogik yondashuv hisoblanadi. Geymifikatsiya motivatsion, diskursiv, ijtimoiy va mazmunii yo'nalishlarda kommunikativ kompetentlikning asosii komponentlarini bir kompleks tizim doirasida rivojlantirishga imkon beradi.

Biroq geymifikatsiyani samarali asbob sifatida ishlatish uchun bir qator shart-sharoitlar bajarilishi zarur: o'yin elementlari kommunikativ maqsadlardan ajratilmasligi,

vazifalar murakkablik darajasiga ko'ra bosqichma-bosqich tartiblanishi, o'qituvchi esa faol boshqaruvchi emas, balki yo'naltiruvchi sifatida qayta pozitsiyalanishi lozim. O'zbek boshlang'ich ta'lim tizimi kontekstida geymifikatsiyani joriy etish milliy pedagogik an'analar – xalq o'yinlari, jamoaviy faoliyat madaniyati – bilan organik bog'lanishi

kerak, bu esa ushbu texnologiyaning mahalliy sharoitda qabul qilinuvchanligini oshiradi. Kelgusida ushbu yo'nalishda amaliy pedagogik tajribalar, o'qituvchilar uchun metodologik qo'llanmalar va boshlang'ich ta'lim dasturlariga muvofiq geymifikatsiya loyihalari ishlab chiqilishi maqsadga muvofiq.

Adabiyotlar

1. Hasanov B. Boshlang'ich sinflarda kommunikativ kompetentlikni shakllantirish metodikasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018.
2. Savignon S.J. Communicative Competence: Theory and Classroom Practice. – New York: McGraw-Hill, 1997.
3. Вербицкий А.А. Активное обучение в высшей школе: контекстный подход. – Москва: «Высшая школа», 1991.
4. Werbach K., Hunter D. For the Win: How Game Thinking Can Revolutionize Your Business. – Philadelphia: Wharton Digital Press, 2012.
5. Hymes D. On Communicative Competence // Sociolinguistics / eds. J. Pride, J.Holmes. – Harmondsworth: Penguin, 1972. - P. 269–293.
6. Canale M., Swain M. Theoretical Bases of Communicative Approaches to Second Language Teaching and Testing. // Applied Linguistics. 1980. Vol. 1, No. 1. – P. 1–47.
7. Deterding S., Dixon D., Khaled R., Nacke L. From Game Design Elements to Gamefulness: Defining "Gamification". // Proceedings of the 15th International Academic MindTrek Conference. -New York: ACM, 2011. – P. 9-15.
8. Qodirov G'. O'zbek xalq o'yinlarining tarbiyaviy va didaktik imkoniyatlari. – Toshkent: «O'qituvchi», 2015.
9. Ryan R.M., Deci E.L. Intrinsic and Extrinsic Motivations: Classic Definitions and New Directions // Contemporary Educational Psychology. 2000. Vol. 25, №1. – P. 54–67.
10. Выготский Л.С. Мышление и речь. – Москва: «Лабиринт», 1999.

Tálim - tárbiya teoriiyası hám metodikası

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ОБРАЗЦОВ НАРОДНОЙ ПЕДАГОГИКИ В ВОСПИТАНИИ ДЕТЕЙ

Абдалиева Перуза Исаевна – старший преподаватель

feruzaabdaleyva@gmail.com

Нукусский государственный педагогический институт имени Ажинияза

БОЛАЛАР ТАРБИЯСИДА ХАЛҚ ПЕДАГОГИКАСИ НАМУНАЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ

Абдалиева Перуза Исаевна – катта ўқитувчи

Ажиниёз номидаги Нукус давлат педагогика институту

UTILIZING EXAMPLES OF FOLK PEDAGOGY IN CHILD-REARING

Abdaliyeva Peruzha Isaevna – Senior teacher

Nukus state Pedagogical Institute named after Ajiniyaz

Таянч сўзлар: оила, халқ кадрийатлари, урф-одатлар, анъаналар, эртақлар, термалар, топишмоқлар, макол-маталлар, аллалар.

Резюме. Мақолада оила тарбиясида қорақалпоқ халқ педагогикаси намуналаридан фойдаланиш орқали болаларни ҳар томонлама баркамол инсон этиб тарбиялаш вазифалари ҳақида сўз боради.

Ключевые слова: семья, народные ценности, обычаи, традиции, сказки, терме (стихотворно-напевная речь), загадки, пословицы-поговорки, колыбельные песни.

Резюме. В статье идет речь о задачах воспитания детей всесторонне развитыми людьми с помощью использования образцов каракалпакской народной педагогики в семейном воспитании.

Key words: family, folk values, customs, traditions, fairy tales, termes (verse-singing speech), riddles, proverbs, lullabies.

Summary. The article deals with the problems of educating children by comprehensively developed people using samples of Karakalpak folk pedagogy in family education.

Введение. Семья – неотъемлемая часть общества. Нет народа, нации или общества, которые бы не учитывали проблемы семьи в истории своего развития и в определении будущего. Всякое будущее неотделимо от семейных интересов. Так как, семья для каждого человека – это начало всех начал. А также, каждый человек связывает свое счастье, прежде всего, с семьей, т. е. чувствовать себя по настоящему счастливым может только тот, который счастлив у себя дома, в семье.

Анализ литературы. Семья, являясь неотъемлемой частью общества, занимает важное место в развитии каждого человека в отдельности и любой нации в целом.

Первый Президент Республики Узбекистан Ислам Каримов подчеркивая, что семья занимает особое место в развитии каждого общества, нации: “Несомненно, велика роль и влияние семьи в формировании и развитии своеобразной духовности каждой нации. Так как, самые чистые и кристальные чувства человека, его первые понятия и воображения о жизни формируются в первую очередь именно в семейной среде. Фундамент понятий, представляющих собой духовные критерии и взгляды, определяющие характер и мировоззрение ребенка, такие как, доброта и милосердие, честь и совесть, уважение к родителям, представителям старшего поколения закладываются в семейных условиях” [1]. В каракалпакской народной педагогике детский фольклор изучался как отдельный жанр. В связи с этим У. Айтмуратов опубликовал труд под названием “Каракалпакский детский фольклор.” В ней, основываясь на детском фольклоре, подчеркивается важность скороговорок, загадок и сказок в воспитании детей в семье, развивая их мышление и способствуя трудолюбию. [2].

Анализ и результаты. Семья – это место, где человек отдыхает и восстанавливает работоспособность. Вместе с тем, семья является очагом воспитания. В семейном воспитании детей существуют оставленные предками, испытанные поколениями людей, лучшие традиции, обычаи. Для воспитания детей всесторонне развитыми людьми, в семейном воспитании целесообразно использовать образцы народной педагогики, сформированные на протяжении многих лет. Так как, родители, рассказывая своим детям сказки, пословицы и поговорки, скороговорки и загадки формируют у них первичные нравственные представления. Особенно на психологическое развитие ребенка влияет колыбельная песня, через колыбельную мать выражает свои чувства к младенцу, желания, чтобы ребенок вырос хорошим человеком. Например:

Айнанайын аппағым
Қозы жүнли қалпағым
Журт сүймесе сүймесин
Өзимнің сүйген аппағым

В каракалпакском народе наряду с колыбельными песнями матерей существуют ещё и песни- термишы, которые поют отцы. Термишы – традиционный жанр каракалпакского фольклора, посвященный детям. Обычно колыбельные песни поют матери, а термишы – это песни, посвященные ребенку, в исполнении отцов [3].

Отцы исполняют песни-термишы просто, без музыкального сопровождения. Отцы, также как матери, вносят вклад в воспитание ребенка, излагая через песенные строки свои чувства, выражая пожелания, чтобы дети выросли мужественными. Например:

Айдыу-айдыу айда бар,
Айдан арыў кайда бар,

Айды мактап нетейин,
Ай баламнан пайда бар,

Сказки играют существенную роль в семейном воспитании. Сказки – один из основных видов устного народного творчества. Они пробуждают у детей доброту, отзывчивость. Существует несколько разновидностей сказок. Дети очень любят слушать сказки, действия сказочных героев будят воображения малыша. Сказки помогают детям осмыслить явления окружающего мира, расширяют их кругозор. Особенно детям дошкольного возраста нужно рассказывать сказки о животных. Потому что, в таких сказках изображение повадок зверей, особенности их поведения напоминает изображение поведения людей, животные в сказках олицетворяют собой человеческие добродетели и пороки. А под влиянием этих сказок с раннего возраста в их детском сознании складываются правильные представления о справедливости, о добре и зле.

В настоящее время родители в семейном воспитании все больше отдают предпочтение использованию современных методов воспитания. Это правильно, потому что, на сегодняшний день педагогическая наука очень хорошо развита и в ней создаются эффективные методы для воспитания детей. Однако у каждой нации имеются ценности, традиции, обычаи, отражающие своеобразную национальную самобытность, они не потеряли своего значения и по сей день. Поэтому, частое использование родителями в семейном воспитании, в обычном воспитательном процессе в качестве образцов – произведений устного народного творчества – пословиц и поговорок, загадок и скороговорок, способствует освоению детьми воспитательных особенностей, характерных для нашей национальности. Особенно в воспитательном процессе родители использовали пословицы и поговорки. На примере пословиц “Мийнет туби-рахат – Труд приносит удовольствие”, “Енбек етсен-емерсен – если потрудишься, то и поешь”, родители приучают детей к труду, объясняя, что труд занимает важную роль в жизни человека. А на примере пословиц и поговорок об общественных нормах поведения, таких как: “Болайын десен адепли, хош кылык пенен адетлен – Хочешь быть воспитанным, вежливым, возьми себе в привычку хорошее поведение”, – дети учатся хорошим манерам, служить народу, быть вместе с народом – “Ер ел ушын тууады, ел ушын оледі – Герой рождается на счастье народу и умирает за народ”. Воспитание детей всесторонне развитыми личностями посредством применения вот таких пословиц и поговорок в семейном быту, донесением до

сознания ребенка народных качеств и наследия является священным долгом каждого из нас.

Кроме пословиц и поговорок в каракалпакской народной педагогике важным средством для воспитания детей могут быть и терме (стихотворно-напевная речь или белый стих). Терме считаются одним из видов фольклорного жанра, имеют малые размеры. Они наставляют, воспитывают людей. Терме обычно исполняют жырау (народные певцы). В них в назидательно-поучительной форме поётся о том, как жить, что делать. Терме, предназначенные для детей, учат их прежде всего добру, отличать хорошее от плохого, тому, какими должны быть нормы поведения, что приносит вред человеку и призывают слушателя к справедливости.

Бир дегенде не жаман,
Билимсиз өскен үл жаман,
Қараўсыз өскен қыз жаман,
Еки дегенде не жаман,
Елеўсиз келген жаў жаман х.т.б.

Дети слушают терме с большим удовольствием и стараются их запомнить и пересказать. В воспитании детей важное место занимают также загадки. Известный каракалпакский фольклорист К.Аимбетов характеризует загадки таким образом: “Загадка способствует развитию умственной способности. Отгадывание загадок оттачивает ум, приучая детей к четкой логике, рассуждению, развивает способности к анализу, мышлению, расширяет кругозор, доставляет уму ребенка полезное упражнение” [4]. Загадки тесно связаны с реальной жизнью человека. Загадывание загадок давно существует среди детей. Разгадывание загадки требует активной работы мысли, наблюдательности, находчивости. Например:

Кишкеке ғана бойы бар, – (маленький дед)
Қабат-қабат тоны бар (пияз) (в семь шуб одет) (лук)
Бир ийтим бар үрмейди, – (Не лает, не кусает)
Руўхсатсыз ол үйге, (в дом не пускает) (замок)
Хеш ким хәрғиз кирмейди (никто в дом не заходит) (кулып).

Заключение. В заключение можно сказать, что семейное воспитание, основанное на каракалпакской народной педагогике, является самой актуальной задачей сегодняшнего дня. Воспитание начинается с семьи и используя в семейном быту народные обычаи и традиции, каждый член семьи может передать будущему поколению национальные ценности, обычаи и традиции своего народа и это способствует воспитанию будущего поколения приверженцами национальной идеи.

Литература

1. Каримов И. Высокая духовность – непобедимая сила. – Ташкент: “Маънавият”, 2008. – С. 52.
2. Айтмуратов У. Каракалпак балалар фольклоры. -Нокис: 1970.
3. Амирлан С. Мотивы жырау и термечи. Современные проблемы каракалпакских школ жырау. // Материалы Республиканской научно-практической конференции. – Нукус: 2014.
4. Айымбетов К. Каракалпакский фольклор. – Нукус: “Каракалпакстан”, 1977.

**QORAQALPOG'ISTON HUDUDIDAGI EKOLOGIK VA SOTSIAL-IQTISODIY
MUAMMOLAR ASOSIDA FIZIKAVIY HODISALARNI O'QITISHDA
MULTIMEDIA VA INTERAKTIV TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH**

Abdijaliev Sultanbek Kallibekovich – fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori
sultanbekabdijaliev@gmail.com

Omarova Zamira Allamjarovna – magistrant
Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

**ИСПОЛЬЗОВАНИЕ МУЛЬТИМЕДИЙНЫХ И ИНТЕРАКТИВНЫХ
ТЕХНОЛОГИЙ ПРИ ОБУЧЕНИИ ФИЗИЧЕСКИМ ЯВЛЕНИЯМ НА
ОСНОВЕ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ И СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКИХ
ПРОБЛЕМ ТЕРРИТОРИИ КАРАКАЛПАКСТАНА**

Абдижаалиев Султанбек Каллибекович – доктор философии по физико-математическим наукам

Омарова Замира Алламжаровна – магистрант
Нукусский государственный педагогический институт имени Ажинияза

**THE USE OF MULTIMEDIA AND INTERACTIVE TECHNOLOGIES IN
TEACHING PHYSICAL PHENOMENA BASED ON ENVIRONMENTAL AND
SOCIO-ECONOMIC PROBLEMS IN THE TERRITORY OF KARAKALPAKSTAN**

Abdijaliev Sultanbek Kallibekovich – Doctor of Philosophy in Physical and Mathematical Sciences

Omarova Zamira Allamjarovna – master's student
Nukus State Pedagogical Institute named after Ajiniyaz

Tayanch so'zlar: Qoraqalpog'iston, Orolbo'yi, fizika ta'limi, ekologik muammo, multimedia, interaktiv texnologiya, virtual laboratoriya, fizikaviy hodisa, ekologik tafakkur, nazariy-metodik yondashuv.

Rezyume. Maqolada Qoraqalpog'iston Respublikasining ekologik va sotsial-iqtisodiy muammolari asosida fizikaviy hodisalarni o'qitishda multimedia va interaktiv texnologiyalardan foydalanishning didaktik imkoniyatlari tahlil qilinadi. Maqolada Orolbo'yi hududida kuzatilayotgan suv tanqisligi, tuproq sho'rlanishi, chang-to'zon hodisalari, iqlim keskinlashuvi kabi jarayonlar issiqlik almashinuvi, bug'lanish, diffuziya, aerodinamika, nurlanish va energiya aylanishi mavzulari bilan bog'lanadi. Empirik tajriba-sinov ma'lumotlari keltirilmaydi; asosiy e'tibor ilmiy-metodik adabiyotlar tahlili, mahalliy ekologik vaziyatlar asosida darsni loyihalash va kutilayotgan pedagogik samaralarni nazariy asoslashga qaratiladi.

Ключевые слова: Каракалпакстан, Приаралье, физическое образование, экологическая проблема, мультимедиа, интерактивные технологии, виртуальная лаборатория, физическое явление, экологическое мышление, теоретико-методический подход.

Резюме. В статье рассматриваются дидактические возможности использования мультимедийных и интерактивных технологий при обучении физическим явлениям на основе экологических и социально-экономических проблем Республики Каракалпакстан. Особое внимание уделяется связи процессов Приаралья с такими темами физики, как теплообмен, испарение, диффузия, аэродинамика, излучение и превращение энергии. В статье не приводятся эмпирические результаты эксперимента; акцент сделан на анализе научно-методической литературы, проектировании уроков с учетом местного экологического контекста и теоретическом обосновании ожидаемых педагогических результатов.

Key words: Karakalpakstan, Aral Sea region, physics education, environmental problem, multimedia, interactive technologies, virtual laboratory, physical phenomenon, ecological thinking, theoretical and methodological approach.

Summary. The article examines the didactic potential of using multimedia and interactive technologies in teaching physical phenomena based on environmental and socio-economic problems in the Republic of Karakalpakstan. It connects local environmental processes in the Aral Sea region with physics topics such as heat transfer, evaporation, diffusion, aerodynamics, radiation and energy transformation. The article does not present empirical experimental data; it focuses on the analysis of scientific and methodological literature, lesson design based on the local ecological context, and theoretical justification of expected pedagogical outcomes.

Kirish. Bugungi kunda ta'lim jarayonida fanlarni hayotiy muammolar bilan bog'lab o'qitish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, Qoraqalpog'iston Respublikasi sharoitida fizika fanini faqat nazariy qonuniyatlar majmyu sifatida emas, balki hududda mavjud ekologik va sotsial-iqtisodiy jarayonlarni tushuntirish vositasi sifatida o'qitish muhim ahamiyatga ega. Orol dengizi inqirozi, suv resurslarining kamayishi, tuproq sho'rlanishi, chang-to'zonlarning ko'payishi, havo haroratining keskin o'zgarishi va aholining turmush sharoitiga ta'sir etuvchi ekologik omillar fizika fanidagi ko'plab hodisalar bilan bevosita bog'liqdir.

Masalan, Orolbo'yi hududida suv sathining pasayishi va bug'lanish jarayonlarini tushuntirishda issiqlik almashinuvi, molekulyar harakat, bug'lanish tezligi va nurlanish energiyasi tushunchalaridan foydalanish mumkin. Chang-to'zonlarning tarqalishi aerodinamika, bosim, havo oqimi, diffuziya va zarralar harakati bilan izohlanadi. Tuproq sho'rlanishi va namlikning kamayishi esa kapillyarlik, bug'lanish, moddalarning eruvchanligi va issiqlik ta'sirida modda almashinuv jarayonlari bilan bog'liq holda o'rganilishi mumkin.

An'anaviy darslarda bunday murakkab hodisalarni faqat og'zaki tushuntirish ko'pincha yetarli natija bermaydi.

Chunki o'quvchi yoki talaba fizikaviy jarayonni ko'z oldiga keltira olmasa, uning mohiyatini chuqur anglamaydi. Shu sababli multimedia va interaktiv texnologiyalardan foydalanish fizika ta'limida muhim didaktik vosita sifatida qaraladi. Animatsiya, simulyatsiya, virtual laboratoriya, interaktiv xarita, videolavha va raqamli topshiriqlar yordamida abstrakt fizikaviy hodisalarni ko'rgazmali, tushunarli va amaliy mazmunda yoritish mumkin.

Mazkur maqolaning maqsadi – Qoraqalpog'istonning ekologik va sotsial-iqtisodiy muammolari asosida fizikaviy hodisalarni o'qitishda multimedia va interaktiv texnologiyalardan foydalanishning nazariy-metodik imkoniyatlarini asoslash hamda fizika darslari uchun didaktik yondashuvlarni taklif etishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari quyidagilardan iborat: 1) Qoraqalpog'iston hududidagi ekologik va sotsial-iqtisodiy muammolar bilan bog'liq fizikaviy hodisalarni aniqlash; 2) multimedia va interaktiv texnologiyalarning fizika ta'limidagi didaktik imkoniyatlarini tahlil qilish; 3) fizikaviy hodisalarni mahalliy ekologik muammolar bilan bog'lab o'qitish uchun nazariy-metodik model taklif etish; 4) taklif etilgan yondashuv asosida kutiladigan pedagogik natijalarni ilmiy-metodik jihatdan asoslash; 5) mazkur yondashuvning cheklovlari va amaliy qo'llash shartlarini aniqlash.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Multimedia ta'lim nazariyasida o'quv materialini matn, tasvir, animatsiya, audio va interaktiv elementlar orqali berish o'quvchining idrok jarayonini faollashtirishi ta'kidlanadi. R.E.Mayerning "Multimedia Learning" asarida vizual va verbal axborotni uyg'unlashtirish o'quv materialini yaxshiroq anglashga yordam berishi asoslangan [1]. Bu yondashuv fizika fanidagi abstrakt tushunchalarni animatsiya va simulyatsiya orqali tushuntirish zarurligini ko'rsatadi.

UNESCOning 2023-yildagi "Technology in education: A tool on whose terms?" hisobotida raqamli texnologiyalar ta'lim sifatini oshirishi mumkinligi, biroq texnologiyaning samarasi ularning pedagogik maqsadga mos qo'llanishiga bog'liqligi alohida ta'kidlanadi [2]. Shu sababli multimedia vositalari darsda mustaqil maqsad emas, balki fizikaviy hodisani chuqurroq anglashga xizmat qiluvchi didaktik vosita sifatida qo'llanishi lozim.

University of Colorado Boulder tomonidan ishlab chiqilgan PhET Interactive Simulations platformasi fizika, kimyo, biologiya, geografiya va matematika fanlarida interaktiv modellar asosida ta'lim berish imkoniyatlarini yaratadi [3]. Orolbo'yi hududiga oid manbalarda esa ekologik inqirozning suv resurslari, aholi turmushi va atrof-muhit barqarorligiga ta'siri yoritiladi; Xalqaro Orolni qutqarish jamg'armasi agentligi ma'lumotlari bu muammoning hududiy dolzarbligini ko'rsatadi [4]. Mazkur maqolaning o'ziga xos jihati shundaki, unda multimedia ta'limi haqidagi umumiy nazariyalar Qoraqalpog'iston hududining aniq ekologik va sotsial-iqtisodiy konteksti bilan bog'lanadi.

Nazariy-metodik tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqola nazariy-metodik xarakterga ega bo'lib, unda haqiqiy pedagogik tajriba-sinov natijalari yoki statistik ma'lumotlar keltirilmaydi. Tadqiqotning metodologik asosini ilmiy-metodik adabiyotlar tahlili, mahalliy ekologik vaziyatlarni didaktik jihatdan tahlil qilish, taqqoslash, umumlashtirish va metodik modelashtirish tashkil etadi.

Tadqiqot obyekti sifatida umumiy o'rta va oliy pedagogik ta'limda fizika fanini o'qitish jarayoni belgilandi. Tadqiqot predmeti esa Qoraqalpog'iston hududidagi ekologik va sotsial-iqtisodiy muammolar asosida fizikaviy hodisalarni multimedia va interaktiv texnologiyalar yordamida o'qitishning nazariy-metodik imkoniyatlaridan iborat.

Tadqiqotning metodik farazi quyidagicha shakllantirildi: agar fizika darslarida Qoraqalpog'iston hududiga xos ekologik va sotsial-iqtisodiy muammolar multimedia hamda interaktiv texnologiyalar asosida tushuntirilsa, o'quvchilarning fizikaviy hodisalarni hayotiy jarayonlar bilan bog'lab anglash, tahlil qilish va ekologik mas'uliyat nuqtayi nazaridan baholash ko'nikmalari rivojlanishi mumkin.

Tadqiqot doirasi 2016-yildan keyin e'lon qilingan ilmiy-metodik adabiyotlar, xalqaro tashkilotlar hisobotlari, raqamli ta'limga oid manbalar, Orolbo'yi ekologik holatiga doir ochiq materiallar hamda fizika fanini o'qitishdagi interaktiv vositalar tahlili bilan chegaralandi. Amaliy tajriba-sinov o'tkazilmagani sababli maqolada tanlanma hajmi, nazorat va tajriba guruhlar hamda test natijalari berilmaydi. Bu holat maqolaning nazariy-metodik maqola sifatidagi chegarasi hisoblanadi.

Metodik tahlil jarayonida "muammo – fizik izoh – interaktiv ko'rsatish – mustaqil xulosa" modeli asos qilib olindi. Ushbu modelda avval mahalliy ekologik yoki sotsial-iqtisodiy muammo tanlanadi, keyin u bilan bog'liq fizikaviy hodisa aniqlanadi, so'ng multimedia yoki interaktiv texnologiya yordamida jarayon ko'rgazmali tushuntiriladi va yakunda o'quvchi hodisa yuzasidan mustaqil xulosa chiqarishga yo'naltiriladi.

Mahalliy muammolar va fizikaviy hodisalarning metodik bog'liqligi. Qoraqalpog'iston hududidagi ekologik muammolarni fizika ta'limi bilan bog'lashda har bir real jarayon muayyan fizik tushuncha bilan izohlanishi mumkin. Masalan, Orol dengizi suvining kamayishi bug'lanish va issiqlik almashinuvi jarayonlari bilan bevosita bog'liq bo'lib, bu mavzuni animatsiya, sonli karta va bug'lanish jarayonini ifodalovchi simulyatsiyalar orqali tushuntirish mumkin.

Chang-to'zonlar hodisasi aerodinamika, bosim farqi va mayda zarralar harakati bilan bog'liq. Shamol simulyatsiyasi yordamida shamol tezligi ortganda quruq yer yuzasidan zarralarning ko'tarilishi va havoda tarqalishi ko'rsatiladi. Tuproqning sho'rlanishi esa kapillyarlik, eruvchanlik va bug'lanish jarayonlari orqali tushuntiriladi; bunday darsda virtual tajriba o'quvchilarga suvning tuproq qatlamlari bo'ylab ko'tarilishi va tuzlarning yuzaga chiqishini tasavvur qilishga yordam beradi.

Suv tanqisligi suyuqlik oqimi, bosim va energiya sarfi kabi tushunchalar bilan bog'liq. Interaktiv model orqali quvurda suvning oqishi, bosim o'zgarishi va energiya sarfi ko'rsatiladi. Quyosh energiyasidan foydalanish esa yorug'lik energiyasi, fotoeffekt va energiya aylanishi mavzulari bilan bog'liq bo'lib, quyosh paneli simulyatsiyasi yordamida amaliy mazmunda tushuntiriladi. Harorat keskinligi issiqlik sig'imi, nurlanish va konveksiya jarayonlari orqali tushuntiriladi; grafik va video tajriba bu hodisani ko'rgazmali tushunishga yordam beradi.

Metodik tahlil natijalari. Mazkur maqolada empirik tajriba-sinov natijalari emas, balki nazariy-metodik tahlil asosida aniqlangan pedagogik imkoniyatlar bayon etiladi.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, Qoraqalpog'iston hududidagi ekologik va sotsial-iqtisodiy muammolar fizika darslari uchun muhim didaktik kontekst bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Birinchidan, fizikaviy tushunchalar hayotiy mazmun kasb etadi. O'quvchilar bug'lanish, diffuziya, issiqlik almashinuvi, bosim, havo oqimi, nurlanish kabi tushunchalarni faqat nazariy ta'rif sifatida emas, balki o'z hududida kuzatilayotgan real jarayonlarni tushuntiruvchi ilmiy asos sifatida qabul qilishlari mumkin.

Ikkinchidan, multimedia vositalari murakkab jarayonlarni ko'rgazmali tushuntirishga yordam beradi. Ayniqsa, chang va tuz zarralarining havo oqimida tarqalishi, suvning bug'lanishi, issiqlik almashinuvi yoki quyosh energiyasining elektr energiyasiga aylanishi kabi jarayonlarni animatsiya va simulyatsiya orqali ko'rsatish o'quvchi tasavvurini faollashtiradi.

Uchinchidan, interaktiv texnologiyalar o'quvchini faol ishtirokchiga aylantirish imkonini beradi. Virtual laboratoriya yoki simulyatsiyada o'quvchi parametrlarni o'zgartiradi, natijani kuzatadi va sabab-oqibat bog'liqligini anglashga harakat qiladi. Bu jarayon fizikaviy hodisani tayyor axborot sifatida qabul qilishdan ko'ra, uni mustaqil tahlil qilishga undaydi.

To'rtinchidan, ekologik mazmundagi fizikaviy vaziyatlar o'quvchilarda ekologik tafakkur va ijtimoiy mas'uliyatni shakllantirishga xizmat qilishi mumkin. Biroq mazkur xulosalar nazariy-metodik tahlil natijalari bo'lib, ularni miqdoriy jihatdan tasdiqlash uchun kelgusida alohida pedagogik tajriba-sinov ishlari talab etiladi.

Muhokama. Tahlil natijalari multimedia va interaktiv texnologiyalar fizikaviy hodisalarni tushuntirishda muhim didaktik vosita bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi. Bu holat R.E.Mayer tomonidan ilgari surilgan vizual va verbal axborotni uyg'unlashtirish haqidagi qarashlar bilan mos keladi. Fizika fanidagi abstrakt tushunchalarni animatsiya, simulyatsiya va virtual tajriba orqali ifodalash o'quvchilarning hodisani tasavvur qilishini yengillashtiradi.

UNESCO materiallarida ta'limda raqamli texnologiyalardan foydalanish o'quv jarayonining sifatini oshirish omillaridan biri sifatida ko'rsatiladi, biroq texnologiya samaradorligi pedagogik maqsad, o'qituvchi tayyorgarligi va o'quv resursining mazmuniga bog'liqligi ta'kidlanadi. Mazkur maqoladagi yondashuv ham texnologiyani mustaqil maqsad sifatida emas, balki fizikaviy hodisalarni mahalliy ekologik muammolar bilan bog'lab tushuntirish vositasi sifatida talqin qiladi.

PhET simulyatsiyalari bo'yicha metodik tajriba interaktiv modellar fizikaviy jarayonlarni mustaqil kuzatish va parametrlarni o'zgartirish imkonini berishini ko'rsatadi. Biroq Qoraqalpog'iston sharoitida bunday texnologiyalarni qo'llash faqat tayyor simulyatsiyani namoyish qilish bilan cheklanmasligi kerak. O'qituvchi simulyatsiyani Orolbo'yi muammolari, chang-to'zonlar, suv tanqisligi va quyosh energiyasidan foydalanish kabi mahalliy misollar bilan bog'lagandagina uning tarbiyaviy va amaliy qiymati ortadi.

Boshqa metodik yondashuvlardan farqli ravishda, ushbu maqolada fizika ta'limi umumiy raqamli ta'lim muammosi sifatida emas, balki Qoraqalpog'iston hududining ekologik va sotsial-iqtisodiy konteksti bilan bog'langan holda ko'rib chiqildi. Shu bilan birga, maqolaning muhim cheklovi shundaki, unda nazorat va tajriba guruhlarini asosida olingan empirik natijalar berilmagan. Kelgusida mazkur metodik modelni aniq maktablar, o'quvchilar guruhi, test natijalari va statistik tahlil asosida tekshirish maqolaning amaliy qiymatini yanada oshiradi.

Xulosa. Qoraqalpog'iston Respublikasida mavjud ekologik va sotsial-iqtisodiy muammolar fizika fanini hayotiy mazmunda o'qitish uchun muhim didaktik manba bo'lib xizmat qiladi. Orolbo'yi ekologik holati, suv tanqisligi, tuproq sho'rlanishi, chang-to'zonlar, iqlim o'zgarishi va energiya resurslaridan foydalanish kabi masalalar ko'plab fizikaviy hodisalar bilan bevosita bog'liq.

Nazariy-metodik tahlil asosida aniqlanishicha, multimedia va interaktiv texnologiyalar fizikaviy hodisalarni ko'rgazmali, tushunarli va amaliy yo'nalishda tushuntirish imkonini beradi. Virtual laboratoriyalar, simulyatsiyalar, animatsiyalar, raqamli xaritalar va videodarslar yordamida o'quvchilar fizikaviy qonuniyatlarini real hayotdagi muammolar bilan bog'lashni o'rganishlari mumkin.

Maqolada taklif etilgan "muammo – fizik izoh – interaktiv ko'rsatish – mustaqil xulosa" modeli fizika darslarida mahalliy ekologik materiallardan foydalanish, o'quvchilarning fanga qiziqishini oshirish va ekologik tafakkurini rivojlantirish uchun metodik asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Shu bilan birga, maqola nazariy-metodik xarakterga ega bo'lgani sababli unda empirik natijalar keltirilmagan. Kelgusida mazkur yondashuvning samaradorligini aniqlash uchun nazorat va tajriba guruhlarini asosida pedagogik tajriba-sinov o'tkazish, diagnostik testlar ishlab chiqish va natijalarni matematik-statistik tahlil qilish maqsadga muvofiqdir.

Adabiyotlar

1. Mayer R. E. Multimedia Learning. 3rd ed. //Cambridge: Cambridge University Press, 2020. URL: <https://www.cambridge.org/highereducation/books/multimedia-learning/FB7E79A165D24D47CEACEB4D2C426ECD>
2. UNESCO Global Education Monitoring Report Team. "Technology in education: A tool on whose terms?" // Global Education Monitoring Report 2023. Paris: UNESCO, 2023. URL: <https://www.unesco.org/gem-report/en/publication/technology>
3. PhET Interactive Simulations, University of Colorado Boulder. "Free online physics, chemistry, biology, earth science and math simulations." Educational simulation platform. // 2026. URL: <https://phet.colorado.edu/>
4. Agency of IFAS for implementation of the Aral Sea basin. "Crisis of the Aral Sea." // Rasmiy axborot sahifasi. 2026. URL: <https://aral.uz/en/crisis/>

**He-Ne LAZER BILAN LLOYD KOZGUSINING AKSLANTIRISH
TAJRIBASINING OQITISH METODIKASI**

Akimova Jumaxan Orazbaevna – fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent

akimovaj.o@gmail.com

Orazimbetova Kaljamal Oralbaevna – talaba

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

**МЕТОДИКА ОБУЧЕНИЯ ЭКСПЕРИМЕНТУ ПО ИНТЕРФЕРЕНЦИИ
С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ He-Ne ЛАЗЕРА И ЗЕРКАЛА ЛЛОЙДА**

Акимова Жумахан Оразбаевна – кандидат физико-математических наук, доцент

Оразымбетова Калжамал Оралбаевна – студент

Нукусский государственный педагогический институт имени Ажинияза

**TEACHING METHODOLOGY OF THE LLOYD'S MIRROR INTERFERENCE
EXPERIMENT USING A He-Ne LASER**

Akimova Jumakhan Orazbayevna – Candidate of Physical and Mathematical Sciences, Associate Professor

Orazimbetova Kalzhamal Oralbaevna – student

Nukus State Pedagogical Institute named after Ajiniyaz

Tayanch soʻzlar: interferensiya, Lloyd tajribasi, He-Ne lazer, kogerent manba, yorugʻlikning toʻlqin tabiati.

Rezyume. Ushbu maqolada yorugʻlikning toʻlqin tabiatini isbotlovchi muhim optik hodisalardan biri Lloyd interferensiya tajribasi He-Ne lazer yordamida chuqur oʻrganiladi. Maqolada interferensiya hodisasining nazariy asoslari, Lloyd tajribasining fizik mohiyati, He-Ne lazerning ishlash prinsipi, tajriba qurilmasi va oʻtkazish metodikasi, matematik ifodalar, oʻlchash natijalari hamda xatoliklar tahlili batafsil bayon etilgan. Tajriba natijalari yorugʻlikning toʻlqin xususiyatlarini amaliy jihatdan tasdiqlaydi va lazer nurlarining yuqori darajada koherent ekanligini koʻrsatadi.

Ключевые слова: интерференция, опыт Ллойда, He-Ne лазер, когерентный источник, волновая природа света.

Резюме. В данной статье с помощью лазера He-Ne углубленно изучается одно из важнейших оптических явлений, доказывающих волновую природу света - интерференционный эксперимент Ллойда. В статье подробно изложены теоретические основы явления интерференции, физическая сущность опыта Ллойда, принцип работы лазера He-Ne, экспериментальная установка и методика проведения, математические выражения, результаты измерений и анализ погрешностей. Результаты эксперимента практически подтверждают волновые свойства света и демонстрируют высокую степень когерентности лазерных лучей.

Key words: interference, Lloyd's experiment, He-Ne laser, coherent source, wave nature of light.

Summary. This article provides an in-depth study of one of the important optical phenomena proving the wave nature of light, the Lloyd interference experiment, using a He-Ne laser. The article provides a detailed description of the theoretical foundations of the interference phenomenon, the physical essence of Lloyd's experiment, the operating principle of the He-Ne laser, the experimental device and methodology, mathematical expressions, measurement results, and error analysis. The experimental results practically confirm the wave properties of light and demonstrate that laser beams are highly coherent.

Kirish. Yorugʻlik tabiati fizika fanining eng muhim va uzoq yillar davomida oʻrganib kelinayotgan fundamental masalalaridan biridir. XVII asrda I.Nyuton yorugʻlikni mayda zarrachalar oqimi sifatida talqin qilgan boʻlsa, X.Gyuygens uning toʻlqin nazariyasini ilgari surdi. Keyinchalik T.Yungning ikki tirqishli tajribasi hamda O.Frenel tomonidan ishlab chiqilgan difraksiya nazariyasi yorugʻlikning toʻlqin xususiyatlarini eksperimental jihatdan tasdiqladi. XIX asrda J.K.Maksvell elektromagnit maydon nazariyasini yaratib, yorugʻlik elektromagnit toʻlqin ekanligini ilmiy asoslab berdi. XX asr boshlarida A.Eynshteyn fotoeffekt hodisasini tushuntirish orqali yorugʻlikning kvant tabiatini ham isbotladi. Natijada zamonaviy fizikada yorugʻlikning toʻlqin-zarracha dualizmi haqidagi tasavvur shakllandi va optika fanining rivojlanishiga mustahkam nazariy asos yaratildi [1, 2, 4, 6]. Interferensiya yorugʻlikning eng muhim toʻlqin hodisalaridan biri boʻlib, fazalari oʻzaro bogʻlangan (kogerent) ikki yoki undan ortiq yorugʻlik toʻlqinlarining ustma-ust tushishi natijasida yuzaga keladi. Bunday holatda ayrim nuqtalarda yorugʻlik intensivligi ortadi, boshqa nuqtalarda esa kamayadi. Natijada ekranda navbatma-navbat joylashgan yorugʻ va qorongʻi interferensiya

chiziqlari hosil boʻladi. Interferensiya hodisasi yorugʻlikning toʻlqin tabiatini tasdiqlovchi eng muhim eksperimental dalillardan biri boʻlib, zamonaviy optik oʻlchash usullari, interferometrik tizimlar, golografiya va yuqori aniqlikdagi metrologik oʻlchovlarning nazariy asosini tashkil etadi [2, 3, 4, 6]. Interferensiya hodisasini namoyish etuvchi klassik tajribalardan biri Lloydning akslantirish tajribasi (*Lloyd's mirror experiment*) hisoblanadi. Ushbu tajriba XIX asrda irlandiyalik fizik Humphrey Lloyd tomonidan taklif etilgan. Tajribada yorugʻlik nurining bir qismi bevosita ekranga tushadi, ikkinchi qismi esa tekis koʻzgudan akslanib ekranga yetib boradi. Koʻzgudan qaytgan nur virtual manba hosil qilgani sababli haqiqiy va virtual manbalardan tarqalgan toʻlqinlar oʻzaro interferensiyalanadi. Natijada ekranda yorugʻ va qorongʻi interferensiya chiziqlari hosil boʻladi. Mazkur tajriba optik yoʻl farqi, fazalar farqi va akslanish jarayonida yuz beradigan faza siljishini oʻrganishda muhim ahamiyat kasb etadi [2, 3, 4]. Hozirgi kunda Lloydning akslantirish tajribasi laboratoriya mashgʻulotlarida asosan He-Ne lazer yordamida bajariladi. Geliy-neon lazeri 632,8 nm toʻlqin uzunligidagi monoxromatik, yuqori darajada kogerent va intensiv yorugʻlik nurini hosil qiladi. Lazer nurining kichik

yoyilish burchagi hamda yuqori fazaviy barqarorligi interferensiya chiziqlarini aniq kuzatish va ularning parametrlarini yuqori aniqlik bilan o'lash imkonini beradi. Shu sababli He–Ne lazerlari optik laboratoriyalarda, metrologiyada, golografiyada, interferometrik o'lash tizimlarida hamda ilmiy tadqiqotlarda keng qo'llaniladi [5, 8, 9]. Fizika ta'limida Lloydning akslantirish tajribasi o'quvchilarda yorug'lik interferensiyasi haqidagi nazariy bilimlarni mustahkamlash, to'liq optikasi qonuniyatlarini amaliy tajribalar asosida tushuntirish hamda nazariy hisoblash natijalarini eksperimental ma'lumotlar bilan taqqoslash imkonini beradi [7, 9, 10]. Mazkur ishda He–Ne lazer yordamida Lloydning akslantirish interferensiyasi kuzatilib, interferensiya chiziqlari hosil qilinadi, ularning oralig'i nazariy formulalar asosida hisoblanadi va olingan natijalar tajriba ma'lumotlari bilan solishtiriladi.

Nazariy qism. Interferensiya fazalar farqi vaqt davomida o'zgarmaydigan ikki yoki undan ortiq kogerent yorug'lik to'liqlarining o'zaro qo'shilishi natijasida yorug'lik intensivligining fazoda qayta taqsimlanish hodisasidir. Kogerent to'liqlar bir xil chastotaga, deyarli teng amplitudaga va doimiy fazalar farqiga ega bo'ladi. Ana shunday sharoitda ular o'zaro kuchayish yoki so'nish hodisasini yuzaga keltiradi. Yorug'lik to'liqlari bir-birini kuchaytiradigan nuqtalarda yorug' interferensiya chiziqlari, bir-birini so'ndiradigan nuqtalarda esa qorong'i interferensiya chiziqlari hosil bo'ladi.

Lloyd tajribasida haqiqiy manba va uning ko'zgudagi mavhum tasviri hosil qilgan ikki manba interferensiyalanadi. Manbalar orasidagi masofa:

$$d = 2h$$

bu yerda:

• h – lazer nuri bilan ko'zgu orasidagi masofa.

Interferensiya maksimumlari sharti:

$$\Delta = m\lambda$$

Interferensiya minimumlari sharti:

$$\Delta = \left(m + \frac{1}{2}\right)\lambda$$

bu yerda:

$m=0,1,2,3..$

Interferensiya chiziqlari oralig'i

Interferensiya yo'laklari kengligi:

$$\beta = \frac{\lambda L}{d}$$

bu yerda:

• β – chiziqlar oralig'i;

• λ – lazer to'liq uzunligi;

• L – ekran bilan manba orasidagi masofa;

• d – virtual manbalar orasidagi masofa.

Tajribaning maqsadi

• Lloydning akslantirish interferensiyasini kuzatish.

• Interferensiya chiziqlarini hosil qilish.

• Chiziqlar orasidagi masofani o'lash.

• Yorug'likning to'liq tabiatini tasdiqlash.

Kerakli jihozlar

• He–Ne lazer

• Lloyd ko'zgusi (tekis ko'zgu)

• Optik rels


• Ekran

• Millimetrlı lineyka

• Shtativ va tutqichlar

Tajriba qurilmasi

1-rasm. Tajriba sxemasi



Bu yerda lazerdan chiqqan nur ikki qismga ajraladi:

1. Bevosita ekranga tushuvchi nur.

2. Ko'zgudan akslanib ekranga tushuvchi nur.

Tajribaning bajarilish tartibi

2-rasm. Qurilmani sozlash



He–Ne lazer optik relsga o'rnatiladi.

1. Lloyd ko'zgusi lazer nuriga juda kichik burchak ostida joylashtiriladi.

2. Ekran ma'lum masofaga qo'yiladi.

3. Nur yo'nalishi tekshiriladi.

3-rasm. Interferensiya manzarasi. Ekranda quyidagi ko'rinishdagi interferensiya chiziqlari hosil bo'ladi:



Hisoblash

Berilgan:

$\lambda = 632.8 \cdot 10^{-9} m$, $L = 1.5 m$, $d = 1.0 \cdot 10^{-3} m$ $\beta = ?$

Formula:

$$\beta = \frac{\lambda L}{d}$$

Hisoblaymiz:

$$\beta = \frac{632.8 \cdot 10^{-9} \cdot 1.5}{1.0 \cdot 10^{-3}} = 0.95 mm$$

Demak, interferensiya chiziqlari orasidagi masofa taxminan 0.95mm ga teng.

Natijalar. Tajriba davomida He–Ne lazer yordamida Lloyd interferensiyasi muvaffaqiyatli kuzatildi. Ekranida yorug‘ va qorong‘i interferensiya chiziqlari hosil bo‘ldi. Olingan natijalar nazariy formulalar bilan mos keldi hamda yorug‘likning to‘lqin tabiatini tasdiqladi.

Xulosa. Mazkur ishda He–Ne lazer yordamida Lloydning akslantirish tajribasini o‘qitish metodikasi ishlab chiqildi va laboratoriya sharoitida sinovdan o‘tkazildi. Tajriba davomida haqiqiy va virtual yorug‘lik manbalari hosil qilgan interferensiya hodisasi kuzatildi hamda ekranida yorug‘ va qorong‘i interferensiya chiziqlari hosil bo‘ldi. Interferensiya chiziqlari oralig‘i nazariy formulalar asosida hisoblanib, tajribada olingan natijalar bilan taqqoslandi. Hisoblash va tajriba natijalari o‘zaro mos kelishi yorug‘likning to‘lqin tabiatini hamda interferensiya qonuniyatlarining to‘g‘riligini tasdiqladi. Tajriba natijalari He–Ne lazerining monoxromatikligi va yuqori

kogerentligini interferensiya hodisasini aniq kuzatishda muhim omil ekanligini ko‘rsatdi. Lloydning akslantirish tajribasi optik yo‘l farqi, faza siljishi va interferensiya chiziqlarining hosil bo‘lish mexanizmini amaliy jihatdan tushuntirish imkonini beradi. Shu sababli mazkur tajriba talabalar va o‘quvchilarda to‘lqin optikasi bo‘yicha nazariy bilimlarni mustahkamlash hamda laboratoriya ko‘nikmalarini rivojlantirishda samarali o‘qitish vositasi hisoblanadi. Taklif etilgan o‘qitish metodikasi oliy ta‘lim muassasalarining fizika laboratoriyalarida, optika fanini o‘qitishda hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etiladigan amaliy mashg‘ulotlarda qo‘llanilishi mumkin. Olingan natijalar interferensiya hodisasini o‘qitish samaradorligini oshirish va laboratoriya mashg‘ulotlarini takomillashtirish uchun ilmiy-uslubiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar

1. Halliday D., Resnick R., Walker J. Fundamentals of Physics. 10-nashr. – Wiley, 2014.
2. Born M., Wolf E. “Principles of Optics”. – Cambridge University Press, 1999.
3. Pedrotti F.L., Pedrotti L.S., Pedrotti L.M. “Introduction to Optics”. – Pearson Education, 2007.
4. Hecht E. “Optics”. 5-nashr. – Pearson, 2016.
5. Yariv A. “Quantum Electronics”. – John Wiley & Sons, 1989.
6. Landsberg S.S. Optika. -Toshkent: «Oqtuvchi», 1983.
7. Akimova J., Turekeev X., Qalxorazov Q., Kazaxbaev M. Fizika kursi bo‘yicha laboratoriyaliq jumislar. -Nokis: «Ilmpaz», 2024.
8. Silfvast W.T. “Laser Fundamentals”. – Cambridge University Press, 2004.
9. Acevedo B.X. “Optika va lazer fizikasi”. – Toshkent: 2020.
10. Bozorova S., Kamolov N., Fizika(Optika .Atom va yadro fizikasi).-Toshkent:Ozbekiston Respublikasi Oliy va orta talim vazirligi nashri, 2007.

**OLIIY TA'LIMDA «ELEKTR VA MAGNETIZM» BO'LIMINI O'QITISHDA INTERFAOL
TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH AFZALLIKLARI**

Bazarbaev Zinatdin Bisenbay og'li – doktorant

zinatdinbazarbaev8515@gmail.com

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

**ПРЕИМУЩЕСТВА ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИНТЕРАКТИВНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПРЕПОДАВАНИИ
РАЗДЕЛА "ЭЛЕКТР И МАГНЕТИЗМ" В ВЫСШЕМ ОБРАЗОВАНИИ**

Базарбаев Зинатдин Бисенбаевич – докторант

Нукусский государственный педагогический институт имени Ажинияза

**ADVANTAGES OF USING INTERACTIVE TECHNOLOGIES IN TEACHING THE «ELECTRICITY AND
MAGNETISM» SECTION IN HIGHER EDUCATION**

Bazarbaev Zinatdin Bisenbaevich – doctoral student

Nukus State Pedagogical Institute named after Ajiniyaz

Tayanch so'zlar: interfaol texnologiya, «Flipped classroom», axborot, ta'lim, talabalar, ta'lim-tarbiya jarayoni, bilim, ko'nikma va malaka, o'quv maqsadlari, noan'anaviy ta'lim, an'anaviy ta'lim.

Rezyume. Hozirgi zamonaviy ta'limda interfaol texnologiyalar asosida fizika mashg'ulotlarini tashkillashtirish orqali talabalarning fizikaga oid bilimlarini oshirishga erishish bugungi kundagi ta'limning eng dolzarb jixatlaridan biri bolib qolmoqda. Bugungi zamonaviy ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish uchun yangi texnologiyalar ishlab chiqilib amaliyotga joriy etish jarayonlari davom etmoqda, shunday samaradorligi yuqori bolgan metodlarning biri bu «Flipped classroom» metodi hisoblanadi. Maqolada oliy ta'limda «Elektr va magnetizm» bo'limini o'qitishda «Flipped classroom» metodidan foydalanishning afzalliklari haqida ma'lumotlar berilgan. Shuningdek, «Kulon qonuni» mavzusini o'qitishda interfaol texnologiyalarning samaradorligi bo'yicha fikrlar bayon etilgan.

Ключевые слова: интерактивные технологии, «Flipped classroom», информация, образование, студенты, учебно-воспитательный процесс, знания, умения и навыки, учебные цели, нетрадиционное образование, традиционное образование.

Резюме. В современном образовании достижение повышения знаний студентов по физике путем организации занятий по физике на основе интерактивных технологий остается одним из наиболее актуальных аспектов современного образования. Для повышения эффективности современного образовательного процесса продолжают развиваться процессы разработки и внедрения в практику новых технологий, одним из таких высокоэффективных методов является метод «Flipped classroom». В статье представлена информация о преимуществах использования метода «Flipped classroom» при преподавании раздела «Электричество и магнетизм» в высшем образовании. Также изложены мнения об эффективности интерактивных технологий в обучении теме «Закон Кулона».

Key words: interactive technology, «Flipped classroom», information, education, students, educational process, knowledge, skills and abilities, educational goals, non-traditional education, traditional education.

Summary. In modern education, increasing students' knowledge of physics through the organization of physics lessons based on interactive technologies remains one of the most pressing aspects of education today. To increase the efficiency of today's modern educational process, the processes of developing and implementing new technologies continue; one such highly effective method is the «Flipped Classroom» method. The article provides information on the advantages of using the «Flipped classroom» method in teaching the «Electricity and Magnetism» section in higher education. Opinions are also expressed regarding the effectiveness of interactive technologies in teaching the topic «Coulomb's Law.»

Kirish. Mamlakatimizda zamon talablari asosida ta'lim jarayonini tashkil etish, jumladan, oliy ta'lim tizimida interfaol texnologiyalarini joriy etish orqali yuqori malakali kadrlar tayyorlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida «Uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga muvofiq yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish» muhim ustuvor vazifa sifatida belgilangan [1:39].

Chunonchi, murakkab texnika bilan ishlay oladigan, ishlab chiqarish jarayonining moxiatini to'laqonli anglash imkoniyatiga ega, favqulotda ro'y beruvchi vaziyatlarda ham yuzaga kelgan muammolarni ijobiy hal eta oluvchi malakali mutaxassisni tayyorlashga bo'lgan ijtimoiy ehtiyoj ta'lim jarayonini texnologik yondoshuv, zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etishni taqozo etmoqda.

Asosiy qism. Hozirgi kungacha oliy ta'limda «Elektr va magnetizm» bo'limini o'qitish bo'yicha M.Djo'rayev, N.Sadriddinov, A.Rahimov, A.Mamadaliyev singari olimlar ish olib borgan.

Ko'plab kuzatishlar, pedagogik izlanishlar va tadqiqotlarga ko'ra o'qituvchi dars o'tish mobaynida barcha talaba bilan ish olib borganligi sababli, u odatda o'rtacha bilimga ega bolgan o'quvchiga qarab ish yuritadi. Bunday holatda darsning samaradorligi pasayishi kuzatilgan. Shunday ekan hozirgi darslarni interfaol noan'anaviy va zamonaviy interfaol texnologiyalardan foydalanib o'tish zamon talabi bolib hisoblanadi. Darslarni bunday tashkil etishda bir qator muommolar hozirgi vaqtgacha saqlanib qolmoqda [2:6].

Oliy ta'limda fizikaning «Elektr va magnetizm» bo'limini o'qitishda ma'ruza paytida haligacha an'anaviy usulda o'qitish davom etmoqda. Bu esa o'z navbatida talabalarning ko'rgazmali tajribalarni amaliyotda qo'llash, interfaol axborot kommunikatsion texnologiyalardan

natijali foydalanish, interfaol foydalanish, mustaqil ta'lim va kichik guruhlarda ishlash bo'yicha haligacha muommolarning mavjudligiga sabab bolmoqda.

Ta'lim olish jarayonida esda saqlash faoliyati bilan bog'lanishi psixologlarning takidlashicha quydagicha shaklda boladi. Talaba o'qisa 10%, eshitsa 20%, ko'rsa 30%, ko'rsa va eshitsa 50%, aytib bersa 80%, aytib bersa va amalda ko'rsatib bersa 90% ni eslab qolar ekan. Shuning uchun ham ta'lim jarayonida interfaol texnologiyalardan unumli foydalanish hardoim o'z dolzarbligini saqlab kelmoqda [3:12].


Metodologiya. Bugungi zamonaviy ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish uchun yangi metodlar ishlab chiqilib amaliyotga joriy etish jarayonlari davom etmoqda, shunday samaradorligi yuqori bolgan metodlarning biri bu «Flipped classroom» metodi hisoblanadi.

Yaqinda «Flipped Classroom» deb nomlangan va O'zbek tiliga «Teskari sinf» deb tarjima qilingan ta'lim modeli paydo bo'ldi. Flipped Classroom da teskari atamasi uy vazifasi va sinf mashg'ulotlarining o'zaro almashinuvini aniqlash uchun ishlatiladi [4:6]. «Teskari sinf» atamasi birinchi marta J. Uesli Beyker tomonidan o'rganish va o'qitish bo'yicha xalqaro konferensiyada paydo bo'lgan va u 2000-yilda o'zining «The classroom flip, using web course management tools to become the guide by the side» maqolasida qo'llagan. Ushbu tadqiqotni amalga oshirish uchun Lage va uning do'stlari «Teskari sinf xonasi» deb nomlangan shunga o'xshash atama yordamida tadqiqot o'tkazdilar [5:2].

«Flipped classroom»da talabalar mavzu bilan uyda tanishadilar, keyin esa auditoriyada uni o'rganishni mashq qiladilar. Bu auditoriyada yangi mavzuni o'qitish, so'ngra talabalarga uy vazifalari va loyihalarini uyda mustaqil bajarish uchun topshirish amaliyotidan farqli o'laroq, ushbu aralash ta'lim strategiyasida yuzma-yuz ishtirok etish odatda texnologiya orqali individual o'rganish bilan birlashtirilgan. Odatdagi Flipped Classroom vaziyatida talabalar uy vazifasini bajarish uchun auditoriyaga kelishdan oldin savollar va hech bo'lmaganda ba'zi ma'lumotlar bilan oldindan yozib olingan videolarni uyda ko'rishlari kerak boladi [6:2]. 1-rasmda metodning qo'llanilishi va o'quv materiallarining ta'lim jarayoniga bog'lanishi bo'yicha yonaltirgan korsatma keltirib otigan.

1-rasm. Yo'naltirilgan ko'rsatma.

«Flipped classroom» metodidan foydalanib «Elektr va Magnetizm» bo'limining Kulon qonuni mavzusi va Amper kuchi mavzularini o'qitish bo'yicha namuna keltiramiz.



Teskari sinf jarayoniga o'zgartirishning birinchi va ehtimol eng muhim bosqichi dars va ma'ruza materialini

yoziq olishdir. Dars vaqtidan oldin o'qituvchi darsning mazmuni va o'quv jarayonini rejalashtirishni boshlaydi. Shu tariqa o'qituvchi nafaqat dars materialini tayyorlaydi, balki o'zi va talabalarni jarayonga tayyorlaydi. Darsga tayyorgarlik ko'rgandan so'ng, o'qituvchi talabalar uchun videoni (bir necha daqiqa) yozib oladi va uni dars vaqtidan bir necha kun oldin talabalar uchun yuklaydi, bu orqali o'qituvchi texnologiyani o'rganishga kiritadi.

Oliy o'quv yurtlarida fizikaning «Elektr va Magnetizm» bo'limining ma'ruza darslarini o'qitishga Flipped classroom metodidan foydalanib o'qitish metodikasini quyidagicha takomillashtirdik. (1-jadval)

«Flipped classroom» ya'ni teskari sinf metodining tadbiq etilish jarayoni 1-jadval.

Amalga oshirilgan ishlar	Foydalaniladigan vositalar	Ma'lumotlarning elektron korinishi	Ma'lumotlarni yuklab olish va foydalanish
Mavzu: Kulon qonuni Ma'ruzani yuklab oling va oqib chiqing	Kompyuter, telefon, flanshet, smart doska va boshqa qurilmalar		
Videodarsni ko'rib chiqing	Kompyuter, telefon, flanshet, smart doska va boshqa qurilmalar		
Yangi mavzu taqdimoti bilan tanishish	Kompyuter, telefon, flanshet, smart doska va boshqa qurilmalar		
Kulon qonuni tajribasini amaliyotda ishlab koring	Kompyuter, telefon, flanshet, smart doska va boshqa qurilmalar		
Foydalanish mumkin bolgan asosiy va qo'shimcha adabiyotlar ro'yxati	Kitob, elektron manbaalar, kompyuter, telefon, flanshet, smart doska va boshqa qurilmalar	 	
Bilimingizni sinab ko'rish uchun mantiyiy video savollar	Kompyuter, telefon, flanshet, smart doska va boshqa qurilmalar	https://t.me/physics_NS_PInstitute 	
Test savollari	Kitob, elektron manbaalar, kompyuter, telefon, flanshet, smart doska va boshqa qurilmalar	https://t.me/physics_NS_PInstitute 	

Tadqiqotimiz jarayonida «Magnetizm» bo‘limi bo‘yicha «Flipped classroom» metodiga asoslangan mashg‘ulotlarga namunalar ishlab chiqildi.

Biz tadqiqot olib borayotgan Nukus DPI «Fizika» kafedrasida «Elektr va magnetizm» bo‘limi alohida fan sifatida joriy qilingan va ma‘ruza mashg‘ulotlariga 46 soat ajratilgan. Bu bo‘lim 3-semestrda o‘qitiladi.

Muhokama. Hozirgi kunda ta‘lim jarayonida eng kop etibor qaratilib kelinayotgan jihatlarining biri mustaqil ta‘lim ekanligi hech kimga sir emas. Buning tastig‘i sifatida auditoriya soatlari bilan mustaqil ta‘lim soatlari teng qilib qoyilgani yani butun ma‘ruza, seminar, amaliy va laboratoriya soatlarini yig‘indisi mustaqil ta‘limi bilan teng.

Shunga qaramay hozirgi kungacha ta‘lim jarayonida mustaqil ta‘limni tashkil etishda muommolar kuzatilmoqda. Biz taklif etayotgan metod yuqorida ta‘kidlaganimizdek bir necha sohalarda o‘zi samaradorligini ko‘rsatti. «Flipped classroom» metodi talabalarda mustaqil ishlash ko‘nikma va malakalarini rivojlantiradi.

Xulosa. «Elektr va magnetizm» bo‘limining «Kulon qonuni» mavzusini o‘qitishda «Flipped classroom» metodidan foydalanganimizda tadqiqot natijalaridan ma‘lum bo‘ldiki, metoddan foydalansak talabarning axborotlar bilan ishlash, zamonaviy axborot texnologiyalaridan yoydalanish, mustaqil ta‘lim olish va o‘z bilimlarini amaliyotda foydalanish ko‘nikmalari shakillantirish afzalliklariga ega.

Adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida»gi Farmoni.
2. Djo‘rayev M. Fizikani o‘qitish metodikasi (umumiy masalalari). -Toshkent: 2015.
3. Tajiboyeva X.H., Usmanova Sh.P. Fizika va astronomiya o‘qitish nazariyasi va metodikasi. -Toshkent: 2015.
4. Ash K. Educators view “flipped” model with a more critical eye. Education Week, 32(2), 2012.
5. Yildirim F.S. Flipped classroom model in education. Research Highlights in Education and Science. – Turkey: 2016.
6. Ms. Mukta Tiwari, Dr. Sarita Dalal. Flipped Classroom Model: An Innovative Practices in Education. International Journal for Multidisciplinary Research (IJFMR). E-ISSN: 2582-2160. - India: 2024.

UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA BIOLOGIYADAN AMALIY MASHG'ULOTLAR
SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA TOPSHIRIQLAR DAFTARI (WORKBOOK)DAN
FOYDALANISH TEXNOLOGIYASI

Eshmuratov Raxat Artıqbaevich – *biologiya fanlari nomzodi, dotsent*

R.Eshmuratov@mail.ru

Tajimuratova Shahnoza Azat qizi – *tayanch doktorant*

shahnozatajimuratova@gmail.com

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

ТЕХНОЛОГИЯ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ТЕТРАДИ ЗАДАНИЙ (WORKBOOK)
ДЛЯ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ПРАКТИЧЕСКИХ ЗАНЯТИЙ
ПО БИОЛОГИИ В ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ШКОЛАХ

Ешмуратов Рахат Артыкбаевич – *кандидат биологических наук, доцент*

Тажимуратова Шахноза Азатовна – *базовый докторант*

Нукусский государственный педагогический институт имени Ажинияза

TECHNOLOGY FOR USING A WORKBOOK TO INCREASE THE EFFECTIVENESS
OF PRACTICAL BIOLOGY CLASSES IN GENERAL EDUCATION SCHOOLS

Eshmuratov Raxat Artıqbaevich – *Candidate of Biological Sciences, Associate Professor*

Tajimuratova Shakhnoza Azatovna – *doctoral student*

Nukus State Pedagogical Institute named after Ajiniyaz

Tayanch soʻzlar: topshiriqlar daftari, workbook, amaliy mashgʻulotlar, biologiya taʼlimi, samaradorlik, mustaqil taʼlim, kompetensiyaviy yondashuv, raqamli texnologiyalar.

Rezyume. Maqolada umumtaʼlim maktablarida biologiyadan amaliy mashgʻulotlar samaradorligini oshirishda topshiriqlar daftari (workbook) foydalanishning pedagogik-texnologik jihatlari yoritilgan. Maqolada workbookning amaliy mashgʻulotlardagi oʻrni, uning tuzilishi, didaktik imkoniyatlari, loyihalash va qoʻllash texnologiyasi, shuningdek, raqamli texnologiyalar bilan integratsiyalashuvi tahlil qilingan. Xalqaro va mahalliy tadqiqotlar asosida topshiriqlar daftari foydalanish oʻquvchilarning kognitiv, affektiv va psixomotor kompetensiyalariga ijobiy taʼsir koʻrsatishi ilmiy asoslangan. Maqola biologiya oʻqituvchilari, metodistlar va taʼlim texnologlari uchun amaliy ahamiyatga ega.

Ключевые слова: тетрадь заданий, рабочая книга, практические занятия, биологическое образование, эффективность, самостоятельное обучение, компетентностный подход, цифровые технологии.

Резюме. В статье освещены педагогико-технологические аспекты использования тетради заданий (workbook) для повышения эффективности практических занятий по биологии в общеобразовательных школах. В статье анализируется роль workbook в практических занятиях, его структура, дидактические возможности, технология проектирования и применения, а также интеграция с цифровыми технологиями. На основе международных и отечественных исследований научно обосновано, что использование тетрадей заданий положительно влияет на когнитивные, аффективные и психомоторные компетенции учащихся. Статья имеет практическое значение для учителей биологии, методистов и образовательных технологов.

Key words: assignment notebook, workbook, practical exercises, biology education, effectiveness, independent study, competency-based approach, digital technologies.

Summary. The article highlights the pedagogical and technological aspects of using a workbook to increase the effectiveness of practical biology classes in general education schools. The article analyzes the role of the workbook in practical training, its structure, didactic capabilities, design and application technology, as well as its integration with digital technologies. Based on international and domestic research, it has been scientifically substantiated that the use of assignment notebooks has a positive impact on students' cognitive, affective, and psychomotor competencies. The article is of practical importance for biology teachers, methodologists, and educational technologists.

Kirish. Umumtaʼlim maktablarida biologiya fanini oʻqitishning dolzarb muammolaridan biri shundaki, oʻquvchilarning amaliy koʻnikmalari koʻpincha nazariy bilimlaridan sezilarli darajada orqada qoladi, chunki anʼanaviy darslarda laboratoriya va amaliy mashgʻulotlarga yetarli vaqt ajratilmaydi, shuningdek, mavjud uslubiy qoʻllanmalar koʻpincha oʻquvchilarning mustaqil ishlash faolligini ragʻbatlantirmaydi [5:82-84]. Xalqaro taqqoslash tadqiqotlari (masalan, TIMSS 2019 va PISA 2022) natijalariga koʻra, respublikamiz oʻquvchilarining qariyb 65 foizi tabiiy fanlar boʻyicha amaliy topshiriqlarni bajarishda yoʻriqnomalarni tushinishda jiddiy qiynaladi, ammo bu koʻrsatkichni maxsus ishlab chiqilgan didaktik vositalar yordamida sezilarli darajada yaxshilash mumkinligi bir qator tadqiqotlarda tasdiqlangan. Shu nuqtai nazardan,

topshiriqlar daftari (workbook) amaliy mashgʻulotlarda oʻquvchilarning mustaqil faolligini oshiruvchi, oʻqituvchining tayyorgarlik yuklamasini kamaytiruvchi va bilimlarni mustahkamlashning samarali vositasi sifatida tobora koʻproq eʼtirof etilmoqda [8, 9:18-20]. Biroq, workbookdan foydalanishning bosqichma-bosqich texnologiyasi, uning oʻquvchilarning turli kompetensiyalariga kompleks taʼsiri va turli xil maktab sharoitlarida qanday natijalar berishi hali yetarlicha oʻrganilmagan. Shu sababli, ushbu tadqiqotning maqsadi umumtaʼlim maktablarining 10-11-sinflarida biologiya fanidan amaliy mashgʻulotlar samaradorligini oshirishga qaratilgan topshiriqlar daftari foydalanish texnologiyasini ishlab chiqish va uning oʻquvchilarning bilim oʻzlashtirish darajasiga, amaliy koʻnikmalariga, mashgʻulot vaqtining samaradorligiga

hamda fanga bo‘lgan qiziqishiga ta’sirini eksperimental tekshirishdan iborat bo‘ldi.

Metodologiya. Tadqiqot ikki guruhli eksperimental dizayn asosida tashkil etildi, chunki bu usul mustaqil o‘zgaruvchining (topshiriqlar daftaridan foydalanish) ta’sirini nazorat guruhi bilan solishtirish imkonini beradi. Tadqiqot 2024-2025-o‘quv yilida respublikaning turli hududlarida joylashgan to‘rtta umumta’lim maktabida o‘tkazildi, va unda jami 168 nafar 10-sinf o‘quvchisi ishtirok etdi. Maktablar tanlashda tasodifiy klasterli tanlov usuli qo‘llanildi, hamda har bir maktabda bitta tajriba va bitta nazorat guruhi shakllantirildi. Natijada, 84 nafar o‘quvchi tajriba guruhiga va 84 nafar o‘quvchi nazorat guruhiga ajratildi. Guruhlarning boshlang‘ich bilim darajasi oldindan test orqali tekshirilgan bo‘lib, ular o‘rtasida statistik jihatdan ahamiyatli farq aniqlanmadi ($p>0,05$).

Tajriba guruhi uchun maxsus “Biologiya 10-sinf: amaliy mashg‘ulotlar uchun topshiriqlar daftar” (workbook) ishlab chiqildi. Ushbu daftar quyidagi tarkibiy qismlardan iborat edi: har bir amaliy mashg‘ulotning aniq maqsadi, kerakli jihozlar va xavfsizlik qoidalarini o‘z ichiga olgan yo‘riqnoma bloki; 4-6 bosqichli batafsil topshiriqlar; ma’lumotlarni qayd etish uchun jadvallar va diagrammalar shablonlari; natijalarni tahlil qilishga qaratilgan ochiq va yopiq test savollari; o‘z-o‘zini baholash mezonlari; hamda qo‘shimcha onlayn resurslarga havola qiluvchi QR kodlar. Workbook un to‘qqiz amaliy mashg‘ulotni o‘z ichiga olgan: “Hayotning tuzilish darajalarini modellashirish”, “Suvning tirik organizmlar uchun ahamiyati”, “Biologik infografika tuzish”, “DNK va RNK tuzilishiga doir masalalar yechish”, “Prokariot va eukariot hujayralar tuzilishini qiyosiy o‘rganish”, “Energiya almashinuviga doir masalalar yechish”, “Oqsil biosintez jarayonini modellashirish”, “Mitoz va meyoz fazalarini taqqoslash”, “O‘simliklar (yo‘sin, qirg‘uloq, qirg‘o‘g‘im, urug‘li o‘simlik) hayot siklida jinssiz va jinsiy bo‘g‘inlarning gallanishini modellashirish”, “To‘liq va chala dominantlik bo‘yicha masalalar yechish”, “Kodominantlik va pleyotropiyaga doir masalalar yechish”, “Jins genetikasiga doir masalalar yechish”, “Modifikatsion o‘zgaruvchanlikni o‘rganish”, “Modifikatsion va mutatsion o‘zgaruvchanliklarni qiyosiy o‘rganish”, “Restriksion saytlarni aniqlash va meva sharbatini ishlab chiqarishda pektinazadan foydalanishni o‘rganish”, “Ekosistemaning tarkibiy qismlarini aniqlash”, “Oziq zanjiri va oziq to‘riga oid sxemalar tuzish va masalalar yechish”, “Populyatsiyalarning demografik ko‘rsatkichlarini Hardi-Vaynberg qonuni asosida o‘rganish”, hamda “Organizmlarning yashash muhitiga moslanishini o‘rganish”. Nazorat guruhida esa aynan shu mavzular an’anaviy usulda o‘qitildi, ya’ni o‘qituvchi og‘zaki yo‘riqnoma berdi, o‘quvchilar oddiy laboratoriya jurnali va darslikdan foydalandi, va hech qanday tayyor shablon yoki bosqichli topshiriqlar berilmadi. Amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etish metodikasi bo‘yicha mavjud qo‘llanmalarda asosan an’anaviy yondashuv tavsiflanadi [4:114-120], biroq workbook asosidagi bosqichli texnologiya ularga nisbatan ancha batafsil va o‘quvchi markazlashgan bo‘lib, qisman yoritilgan [1].

Tajriba guruhida har bir amaliy mashg‘ulot besh bosqichli texnologiya asosida tashkil qilindi: birinchidan (tayyorgarlik bosqichi), uy vazifasi sifatida o‘quvchilar workbookning yo‘riqnoma bloki bilan tanishdilar; ikkinchidan (bajarish bosqichi), amaliy ish aynan

workbookdagi bosqichma-bosqich topshiriqlar asosida bajarildi; uchinchidan (tahlil bosqichi), workbookdagi tahliliy savollar guruhlarida muhokama qilindi; to‘rtinchidan (nazorat bosqichi), workbookning test topshiriqlari yakka tartibda bajarildi; beshinchidan (baholash bosqichi), o‘quvchilar o‘z-o‘zini baholash mezonlari asosida o‘z ishiga ball qo‘ydi. Nazorat guruhida mashg‘ulotlar odatdagi tartibda – og‘zaki yo‘riqnoma, amaliy ish, umumiy sinfiy muhokama va o‘qituvchining og‘zaki nazorati shaklida o‘tkazildi.

O‘lchov vositalari sifatida to‘rt xil asbob qo‘llanildi. Birinchidan, bilim o‘zlashtirish testi – har bir mavzu bo‘yicha 20 ta savoldan iborat (10 ta nazariy va 10 ta amaliy topshiriq) bo‘lib, testning ishonchliligi Kuder-Richardson usuli bo‘yicha $\alpha=0,89$ ni tashkil etdi. Ikkinchidan, amaliy ko‘nikmalarni kuzatuv varaqasi – 5 balli shkalada baholanuvchi 8 ta mezonni o‘z ichiga olgan (asbobni to‘g‘ri ishlatish, kuzatishni qayd etish, xulosa chiqarish va boshqalar), va bu varaqa har bir o‘quvchi uchun mustaqil kuzatuvchi tomonidan to‘ldirildi. Uchinchidan, mashg‘ulot vaqti – har bir amaliy mashg‘ulotning boshlanishidan yakuniy nazorat topshirig‘igacha bo‘lgan daqiqalar raqamli sekundomer yordamida qayd etildi. To‘rtinchidan, o‘quvchilar so‘rovnomasi – fanga qiziqish, mashg‘ulotning qulayligi va workbookning tushunarligiga oid savollarni o‘z ichiga olgan.

Statistik tahlil SPSS 26.0 dasturida amalga oshirildi. Guruhlararo farqlar mustaqil tanlamalar t-testi bilan, oldin va keyingi o‘zgarishlar esa juft tanlamalar t-testi bilan tekshirildi. Statistik ahamiyatlilik chegarasi $p<0,05$ qilib belgilandi.

Natijalar. Amaliy mashg‘ulotlar tsikli tugagandan so‘ng o‘tkazilgan yakuniy test natijalari tajriba guruhi foydasiga aniq farqni ko‘rsatdi. Quyidagi 1-jadvalda ikkala guruhning boshlang‘ich va yakuniy test ballari solishtirilgan.

1-jadval. Tajriba va nazorat guruhlarining bilim o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari

Ko‘rsatkich	Tajriba guruhi	Nazorat guruhi	Statistik farq
Boshlang‘ich test balli (maks. 100)	59,2	58,7	$p>0,05$ (farq yo‘q)
Yakuniy test balli (maks. 100)	87,4	74,8	$p<0,001$
O‘sinh (ball)	+28,2	+16,1	$p<0,001$
O‘sinh (foizda)	47,6%	27,4%	–

1-jadvaldan ko‘rinib turibdiki, boshlang‘ich testda guruhlar o‘rtasida farq bo‘lmagan ($p>0,05$), ammo tadqiqot yakunida tajriba guruhi nazorat guruhidan o‘rtacha 12,6 ball yuqori natijaga erishgan ($p<0,001$). Ayniqsa, testning amaliy topshiriqlarga oid qismida farq yanada katta bo‘lgan: tajriba guruhida amaliy qism bo‘yicha o‘rtacha ball 89,1 ni tashkil etgan bo‘lsa, nazorat guruhida bu ko‘rsatkich 69,5 ga teng bo‘lgan ($p<0,001$).

Amaliy ko‘nikmalarni kuzatish natijalari shuni ko‘rsatdiki, tajriba guruhi o‘quvchilari nazorat guruhidagilarga nisbatan barcha mezonlar bo‘yicha yuqori natijalarga erishgan. Xususan, tajriba guruhining umumiy o‘rtacha balli (maksimal 40 balldan) 35,6 ni tashkil etgan bo‘lsa, nazorat guruhida bu ko‘rsatkich 27,6 ga teng bo‘lgan ($p<0,001$). Eng katta farq “kuzatish natijalarini

tizimli qayd etish” (tajriba guruhida 4,7 ball, nazorat guruhida 3,1 ball) va “asoslangan xulosa chiqarish” (4,4 ballga nisbatan 2,9 ball) mezonlarida kuzatilgan.

Shuningdek amliy mashg‘ulot davomida tajriba guruhi va nazorat guruhi dars davomida Mashg‘ulot vaqtining samaradorligi bo‘yicha olingan natijalar 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval. Amaliy mashg‘ulotlarning o‘rtacha davomiyligi (daqikalarda)

Jarayon bosqichi	Tajriba guruhi	Nazorat guruhi	Farq (daqika)	Vaqt tejallishi
Yo‘riqnoma va tashkiliy qism	4,3	13,8	9,5 daqiqa tejalgan	69% kam vaqt
Amaliy ishni bajarish	22,6	27,5	4,9 daqiqa tejalgan	18% kam vaqt
Nazorat va baholash	6,2	8,5	2,3 daqiqa tejalgan	27% kam vaqt
Umumiy vaqt	21,5	39,0	17,5 daqiqa tejalgan	30% kam vaqt

2-jadvaldan ko‘rinadiki, tajriba guruhida har bir amaliy mashg‘ulot o‘rtacha 21,5 daqiqa davom etgan bo‘lsa, nazorat guruhida bu ko‘rsatkich 39,0 daqiqani tashkil etgan, ya‘ni har bir darsda o‘rtacha 17,5 daqiqa (taxminan 30 foiz) vaqt tejalgan. Tajriba guruhida tejalgan vaqtdan unumli foydalanildi. O‘quvchilarning olgan nazariy va amaliy bilimlarin qayta mustahkamlashga erishish maqsadida qo‘shimcha topshiriqlar uchun vaqt ajratildi. Bu vaqtda o‘quvchilarga amaliy mashg‘ulot uchun multimedialar, test savollar, mobiltopshiriqlar berildi. Bu esa o‘quvchilarning dars davomida olgan bilim, ko‘nikma va malakalrin yanada mustahkamlaydi. Eng katta vaqt tejamkorligi yo‘riqnoma bosqichida sodir bo‘lgan, chunki workbookda yozma yo‘riqnoma mavjudligi o‘qituvchining uzun og‘zaki tushuntirishlariga bo‘lgan ehtiyojni keskin kamaytirgan.

O‘quvchilarning subyektiv qoniqish darajasini o‘lchash natijalariga ko‘ra, tajriba guruhidagi o‘quvchilarning 89 foizi amaliy mashg‘ulotni “qiziqarli” deb hisoblagan bo‘lsa, nazorat guruhida bu ko‘rsatkich 51 foizni tashkil etgan. Shuningdek, tajriba guruhining 86 foizi kelgusida ham workbookdan foydalanish istagini bildirgan, va 80 foizi biologiya faniga qiziqishi oshganligini qayd etgan. Nazorat guruhida bu ko‘rsatkichlar mos ravishda 55 foiz va 43 foizni tashkil etgan. Bundan tashqari, tajriba guruhida ishlagan haftasiga o‘rtacha 2 soatdan 35 daqiqa o‘qituvchilar workbookdan foydalanish tufayli vaqt tejaganligi ma‘lum qildilar.

Muhokama. Ushbu tadqiqot natijalari topshiriqlar daftari (workbook) asosida tashkil etilgan amaliy mashg‘ulotlar an‘anaviy usulga nisbatan bir qator muhim afzalliklarga ega ekanligini aniq ko‘rsatdi. Birinchidan, bilim o‘zlashtirish darajasining 47,6 foizga oshishi (nazorat guruhida 27,4 foiz) workbookning kognitiv samaradorligini tasdiqlaydi, va bu natija oldingi tadqiqotlar (masalan, Putri va Ahda, 2020) natijalaridan ham yuqori [7:215-217]. Ayniqsa, amaliy topshiriqlar bo‘yicha farq (tajriba guruhida 89,1 ball, nazorat guruhida 69,5 ball) workbook amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishda ayniqsa kuchli vosita ekanligini ko‘rsatadi, chunki undagi bosqichli

yo‘riqnomalar va tayyor shablonlar o‘quvchilarni kuzatish, qayd etish va tahlil qilishga o‘rgatadi. Xuddi shunday, Apeadido va boshq. (2024) ham amaliy mashg‘ulotlar o‘quvchilarning ilmiy jarayon ko‘nikmalari va biologiyadan akademik natijalarini sezilarli yaxshilashini qayd etgan [2:34-41].

Ikkinchidan, amaliy ko‘nikmalar kuzatuvidagi natijalar (tajriba guruhida 35,6 ball, nazorat guruhida 27,6 ball) workbookning jarayonga yo‘naltirilgan ta‘limdagi o‘rnini ochib beradi. “Kuzatish natijalarini tizimli qayd etish” va “asoslangan xulosa chiqarish” mezonlaridagi katta farqlar bevosita workbookdagi jadvallar, diagrammalar va tahliliy savollar blokining samarali ekanligi bilan izohlanadi. Norhaedah va boshqalar (2020) ham shunday natijalarga erishgan bo‘lib, ularning tadqiqotida QR kodli ishchi daftarlar yordamida ilmiy jarayon ko‘nikmalari 85,6 foizga yetgan. Bizning tadqiqotimizda asosiy ta‘sirni aynan qog‘oz shablonlar va bosqichli yo‘riqnomalar bergan, bu esa workbookning didaktik kuchi uning yaxshi tuzilgan yozma topshiriqlarida ekanligini anglatadi [6: 6-12]. Bonina va boshq. (2022) ham ishchi daftarlarning biologik ta‘lim tizimidagi didaktik va metodologik ahamiyatini alohida ta‘kidlagan bo‘lsa [8], Pashkov va boshq. (2018) esa ularni o‘quvchilarning mustaqil ish faolligini oshiruvchi asosiy vosita sifatida baholaydi [9:18-20].

Uchinchidan, mashg‘ulot vaqtining 17,5 daqiqaga (30 foizga) qisqarishi amaliy jihatdan juda muhim, chunki tejalgan vaqtni o‘qituvchi qo‘shimcha tushuntirishlar yoki individual yordamga sarflashi mumkin. Eng katta vaqt tejamkorligi yo‘riqnoma bosqichida kuzatilgan (69% tejamkorlik), bu esa workbookning o‘qituvchining takroriy og‘zaki ko‘rsatmalariga bo‘lgan ehtiyojni keskin kamaytirganligini ko‘rsatadi. Bundan tashqari, o‘qituvchilarning tayyorgarlik vaqtining haftasiga 145 daqiqaga qisqarishi keng miqyosda joriy etishda muhim iqtisodiy ahamiyatga ega.

Tadqiqotning ba‘zi cheklovlarini tan olish lozim. Birinchidan, tadqiqot faqat bir o‘quv yili davomida va faqat 10-sinf biologiyasi misolida o‘tkazilgan, shuning uchun natijalarni boshqa sinflar va fanlarga umumlashtirishda ehtiyot bo‘lish kerak. Ikkinchidan, o‘quvchilarning workbookga bo‘lgan ijobiy munosabatida yangilik effekti (Hawthorne effekti) qisman rol o‘ynagan bo‘lishi mumkin. Ushbu ta‘sirni minimallashtirish uchun kelgusida uzoq muddatli kuzatuvlar o‘tkazish maqsadga muvofiq. Uchinchidan, workbooklarni ishlab chiqish dastlabki bosqichda vaqt va malaka talab qiladi, ammo bu bir martalik xarajat bo‘lib, ishlab chiqilgan daftar bir necha yillar davomida qayta foydalanish mumkin.

Kelgusida tadqiqotlarni turli sinflar va turli fanlar bo‘yicha kengaytirish, qog‘oz workbooklar bilan raqamli (elektron) workbooklarning samaradorligini taqqoslash, hamda workbook dizaynining optimal tuzilmasini aniqlash yo‘nalishlarida olib borish maqsadga muvofiq. Shuningdek, workbookdan foydalanishning o‘quvchilarning uzoq muddatli xotirasida bilimlarning saqlanishiga ta‘sirini o‘rganish muhim ahamiyatga ega.

Xulosa. Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, ushbu tadqiqot natijalari topshiriqlar daftaridan foydalanish umumta‘lim maktablarida biologiyadan amaliy mashg‘ulotlar samaradorligini oshirishning ishonchli va amaliy jihatdan qulay texnologiyasi ekanligini ko‘rsatdi. Taklif etilayotgan besh bosqichli texnologiya (tayyorgarlik

– bajarish – tahlil – nazorat – baholash) o‘qituvchilar uchun umumta’lim maktablarida biologiya va boshqa tabiiy tomonidan nisbatan oson o‘zlashtirilishi mumkin, va u fanlardan amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etishda nafaqat biologiya, balki boshqa tabiiy fanlar amaliy topshiriqlar daftarlarini ishlab chiqish va keng joriy etish mashg‘ulotlariga ham moslashtirilishi mumkin. Shuning tavsiya etiladi.

Adabiyotlar

1. Alloberganova Z.B., Ro‘zmetova Z.Y., Shamuratova S.B., Atajanov O. Biologiyadan amaliy mashg‘ulotlar (o‘quv qo‘llanma). “Bookmany print” nashriyoti, 2024, 214-b.
2. Apeadido S., Opoku-Mensah D., Opoku Mensah G. Enhancing science process skills and academic performance in biology: The impact of practical work. Apeadido S., Opoku-Mensah D., Opoku Mensah G. (2024). Enhancing Science Process Skills and Academic Performance in Biology: The Impact of Practical Work. Integrated Science Education Journal, 2024, 5(1), 34-41.
3. Biologiyadan laboratoriya va amaliy mashg‘ulotlarni o‘tkazish metodikasi // ARM (Andijon Respublika maxsus maktab-internati). 2022. URL: [http://arm.sammoi.uz/\[reference:24\]](http://arm.sammoi.uz/[reference:24])
4. Hayitov A.E., Umirzaqova G.E. Biologiya darslarida laboratoriya mashg‘ulotlarini tashkil etish metodikasi. Saratov, Rossiya. Экономика и социум, (2025). (7-2 (134)), 114-120.
5. Muhitdinov Sh. Ways to Increase Educational Efficiency in Teaching Biology // Journal of Medical Sciences and Innovation. 2025, Vol. 4. № 6. -P. 82-84.
6. Norhaedah A., Rambitan V.M., Lumowa S.V. A development of practicum instructions based on qr code: for improving science process skills and mastering biological concepts of class viii students at public middle school 2 samarinda. Ijer-Indonesian Journal Of Educational Review. 2020, 7(02), 6-12.
7. Putri N. P., Ahda Y. The Effectiveness of Multiple Intelligences Based Work Books on Biological Learning Competencies of Students Class X Senior High School. In International Conference on Biology, Sciences and Education (ICoBioSE 2019) (pp. 215-217). (2020, August). Atlantis Press.
8. Бонина Т.А., Жудрик Е.В., Мазец Ж.Э. Дидактические и методологические аспекты применения рабочих тетрадей в системе биологического образования. Журнал: Биология и химия. Издатель журнала: Издательское республиканское унитарное предприятие «Адукация и выхавание» (г. Минск). (2022).
9. Пашков А. Н., Мячина О. В., Лышов В., Щетинкина Н.А., Парфенова Н. В., Величко Л.Г. Рабочая тетрадь по биологии как средство повышения качества организации самостоятельной работы студентов. Национальная ассоциация ученых, (2018). (9 (36)), 18-20.

**BOSHLANG'ICH TA'LIM O'QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA
MASAL MATNI USTIDA ISHLASH METODIKASI****G'ulomova Xolida – dotsent**gulyamovakhalida@gmail.com*Chirchiq davlat pedagogika universiteti***МЕТОДИКА РАБОТЫ С ТЕКСТОМ ПРИСТАВКИ НА УРОКАХ
ЧТЕНИЯ НАЧАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ****Гуломова Холида – доцент***Чирчикский государственный педагогический университет***METHODOLOGY FOR WORKING WITH A FABLE TEXT
IN PRIMARY EDUCATION READING LITERACY LESSONS****Gulomova Khalida – Associate Professor***Chirchik state pedagogical university*

Tayanch so'zlar: masal, boshlang'ich ta'lim, o'qish savodxonligi, matn tahlili, tarbiyaviy adabiyot, metodika, ifodali o'qish.

Rezyume. Maqolada boshlang'ich ta'lim o'qish savodxonligi darslarida masal matni ustida ishlashning metodikasi ko'rib chiqiladi. Masal janrining tarbiyaviy ahamiyati, o'quvchilarga axloqiy tushunchalarni singdirish yo'llari va ifodali o'qishni shakllantirish usullari tahlil qilinadi. Tadqiqotda o'zbek adabiyotidagi masallar asosida amaliy tavsiyalar beriladi.

Ключевые слова: басня, начальное образование, грамотность чтения, анализ текста, воспитательная литература, методика, выразительное чтение.

Резюме. В статье рассматривается методика работы над текстом басни на уроках читательской грамотности в начальной школе. Анализируется воспитательное значение жанра басни, пути формирования нравственных понятий у учащихся и методы выразительного чтения. На основе басен узбекской литературы даны практические рекомендации.

Key words: fable, primary education, reading literacy, text analysis, educational literature, methodology, expressive reading.

Summary. The article examines the methodology of working with fable texts in reading literacy lessons in primary education. The educational significance of the fable genre, methods of instilling moral concepts in students, and techniques for developing expressive reading are analyzed. Practical recommendations are provided based on fables from Uzbek literature.

Kirish. Ta'limning samaradorligi ko'p jihatdan o'qituvchi tomonidan didaktik jarayonni to'g'ri tashkil etishiga bog'liq. Didaktik jarayon barcha ta'lim muassasalarida pedagoglar uchun eng muhimi va didaktik jarayon shaxsning tanlovni amalga oshirishi uchun muhim yo'nalish hisoblanadi. Mazkur jarayonda muayyan o'quv vositalari o'zlashtiriladi va qo'llaniladi. Didaktik jarayonning tarkibini tashkil etuvchi 3 ta o'zaro aloqador qismlar: 1) o'quvchilarni yo'naltiruvchi; 2) o'quvchilarning shaxsiy bilish faoliyatlarini amalga oshiruvchi; 3) o'qituvchi tomonidan mazkur faoliyatning boshqarilishini ta'minlandi. Ushbu qismlar barcha didaktik jarayonlarda birday amal qiladi.

Masal janridagi asarlar tahlilida dasturlashtirilgan ta'lim muhim o'rin tutadi. Dasturlashtirilgan ta'lim o'quv materialini kichik-kichik qismlarga bo'lish, uni muayyan tartibda bayon etish, ushbu qismlarning biridan ikkinchisiga o'tish tartibi (qoidalari)ni belgilash, xususan, har bir qismni o'zlashtirish yuzasidan aniq ko'rsatmalar, topshiriqlar berish, o'z-o'zini nazorat qilishni ta'minlash kabi yo'llar bilan amalga oshiriladi.

Masalda axloqiy, satirik va kesatq mazmunini kinoyaviy obrazlarda aks ettirilishi, kichik hajmda bo'lishi, voqealarning she'riy, ba'zan nasriy asar yo'l bilan ifoda etilishi, insonga xos xususiyatlarning hayvonlar, jonivorlar va o'simliklar dunyosiga ko'chirilishi, masal qahramonlarining muloqoti mavzusi va mazmuni o'quvchilarning o'qib-o'rganishga bo'lgan qiziqishini oshiradi. Masalning kirish qismidagi, ba'zan yakunidagi

chiqarilgan qissadan hissa undan ibratli xulosa chiqarishga undaydi. Masalning liro-epik janrda, she'riy shaklda, majoziy xarakterdagi qisqa syujetli asarligi o'quvchilarning o'qishini yengillashtiradi.

“Antik adabiyotda Ezop masallarining xalq orasida sevilib o'qilishining sababi ham xalq unda o'z hayotidagi holatlarni ko'rganligidadir. Masalda qo'llangan ko'chma ma'nodagi so'zlar va kinoyaviy iboralar, "yashirincha" tanqid o'quvchini fikrlashga, hayotiy xulosalar chiqarishga undaydi.

Ma'lumki, o'quvchi shaxsini maktabga kelgan kundan boshlab, bilim berish jarayonida tarbiyalab borish hozirgi globallashtirish jarayonining dolzarb muammosi sanaladi. Masalni tarbiyaviy masalaga qaratilgan janr sifatida o'quvchiga ma'naviy ozuqa beradi. Masal o'quvchida mehnatga, ona-Vatanga mehr-muhabbat, fidoyilik, do'stlik, ezigulik kabi hislatlarni tarbiyalaydi. Shuningdek, masal boladagi qo'pollik, qo'rslik, yolg'onchilik, yalqovlik, beparvolik kabi illatlarni bartaraf etishda yordam beradi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. O'zbek masalchisi Gulxaniyning, Frantsuz shoiri Lafontenning masallari, A.Navoiy dostonlaridagi “Sher bilan Durroj”, “Kabutar” singari masallari o'quvchi shaxsini tarbiyalashda muhim o'rin tutadi. O'zbek adabiyotida Sayido Nasafiy, Maxmur, Gulxaniy kabi shoirlar ham Navoiy an'analarini davom ettirib yozgan masallari bolalar tarbiyasiga qaratilgan.

Hayvonlar, parrandalar, hasharotlar, gullar haqidagi majoziy asarlarni bolalar qiziqib o'qiydilar. Jumladan,

Sayido Nasafiyning «Bahoriyot» («Hayvonotnoma») masallari o'quvchilarning axloqiy va ma'naviy tarbiyasiga ta'sir o'tkazadi. Mashhur masalnavis Gulxaniyning «Toshbaqa bilan Chayon», «Maymun bilan Najjor» masallari boshlang'ich sinf o'quvchilarining yoshiga mosligi, ularda do'stlik, rostgo'ylik, mehnatsevarlik, qo'lidan kelmaydigan ishga urinmaslik kabi g'oyalar ilgari suriladiki, bular o'quvchini fikrlashga undaydi.

Biroq amaldagi boshlang'ich sinf «O'qish savodxonligi» darsliklarida masal janriga kam e'tibor qaratilgan. Vaholanki, masaldan chiqarilgan qissadan hissa o'quvchi o'ylashga, o'zidagi xususiyatlarni asardagi holatlar bilan taqqoslashga undaydi [1].

Natijalar. Sinfidan tashqari o'qish uchun «Qaysar buzoqcha» (O.Qo'chqorbekov) masalini tavsiya etish oilasi, o'rtoqlari, do'stlaridan ajralib, yomon yo'llarga kirib qolgan, oqibatda ko'ngilsiz holatlarga tushib qolgan bolalarni tarbiyasiga katta ta'sir ko'rsatadi. Bu masaldan chiqariladigan xulosa — qissadan hissa «Bo'linganni bo'ri yer» hikmatida o'z ifodasini topgan.

«Chumoli va Tipratikan» masalida Chumoli timsoli orqali bolalar halollikka o'rgatiladi, har bir narsani, u katta yoki kichik bo'lishidan qat'iy nazar, so'rab olishga, egasining ruxsati bilan foydalanishga da'vat etiladi.

«O'roq va Kombayn» masali qahramonlari: o'roq va kombaynning munozarasi texnikaning afzalligi — kam vaqt sarflab, samarali natijaga erishish mumkinligi hamda ularning ahil bo'lib, birgalikda mehnatga bel bog'lashlari kabi o'quvchilarning tushunchalarini boyitish bilan birga inson tomonidan aytilgan texnika ularning mehnatini yengillashtirganini anglashlariga xizmat qiladi [2].

Muhokama. Masalni ifodali o'qish asar qahramonlarining xatti-harakatini anglashga va uning mazmunini qisqa, ba'zan bir necha so'z bilan aytib berishga, ayrim qatnashuvchilarning xarakterli xususiyatlarini aniqlab, o'zaro qiyoslashga o'rgatish muhim ahamiyatga ega.

1-sinfda bolalar masalni hayvonlar haqidagi ertakka o'xshash kulguli asar kabi qabul qilsalar, 2-sinfdan boshlab ular masaldagi hayvonlarning xatti-harakati, o'zaro munosabatlari ba'zan kishilar hayotida ham uchrashini, masal axloqiy bilim beradigan hikoya ekanini, ko'proq she'riy tarzda bo'lishini, unda kishilardagi ayrim kamchiliklar tasvirlanishini anglay boshlaydilar.

Masallarda yashiringan o'tkir kinoya, voqealarning tez-tez o'rin almashinib turishi uni bir maromda o'qishga xalaqit beradi. Shuning uchun ifodali o'qishga yetarli malaka hosil qilmagan o'quvchi avval matn bilan yaxshilab tanishib chiqishi lozim.

Masal tahlil qilinyotganda, voqea rivojini jonli tasavvur qilish, obrazlarni aniq idrok etishda o'quvchilarga yordam berish zarur. Chunonchi, ularga ayrim epizodlarni so'z bilan tasvirlash, ba'zilariga o'qituvchi yordamida

tavsif berish, oxirgi bosqichda rollarga bo'lib o'qish [3] kabilar tavsiya qilinadi.

Masal matni ustida ishlash quyidagi bosqichlar asosida tashkil etiladi: masal mazmunini aniq idrok etish; kompozitsiyasi, qatnashuvchilarning xarakteriga mos xususiyatlarini, xatti-harakatlarining sabablarini ochish; allegoriyani aniqlash; masal xulosasini tahlil qilish [4].

Klaster bilimlarni sistemalashtiradi. Butun bir mavzu klaster metodida olib borilishi mumkin. Darsning borishi davomida yangi ma'lumotlar qo'shib boriladi, asosiy ma'lumotlar boshqa ranglar bilan ajratib boriladi.

Masal matni ustida ishlash jarayonida o'quvchilar fikrini tartiblashtirishda «Klaster» texnologiyasi muhim ta'limiy ahamiyat kasb etadi. O'quvchilar klasterini markaziga asosiy tushunchani kiritishi va tarmoqlarda fikrini asoslashi lozim bo'ladi. Bu jarayonda klasterdagi noto'g'ri fikrlar tuzatilishi mumkin.

Masalan: O'quvchilar o'qigan asarlarining muhim tushunchalari aytiladi, o'quvchi doskaga yozib boradi.

Ish faoliyati davomida quyidagi ko'nikmalar rivojlanib boradi:

- savollar qo'ya bilish;
- asosiy ajratish;
- sababini aniqlash orqali bog'lanishlarni belgilash;
- qismdan umumiyga o'tish, muammoni to'liq anglash;
- taqqoslash va tahlil qilish;
- xulosa chiqarish.

O'quvchilarni tavsif berishga o'rgatish uchun o'qituvchining o'zi qahramonni xarakterlovchi so'z, iboralarni tavsiya qiladi. Ular ichiga masaldagi timsollarga xos bo'lmagan xususiyatlarni ifodalovchi so'z, iboralar kiritib qo'yiladi. O'quvchi ular ichidan mosini tanlab olish jarayonida mantiqan fikrlaydi. Bu so'z va iboralar esa bolalar nutqiga ko'chadi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, masal janrining tarbiyaviy tomoni ochilishda hayvonlar harakati, xulqi 2-sinfidan boshlab insonlarga ko'chiriladi. Bu jarayonda o'quvchilar fikrlashga undaladi.

O'quvchilar lug'atini boyitishda «So'z va iboralarning ma'nosini bilib oling» rubrikasidan foydalanish, o'qish ko'nikmasini rivojlantirishda tanlab o'qish, rollarga bo'lib o'qitish turlaridan foydalanish, masal mazmunini qisqa so'zlab berishga o'rgatishda rejadan foydalanish, asar qahramonlariga tavsif berishda taqqoslash usulini qo'llash, bilimni nazorat qilishda «Bliss texnologiyasi»dan, «Topgan-topaloq» o'yinidan foydalanish o'quvchilarni o'qib-o'rganishga bo'lgan qiziqishini oshiradi.

Mazkur izchillik asar mazmunini va unda ilgari surilgan tarbiyaviy g'oyani anglashga xizmat qiladi. Masalan, Rauf Tolibning «Qo'zichoq» masali g'oyasiga «Ahmoqning o'zi bilmas, Bilganning so'ziga kirmas» maqoli mos keladi.

Adabiyotlar

1. MO'D. Umumiy o'rta ta'limning ona tilini o'qitish konsepsiyasi. -Toshkent: 2020.
2. Matchonov S. va b. 4-sinfda o'qish darslari. -Toshkent: «Yangiyo'l poligraf servis», 2007.
3. Mahmudov N. O'qituvchi nutqi madaniyati. — Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi, 2009.
4. Sariyev Sh. Boshlang'ich sinf o'qish darslarida matn ustida ishlash orqali nutq o'stirish (metodik qo'llanma). -Toshkent: Yurist-media markazi, 2010.

BOSHLANG'ICH SINIF ONA TILI DARSLARIDA O'QUV-BILUV MATERIALLARIDAN FOYDALANISH USULLARI

Ilyasova Zamira Uzakbaevna – katta o'qituvchi

zilasova184@gmail.com

Sarieva Munira Ramatillaevna – assistent o'qituvchi

munirasariyeva1@gmail.com

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

МЕТОДЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ УЧЕБНО-ПОЗНАВАТЕЛЬНЫХ МАТЕРИАЛОВ НА УРОКАХ РОДНОГО ЯЗЫКА В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ

Ильясова Замира Узакбаевна – старший преподаватель

Сариева Мунира Раматиллаевна – ассистент преподаватель

Нукусский государственный педагогический институт имени Ажинияза

METHODS OF USING EDUCATIONAL MATERIALS IN NATURAL LANGUAGE LESSONS IN PRIMARY SCHOOLS

Ilyasova Zamira Uzakbaevna – Senior Lecturer

Sarieva Munira Ramatillaevna – Assistant teacher

Nukus State Pedagogical Institute named after Ajiniyaz

Tayanch so'zlar: boshlang'ich ta'lim, ona tili darslari, o'quv-biluv materiallari, pedagogik texnologiya, didaktik o'yinlar, interfaol metodlar, mustaqil fikrlash, o'quv faoliyati, o'quvchilarning rivojlanishi, ta'lim samaradorligi.

Rezyume. Maqolada boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'quv-biluv materiallaridan foydalanish usullari yoritilgan. Dars jarayonida o'quv materiallarini samarali tanlash, ularni pedagogik texnologiyalar asosida qo'llash hamda interfaol va didaktik usullardan foydalanish orqali o'quvchilarning bilim olish faolligini oshirish masalalari tahlil qilingan. Shuningdek, o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda o'quv materiallarini tizimli va izchil tashkil etishning ahamiyati asoslab berilgan.

Ключевые слова: начальное образование, уроки родного языка, учебно-познавательные материалы, педагогическая технология, дидактические игры, интерактивные методы, самостоятельное мышление, учебная деятельность, развитие учащихся, эффективность обучения.

Резюме. В статье рассматриваются методы использования учебно-познавательных материалов на уроках родного языка в начальных классах. Анализируются вопросы эффективного отбора учебных материалов, их применения на основе педагогических технологий, а также повышения познавательной активности учащихся посредством интерактивных и дидактических методов. Особое внимание уделяется системному и последовательному построению учебного материала с учетом возрастных и индивидуальных особенностей учащихся.

Key words: primary education, mother tongue lessons, learning materials, pedagogical technology, didactic games, interactive methods, independent thinking, learning activity, student development, learning effectiveness.

Summary. The article discusses methods of using learning materials in mother tongue lessons in primary school. It analyzes the effective selection of educational materials, their application based on pedagogical technologies, and increasing students' cognitive activity through interactive and didactic methods. Special attention is given to the systematic and consistent organization of learning materials considering students' age and individual characteristics.

Kirish. Bugungi globallashuv va axborotlashuv sharoitida ta'lim tizimi oldiga o'quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, ularning bilim olishga bo'lgan qiziqishini oshirish hamda hayotiy kompetensiyalarini shakllantirish kabi muhim vazifalar qo'yilmoqda. Bu vazifalarni samarali amalga oshirishda boshlang'ich ta'lim alohida o'rin egallaydi. Chunki aynan boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning bilim olishga bo'lgan munosabati, o'qish, yozish va fikrlash ko'nikmalari shakllanadi. Shu bois boshlang'ich ta'lim sifatini oshirish, darslarni zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish hamda o'quv-biluv materiallaridan samarali foydalanish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Mamlakatimizda ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish, o'quv jarayoniga innovatsion pedagogik texnologiyalarni keng joriy etish va xalqaro ta'lim standartlari asosida raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ta'lim jarayonining samaradorligi esa ko'p jihatdan o'quv materiallari

mazmuni, sifati va ularni o'quvchilarga yetkazish usullariga bog'liqdir. Ayniqsa, boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'quv materiallarini to'g'ri tanlash va ulardan oqilona foydalanish o'quvchilarning savodxonligini oshirish, nutqini rivojlantirish, mantiqiy va ijodiy fikrlashini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar tahlili. Ona tili fani boshlang'ich ta'limning asosiy fanlaridan biri bo'lib, u o'quvchilarda nutqiy kompetensiyalarni rivojlantirish, fikrni og'zaki va yozma shaklda erkin ifodalash, matn bilan ishlash, tahlil qilish va xulosa chiqarish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Shu sababli ona tili darslarida foydalaniladigan o'quv materiallari o'quvchilarning yosh, psixologik va individual xususiyatlariga mos bo'lishi, ularni faol o'quv faoliyatiga jalb etishi zarur. Pedagog olim I.Y.Lernerning ta'kidlashicha, ta'lim mazmuni nafaqat bilimlarni o'zlashtirishga, balki o'quvchilarning ijodiy faoliyat tajribasini rivojlantirishga ham xizmat qilishi lozim [1:42].

O'quv materiallarini loyihalashga yangi pedagogik texnologiyalar asosida yondashuv ta'lim jarayonida o'quvchilar faolligini ta'minlash bilan birga fan asoslarini o'zlashtirish sifatini ham kafolatlaydi. Pedagogik texnologiya doirasida yangi o'quv materialini o'zlashtirishning boshlang'ich, algoritmik, ijodiy va evristik xarakterdagi darajalari belgilanadi.

Boshlang'ich xarakterdagi darajada o'quvchi eshitganlari, berilgan namunalar va ko'rsatmalar asosida topshiriqlarni bajaradi. Bu bosqichda o'qituvchining mahorati, o'quv materialini qiziqarli va izchil bayon etishi muhim ahamiyatga ega. Algoritmik darajada esa o'quvchilar o'zlashtirgan bilim va ko'nikmalarini amaliyotga tatbiq etishni o'rganadilar. Bu jarayonda o'quv materiallarining tizimlilik, oddiydan murakkabga qarab rivojlanishi va mavzulararo bog'liqlikning ta'minlanishi alohida ahamiyat kasb etadi. L.S.Vygotskiyning fikricha, o'quvchilarning rivojlanishi ularning yaqin rivojlanish zonasi asosida tashkil etilgan ta'lim jarayonida samarali kechadi [2:214]. Shu sababli ona tili darslarida hamkorlikda ishlash, muloqot va interfaol metodlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Mazkur yondashuv o'quvchilarning bilimlarni bosqichma-bosqich o'zlashtirishiga imkon yaratadi. Tizimli tashkil etilgan o'quv material o'quvchida mantiqiy fikrlashni shakllantiradi va mavzular o'rtasidagi bog'liqlikni anglashga yordam beradi. Ayniqsa, oddiydan murakkabga o'tish tamoyili boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun juda muhim bo'lib, ularning o'quv jarayoniga moslashishini osonlashtiradi. Vygotskiy nazariyasiga ko'ra, o'quvchi mustaqil bajara olmaydigan vazifalarni kattalar yoki tengdoshlari yordamida bajara oladi, bu esa uning rivojlanish darajasini yuqoriga ko'taradi. Shu bois dars jarayonida juftlikda ishlash, kichik guruhlarda topshiriqlar bajarish va o'zaro fikr almashish muhim didaktik ahamiyatga ega.

Interfaol metodlardan foydalanish o'quvchilarning faolligini oshiradi, ularni mustaqil izlanishga undaydi hamda o'z fikrini erkin ifodalash ko'nikmasini rivojlantiradi. Bunday jarayonda o'qituvchi yo'naltiruvchi rolni bajaradi, o'quvchilar esa bilimni faol ravishda o'zlashtiruvchi subyektga aylanadi. Natijada ta'lim jarayoni samaradorligi sezilarli darajada oshadi. Ijodiy xarakterdagi darajada o'quvchilar mavjud bilimlarni turli vaziyatlarda qo'llash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bunda muammoli vaziyatlarni yaratish, izlanishga undovchi topshiriqlardan foydalanish va ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish muhim hisoblanadi. Evristik darajada esa o'quvchilar yangi axborotlarni mustaqil ravishda izlash, tahlil qilish va muammolar yechimini topish ko'nikmalarini egallaydilar. Bu esa ularda mustaqil ta'lim olish kompetensiyasining shakllanishiga xizmat qiladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olish o'quv materiallarini samarali loyihalashning asosiy shartlaridan biridir. Z.T.Nishonova va G.K.Alimovlarning qayd etishicha, kichik maktab yoshidagi bolalarda bilishga qiziqish, emotsional ta'sirchanlik va faol muloqotga intilish yuqori bo'lib, ta'lim vositalarining to'g'ri tanlanishi ularning intellektual rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi [3:185].

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, o'quv materiallarini didaktik loyihalashga nisbatan pedagogik texnologiya asosida yondashuv quyidagi jihatlar bilan ajralib turadi: o'quv materiallari ta'lim-tarbiya jarayonini izchil tashkil

etish uchun loyihalanadi; darsning aniq maqsadlari belgilanadi; o'quv materiallariga pedagogik ishlov beriladi; materiallarning didaktik vazifalari aniqlanadi; ularni taqdim etishning shakl, metod va vositalari tanlanadi hamda kutilayotgan natijalar oldindan rejalashtiriladi.

Boshlang'ich ta'lim vositalari sifatida o'quv matnlari asosiy o'rin egallaydi. Hozirgi kunda ular an'anaviy darsliklardan tashqari elektron darsliklar, audio va videodarslar, multimedia vositalari orqali ham taqdim etilmoqda. Elektron darsliklar o'quvchilarning mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish bilan birga, ta'lim mazmunini interaktiv shaklda o'zlashtirish imkoniyatini yaratadi.

Shuningdek, videofilm va audio darslardan foydalanish ham o'quvchilarning mavzuni chuqurroq tushunishlariga yordam beradi. Audio darslarda personajlar, rolli o'yinlar va turli ovoz effektlaridan foydalanish boshlang'ich sinf o'quvchilarning qiziqishini oshiradi hamda materialni oson o'zlashtirishlariga xizmat qiladi.

O'quv materiallarini tanlash va tizimlashtirishda ularning ilmiyligi, izchilligi va yosh xususiyatlariga mosligi alohida ahamiyatga ega. R.A.Mavlonovanning ta'kidlashicha, ta'lim jarayonida qo'llaniladigan materiallar o'quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirishi va bilimlarni amaliyot bilan bog'lashga xizmat qilishi lozim [4:96]. Ushbu fikrning mazmuni shundan iboratki, o'quv materiallari faqat tayyor bilimlarni yetkazib berish bilan cheklanib qolmasdan, o'quvchini izlanishga, tahlil qilishga, taqqoslashga va xulosa chiqarishga undashi kerak.

Boshlang'ich sinf ona tili darslarida bu talab ayniqsa muhim hisoblanadi. Masalan, matn bilan ishlash jarayonida o'quvchilarga faqat matn mazmunini o'qitish emas, balki uning asosiy g'oyasini aniqlash, qahramonlarning xatti-harakatlariga baho berish, voqealar yuzasidan o'z fikrini bildirish kabi topshiriqlar berilishi mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Shu bilan birga, o'quv materiallari o'quvchilarning kundalik hayoti, milliy qadriyatlari va real hayotiy vaziyatlar bilan bog'langan bo'lsa, olingan bilimlarni amaliyotda qo'llash imkoniyati kengayadi.

Bugungi kunda boshlang'ich sinf ona tili darslarida muammoli ta'lim, modulli o'qitish, kompyuter texnologiyalari, hamkorlikda o'qitish va didaktik o'yin texnologiyalaridan keng foydalanilmoqda. Didaktik mazmunga ega bo'lgan o'yinlar o'quvchilarni faol ishtirok etishga undaydi, bilimlarni qiziqarli shaklda egallash imkonini beradi. Sh.A.Amonashvili o'yin faoliyati bolalar uchun tabiiy ehtiyoj ekanligini va u o'quv motivatsiyasini kuchaytirishini alohida ta'kidlaydi [5:44]. Shu sababli ona tili darslarida "So'z top", "Maqolni davom ettir", "Kim chaqqon?" kabi didaktik o'yinlardan foydalanish samarali natijalar beradi. Bunday o'yinlar o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini oshirish bilan bir qatorda, ularning nutqiy faoliyatini faollashtiradi, lug'at boyligini kengaytiradi va muloqot madaniyatini rivojlantiradi. Ayniqsa, boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun o'yin jarayonida o'rganilgan bilimlar uzoq vaqt xotirada saqlanib qoladi. Chunki o'yin davomida bola o'zini erkin his qiladi, topshiriqlarni majburiyat sifatida emas, balki qiziqarli faoliyat sifatida qabul qiladi. Masalan, "So'z top" o'yini o'quvchilarning so'z boyligini oshirish va imlo ko'nikmalarini mustahkamlashga xizmat qilsa, "Maqolni davom ettir" o'yini xalq og'zaki ijodi namunalarini

o'rganish orqali ularning ma'naviy-axloqiy tarbiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. "Kim chaqqon?" o'yini esa o'quvchilarning tezkor fikrlash, to'g'ri javob topish va bilimlarni amalda qo'llash ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Shuningdek, didaktik o'yinlar dars jarayonida sog'lom raqobat muhitini yaratadi, o'quvchilarni hamkorlikda ishlashga va bir-birining fikrini hurmat qilishga o'rgatadi. O'yin texnologiyalaridan maqsadli va tizimli foydalanish natijasida o'quvchilarning bilish faolligi ortadi, mustaqil fikrlash qobiliyati rivojlanadi hamda ona tili faniga bo'lgan qiziqishi yanada kuchayadi. Shu bois didaktik o'yinlar boshlang'ich sinf ona tili darslarida ta'lim samaradorligini oshiruvchi muhim pedagogik vositalardan biri hisoblanadi.

Dars jarayonida muammoli vaziyatlar yaratish, fanlararo integratsiyani ta'minlash, o'quvchilarni mustaqil izlanishga yo'naltirish hamda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish o'quv materiallarini samarali o'zlashtirishga yordam beradi. O'qituvchi tomonidan dars loyihasining

puxta ishlab chiqilishi, o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish ta'lim samaradorligini oshirishning muhim omili hisoblanadi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'quv-biluv materiallaridan foydalanishni takomillashtirish o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. O'quv materiallarini pedagogik texnologiyalar asosida loyihalash, interfaol metodlar va zamonaviy axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish ta'lim samaradorligini oshiradi. Shuningdek, didaktik o'yinlar, multimedia vositalari va muammoli ta'lim texnologiyalari o'quvchilarning bilishga bo'lgan qiziqishini kuchaytirib, ularning mustaqil va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi. Shu bois boshlang'ich ta'lim amaliyotida o'quv-biluv materiallarini takomillashtirish va ularni zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida qo'llash dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

Adabiyotlar

1. Лернер И.Я. Дидактические основы методов обучения. – Москва: Педагогика, 1981.
2. Выготский Л.С. Педагогическая психология. – Москва: Педагогика-Пресс, 1999.
3. Nishonova Z.T., Alimova G.K. Rivojlanish psixologiyasi. Pedagogik psixologiya. – Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2018.
4. Mavlonova R.A., To'rayeva O.T. Pedagogika. – Toshkent: «O'qituvchi», 2015.
5. Амонашвили Ш.А. Здравствуйте, дети! – Москва: «Просвещение», 1983.

ORGANIZING INDEPENDENT RESEARCH ACTIVITIES IN CHEMISTRY OUTSIDE THE LESSON

Kosnazarov Salamat Tanirbergenovich – Senior teacher

k.salamat@gmail.com

Nukus State Pedagogical Institute named after Ajiniyaz

KIMYO FANIDAN DARS DAN TASHQARI MUSTAQIL TADQIQOT ISHLARINI TASHKIL ETISH

Kosnazarov Salamat Tanirbergenovich – katta o'qituvchi

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

ОРГАНИЗАЦИЯ ВНЕУЧЕБНОЙ САМОСТОЯТЕЛЬНОЙ ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКОЙ РАБОТЫ ПО ХИМИИ

Косназаров Саламат Танирберганович – старший преподаватель

Нукусский государственный педагогический институт имени Ажинияза

Tayanch so'zlar: mustaqil tadqiqot faoliyati, kimyo fanida darsdan tashqari ta'lim, sinfdan tashqari ilmiy izlanish, o'quvchiga yo'naltirilgan ta'lim, mustaqil o'rganish, izlanishga asoslangan ta'lim, tadqiqotga yo'naltirilgan ta'lim.

Rezyume. Maqolada sinfdan tashqari mashg'ulotlarning turli shakllari, jumladan kimyo to'garaklari, loyiha topshiriqlari, ilmiy tanlovlar va virtual laboratoriyalar tahlil qilinib, ularning eksperimental ko'nikmalar, tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirishdagi o'rni ochib berilgan. Moslashuvchan va shaxsiylashtirilgan ta'lim muhitini yaratishda raqamli texnologiyalar va innovatsion pedagogik usullarning ahamiyati alohida ko'rib chiqiladi. Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, mustaqil tadqiqot faoliyatini tizimli tashkil etish o'quvchilarning o'quv motivatsiyasini, akademik o'zlashtirishini va ilmiy tadqiqotlarga tayyorgarligini sezilarli darajada oshiradi.

Ключевые слова: самостоятельная исследовательская деятельность, внеурочное обучение по химии, внеурочная научно-исследовательская деятельность, обучение, ориентированное на учащегося, самообразование, обучение на основе исследования, исследовательски ориентированное образование.

Резюме. В статье анализируются различные формы внеурочной деятельности, включая химические кружки, проектные задания, научные конкурсы и виртуальные лаборатории, а также раскрывается их роль в развитии экспериментальных навыков, критического мышления и умений решения проблем. Отдельно рассматривается значение цифровых технологий и инновационных педагогических методов в создании гибкой и персонализированной образовательной среды. Полученные результаты свидетельствуют о том, что системная организация самостоятельной исследовательской деятельности значительно повышает учебную мотивацию, академическую успеваемость и готовность учащихся к научным исследованиям.

Key words: independent research activity, extracurricular learning in chemistry, out-of-class scientific inquiry, student-centered learning, self-directed learning, inquiry-based learning research-oriented education.

Summary. This article analyzes various forms of extracurricular activities, including chemistry clubs, project assignments, scientific competitions, and virtual laboratories, and reveals their role in developing experimental skills, critical thinking, and problem-solving skills. The importance of digital technologies and innovative pedagogical methods in creating a flexible and personalized educational environment is considered separately. The obtained results indicate that the systematic organization of independent research activities significantly enhances students' learning motivation, academic performance, and readiness for scientific research.

Introdaction. Innovative approaches in education are becoming increasingly relevant due to their effectiveness and teaching effectiveness. One of the innovative forms of teaching modern schoolchildren is the educational and research activities of students, which allow for the resolution of a number of pressing problems, primarily increasing motivation for studying the subject, improving the quality of knowledge in the subject, career guidance, initiative, the ability to cooperate with partners, expanding the scientific worldview, creating opportunities for cooperation between participants in the process, and demonstrating their abilities, identifying interests, and self-expression.

We define the concept of "educational-research activity" as a type of activity aimed at solving the educational tasks set before the student in a creative, non-standard way, as a result of which they acquire new knowledge, skills, and abilities during their activities under the guidance of a teacher-mentor. Educational and research activities that contribute to the development of students' creative abilities should include problem-based and creative tasks, the

solution of which often serves to create one's own algorithm based on trial and error.

Thus, the main goals of educational and research activities can be identified: identifying and pedagogical support for gifted children, developing students' interest in science, developing intellectual and creative abilities, increasing motivation for studying subjects, acquiring research skills, developing independent information-search activities, developing research behavior, and acquiring personal values during educational and research activities [3].

The culmination of any educational activity is the result of education – the experience of independent, creative, research work and a series of innovations obtained as a result of such work. We highlight the following learning outcomes of students' educational and research activities:

- subject result – enrichment with general theoretical knowledge;
- familiarization with the subject area of research – acquisition of a certain narrow range of knowledge within the framework of the research problem;

- the result of practical training - the acquisition of certain skills and abilities;
- mastering the methods and techniques of activity used within the framework of the student's research;
- development of the student's personal qualities, formation of personal values, including the development of the individual's research behavior and research position.

The most popular types of organizing students' educational and research activities described in the literature are project, project-research, and research activities. In order to link the types of organization of educational and research activities with the goals and learning outcomes, as well as to determine the important didactic aspects of organizing educational and research activities in chemistry, we organized the "Chemists" scientific circle in secondary schools of the Republic of Karakalpakstan based on a general education institution in 2023-2025. The work of the scientific circle is aimed at the educational and research activities of students in chemistry during extracurricular time.

At the scientific club, students of various ages: from 15 to 17 years old (grades 9-11) had the opportunity to engage in project-research and research activities. Project activity is understood as a type of activity aimed at achieving goals, objectives, and results through reproductive means. Project-research activity is viewed as an activity aimed at designing one's own research, highlighting the goal, task, research hypothesis, and intended product.

In the implementation of project-research activities, the final result can be not only a specific product but also new knowledge acquired by the student during the research process, where the stages of its execution are initially attempted to be predicted. Compiling a research plan is achieved by independently creating an algorithm for solving the problem, often through a series of failures. The result is an understanding of the essence of the phenomenon under study, the discovery of new patterns, and the result is new knowledge. Furthermore, in our view, it is necessary to understand that in some cases, the difference between a project and design and survey activities may be insignificant. Project activity involves not only achieving a specific result formalized in the form of a specific practical product but also organizing the process of achieving this result [1, 2].

During the implementation of the project, it is possible to enrich the student's knowledge with new knowledge. Thus, it can be concluded that the educational results of project and project-research activities can often be partially identical across a range of indicators. We define research activity as a creative process of acquiring unknown knowledge by a student through research aimed at solving educational and research tasks.

When we speak of an educational and research problem, we mean a problem that cannot be solved by the student according to a standard algorithm: solving it requires demonstrating skills in information retrieval, comparison and analysis of facts, and drawing conclusions. The result of solving such a problem is new knowledge. In our view, the main components of research activity: problem-setting, literature analysis, selection of research methods, conducting research, analyzing and summarizing the results obtained, and presenting one's conclusions give the research activity a line of infinity.

If the product obtained during the implementation of project activities is the logical conclusion of the project, then in research activities, new knowledge serves as the basis for a deeper study of the research subject. Based on the results of the club's work, we have reached certain conclusions. From the perspective of choosing the optimal type of educational and research activity, in our opinion, any method of organizing educational and research activity can be considered the most effective, as the application of a particular method depends on the age, psychological, and intellectual abilities of the students and the goals set for them.

In our view, the development of research behavior, research activity, and the formation of an individual's research position through students' educational and research activities can be carried out as effectively as possible within the framework of school project-research and research activities. Approaches to performing such student research should prioritize non-standard, creative, and problem-based situations. This approach is particularly relevant in the study of natural sciences, particularly chemistry. In our view, it is possible to carry out research activities at school, but it is more difficult compared to project and project-research activities. This is due to problems such as the long duration of such research (almost unlimited), insufficient equipment of the school's material base, insufficient qualifications of teachers, and the complexity of the phenomena being studied.

Such research consists of the joint creative activity of the teacher and the student, aimed at studying specific problems outside the curriculum. It is worth noting that postgraduate research can be successfully integrated with interdisciplinary research. As a result of such integration, the teacher's effective work with students is harmonized; the research topic goes beyond the school curriculum and becomes non-standard, problem-oriented, and cognitive.

When a student conducts research in chemistry, this can be work on biochemistry, geochemistry, pharmacy, etc. As an example, work aimed at isolating biologically active substances used in pharmacy from plant raw materials can be considered. In this process, students become acquainted with the most commonly used methods for extracting substances from plants, purifying them, and identifying them using various methods. Such work requires thoroughness and precise analysis from the students.

Methodologic. We consider it necessary to differentiate the organization of students' educational and research activities, taking into account their age characteristics. Analysis of club activities shows that students in grades 9-11 who have just begun studying chemistry are interested in studies that are not time-consuming, but are clear and, of course, yield successful results. At the same time, it is advisable to partially combine the project method with exploration activities. At the initial stage of the student's research, in our opinion, there must be an understanding of the final result, as in this way the student learns to create a theoretical plan for their work and the practical stages of its implementation. It should be noted that at the initial stage of educational and research activities in chemistry, the result of practical training aimed at developing skills in working with chemical reagents, laboratory equipment, containers, etc., is of great importance. In the future, the

acquired skills will contribute to the development of educational outcomes and research behavior.

Here is an example of a project related to partial exploration activities - "metals from mortar." The goal of the project is to obtain metals as a result of a chemical reaction occurring in a solution. This project is carried out for 60-90 minutes, conducting the experiment does not require deep knowledge of chemistry, and minor mistakes made by students will not cause failure, the experiment will be successful. Students must mix certain solutions of substances that form metals as a result of a chemical reaction. The work is performed according to the algorithm. In this process, students develop the skills to work with laboratory utensils and equipment, and to follow the rules for safe handling of chemical reagents. During the experiment, students learn to describe the phenomena associated with the transformation of substances. The project is supplemented by partial search activities in the form of problem situations [4].

For example: how does a change in the conditions of a chemical reaction affect its course? Students should experiment with changed conditions and try to explain the observed differences. The senior school age is considered the most optimal for conducting project-research and research activities. In high school students (9-11 grades, 15-17 years old), a selectively conscious interest in exact sciences, a personal position, and a professional orientation toward the future profession are formed. In our opinion, it is advisable to organize longer research activities at this age, lasting from one week to one month, and sometimes up to several months. Research activities for such an age group should be carried out based on the current problems of modern science. To successfully implement the set goals and objectives, the assistance of researchers from higher educational institutions and research institutes can be used in organizing activities.

For example, when studying organic chemistry in the 10th grade, students can perform research work on the topic "Making glue from milk." The study can be considered in the context of the implementation of "green technologies" – the creation of materials with beneficial properties from raw materials whose processing does not pose a danger to the environment. In this process, students' laboratory skills are developed, a research approach to the problem under study is developed, experimental planning skills are formed, and students acquire additional theoretical knowledge about the properties of substances and phenomena studied within the framework of the project.

The duration of the study can range from a few weeks to several months. The classification of educational and research activities by classroom and extracurricular types is described in detail in the literature. However, lessons may contain only certain elements of educational and research activities, which can be explained by the lesson's time constraints and the dependence of the lesson material content on the curriculum.

We believe that one of the successful methods for conducting research activities in chemistry lessons is solving problem-based situational problems. The main goal of such problems is to teach the student not to reconstruct the obtained information, but to apply it in various situations, to determine the natural-scientific essence, to update the necessary information and to find the correct

solution to the problem given in the problem in an implicit form. All of the above helps develop students' critical thinking and logic. In our view, problem-based tasks involving a demonstration experiment can be particularly successful. For this purpose, chemistry possesses rich equipment and a developed methodological framework for conducting demonstration experiments [5].

The preparation of a demonstration experiment in chemistry is often creative in nature and ensures the development of practical skills in working with chemical equipment and reagents. Involving students in conducting this type of experiment can contribute to the formation of both subject-specific and practical learning outcomes of educational and research activities. Attention should be paid to the formation of the student's orderliness. For this purpose, a demonstration experiment is the most successful method, as the staging of many experiments requires meticulous, diligent work. At this point, it is appropriate to speak about the acquisition of personal qualities by students. For example, the demonstration experiment "silver mirror reaction" will be successful if the silver released as a result of the reaction settles evenly on the walls of the vessel in the form of a thin mirror film. If this reaction is carried out without adherence to a precise methodology and the proper balance between the reagents, silver will be released in the form of a black precipitate. At the same time, students can be involved in preparing for the experiment, which contributes to the development of their proficiency.

The experiment can be reinforced with the problem question: "Why is it necessary to strictly adhere to the method of performing a reaction for it to proceed successfully?" Practical work and laboratory experiments in chemistry lessons are usually carried out within the framework of research lessons, which consist of the initial formation of students' research approach. Since most of such work is performed at the reproductive level, it is difficult to speak of the development of research skills. In such cases, it is possible to practice and improve the skills of working with laboratory equipment, laboratory containers, and chemical reagents. In lessons, research skills are developed through practical work of a creative nature. For example, work consisting of identifying encrypted substances or synthesizing a substance according to an independently developed plan under the guidance of a teacher.

Extracurricular work allows the student to conduct educational research more fully and extensively. We see that such activities are carried out within the framework of subject clubs for schoolchildren. It is attributed to the second level of organization of educational and research activities. Extracurricular activities are not regulated by lesson time and do not involve grades for actions performed that are specific to the lesson. The student is given more freedom of movement and has the opportunity to demonstrate their abilities to the maximum extent. Abilities that were previously hidden due to certain circumstances can be identified.

Attention should be paid to the forms of organizing classes in the club. We consider it appropriate to use group forms of instruction for students in grades 9-11. For example, the group project session "Crystals Under the Microscope" for students in grades 9-11 is aimed at

developing students' skills in working with research tools and cooperation skills. The goal of the project is to create photographs of crystals and compare them. To conduct the experiment, it is necessary to: create a micro preparation, calibrate the USB microscope, and photograph the crystals at multiple magnifications. This work requires students to distribute tasks among group members, as the micro preparation prepared according to the written algorithm must be quickly placed on the microscope table due to the high crystal formation rate.

Consequently, the clear and coordinated work of the entire team is essential for the successful execution of the project. Even if students do not achieve good results at first, the teacher can correct their activities in the right direction. After creating the photographs, students can be asked to identify patterns in the structure of the studied crystals. For students in grades 9-11, the individual form of instruction is more effective, as a result of which a teacher-centered approach to the student can be formed. When using such an approach, a unique creative tandem of teacher and student is formed.

As a result of well-planned collaborative work, high educational results can be achieved in achieving the set goals and objectives. In such an approach, the teacher's role should not be dominant. The student should be given a certain amount of freedom in conducting research. However, all occupational safety standards must be strictly observed during the student's chemistry research. Therefore, minimizing the teacher's role in organizing educational and research activities is not always advisable. All research work in laboratory conditions must be conducted under the teacher's supervision.

When working in a chemistry laboratory, one of the most important conditions is for students to know the safety rules and methods of providing first aid in the event of an accident. The selection of a student capable of individual student research should be carried out by the teacher based

on their own analytical and diagnostic research based on group sessions in the studio.

It is specifically individual educational and research activities that are characterized as the third level of organizing educational and research activities. At this level, the student is not limited by time; all stages of the student's research are fully carried out at a pace convenient for the student. The student is as independent as possible in their research. Thus, we conclude that in general, educational and research activities should be planned by the teacher, taking into account the diagnostic analysis of various approaches to their organization.

Conclusion. We believe that the most effective way to involve students in educational and research activities and develop their abilities is to involve them in educational and research activities from the age of 13-14 and then gradually develop their skills, abilities and abilities, which is carried out through short-term successful research - projects. At the age of 15-17, students interested in educational and research activities can effectively engage in student research aimed at achieving specific personal results (research competitions, olympiads, admission to higher education institutions in the field of educational and research activities, etc.). At this age, the student is capable of conducting research in a scholastic manner, carrying it out, and analyzing the obtained experimental data. For natural sciences, particularly chemistry, methods of scientific cognition such as experiment, observation, description, and measurement should prevail. In our view, research education in chemistry is less effective without the student's experimental activity. The study concludes that effective implementation of extracurricular research in chemistry requires a well-structured pedagogical framework, integration of interdisciplinary approaches, and continuous assessment of learning outcomes. The results can be applied to improve chemistry teaching practices and to support the development of research-oriented education systems.

References

1. Космодемьянская С.С., Гильманшина С.И. Методика обучения химии. Учебное пособие. – Казань: 2011.
2. Rahmatullayev N.G., Omonov H.T., Mirkomilov Sh.M. "Kimyo o'qitish metodikasi", O'quv qo'llanma. –Toshkent: "Iqtisod-Moliya", 2013.
3. Kurbanbayeva A.J. Interdisciplinarity of chemistry at school the importance of teching through. // Proceedings of International Conference on Modern Science and Scientific Studies. 2022 November, -P.166-168.
4. Kurbanbayeva A.J. Health for young people in Karakalpak folk pedagogy conservation teaching traditions. // Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities. ISSN: 2249-7315 Vol. 12, Issue 11, November 2022 SJIF 2022 = 8.625, -P. 8-12.
5. Курбанбаева А.Ж. Интеграция наук в образовании, межпредметные связи в химии других дисциплинах. // Международный журнал научных и прикладных исследований. 1, № 2 (2024): 395-398.

**TALABALAR O‘Z-O‘ZINI RIVOJLANTIRISHNING SUN’IY INTELLEKT ASOSIDAGI
ADAPTIV PEDAGOGIK TIZIMI**

Kudenov Temurbek Maxsetbaevich – *pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori*

kudenovtemurbek509@gmail.com

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

**АДАПТИВНАЯ ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ СИСТЕМА САМОРАЗВИТИЯ СТУДЕНТОВ
НА ОСНОВЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА**

Куденов Темурбек Максетаевич – *доктор философии по педагогическим наукам*

Нукусский государственный педагогический институт имени Ажинияза

**AN ARTIFICIAL INTELLIGENCE BASED ADAPTIVE PEDAGOGICAL SYSTEM
FOR STUDENTS’ SELF-DEVELOPMENT**

Kudenov Temurbek Maxsetbaevich – *Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences*

Nukus state pedagogical institute named after Ajiniyaz

Tayanch so‘zlar: sun’iy intellekt, adaptiv pedagogik tizim, o‘z-o‘zini rivojlantirish, shaxsiylashtirilgan ta’lim, raqamli ta’lim muhiti, ta’lim analitikasi, individual ta’lim trayektoriyasi, adaptiv o‘qitish, oliy ta’lim.

Rezyume. Maqolada talabalar o‘z-o‘zini rivojlantirishning sun’iy intellekt asosidagi adaptiv pedagogik tizimining nazariy-pedagogik asoslari yoritilgan. Adaptiv pedagogik tizimning mohiyati, tarkibiy komponentlari, funksiyalari hamda shaxsiylashtirilgan raqamli ta’lim muhitidagi o‘rni ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Sun’iy intellekt texnologiyalarining ta’lim analitikasi, individual ta’lim trayektoriyasini loyihalash, pedagogik qarorlarni qo‘llab-quvvatlash va talabalarning o‘z-o‘zini rivojlantirish kompetensiyasini shakllantirishdagi imkoniyatlari tahlil qilingan.

Ключевые слова: искусственный интеллект, адаптивная педагогическая система, саморазвитие, персонализированное обучение, цифровая образовательная среда, образовательная аналитика, индивидуальная образовательная траектория, адаптивное обучение, высшее образование.

Резюме. В статье раскрываются теоретико-педагогические основы адаптивной педагогической системы саморазвития студентов, основанной на технологиях искусственного интеллекта. Научно обоснованы сущность, структурные компоненты, функции адаптивной педагогической системы и её роль в персонализированной цифровой образовательной среде. Проанализированы возможности технологий искусственного интеллекта в области образовательной аналитики, проектирования индивидуальных образовательных траекторий, поддержки педагогических решений и формирования компетентности саморазвития студентов.

Key words: artificial intelligence, adaptive pedagogical system, student self-development, personalized learning, digital learning environment, learning analytics, individualized learning trajectory, adaptive learning, higher education.

Summary. The article explores the theoretical and pedagogical foundations of an artificial intelligence-based adaptive pedagogical system for students' self-development. It provides a scientific justification of the essence, structural components, functions, and the role of the adaptive pedagogical system within a personalized digital learning environment. The study analyzes the potential of artificial intelligence technologies in learning analytics, the design of individualized learning trajectories, pedagogical decision support, and the development of students' self-development competence.

Kirish. XXI asrning uchinchi o‘n yilligida oliy ta’lim tizimi raqamli transformatsiyaning yangi bosqichiga kirdi. Sun’iy intellekt, katta hajmdagi ma’lumotlarni tahlil qilish (Big Data), ta’lim analitikasi (Learning Analytics), intellektual ta’lim tizimlari hamda generativ sun’iy intellekt texnologiyalarining jadal rivojlanishi ta’lim jarayonini tashkil etishga bo‘lgan an’anaviy yondashuvlarni qayta ko‘rib chiqishni talab etmoqda. Zamonaviy mehnat bozorida raqobatbardosh mutaxassis tayyorlash nafaqat fanga oid bilimlarni shakllantirishni, balki talabani mustaqil ta’lim olish, o‘z faoliyatini baholash, shaxsiy rivojlanishini rejalashtirish va butun umr davomida o‘qishga tayyorligini ham ta’minlashni taqozo etmoqda. Shu sababli oliy ta’lim muassasalarida talabalarning o‘z-o‘zini rivojlantirish kompetensiyasini shakllantirish strategik vazifalardan biri sifatida qaralmoqda.

So‘nggi yillarda ta’limni shaxsiylashtirish konsepsiyasi pedagogika nazariyasi va amaliyotining muhim yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Ushbu yondashuv har bir talabani bilim darajasi, kognitiv xususiyatlari, o‘quv sur‘ati, qiziqishlari va kasbiy ehtiyojlarini hisobga olgan holda ta’lim jarayonini tashkil etishni nazarda tutadi. Biroq an’anaviy pedagogik tizimlar bunday vazifani to‘liq amalga oshirish imkoniyatiga ega emas, chunki ular asosan barcha talabalar uchun yagona mazmun, bir xil topshiriqlar va

umumiy baholash mezonlariga tayanadi. Bu esa ta’lim oluvchilar o‘rtasidagi individual farqlarni hisobga olish imkoniyatini cheklaydi.

Adabiyotlar tahlili. Talabalarning o‘z-o‘zini rivojlantirishini ta’minlash masalasi pedagogika, psixologiya va ta’lim texnologiyalari sohalarida uzoq yillardan buyon tadqiq etib kelinmoqda. Mazkur yo‘nalishda olib borilgan ilmiy izlanishlar shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy ta’lim tizimida talabani mustaqil o‘qishi, o‘z faoliyatini rejalashtirishi, refleksiya olib borishi hamda uzluksiz rivojlanishga tayyorligi ta’lim sifati va kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

O‘z-o‘zini boshqaruvchi ta’lim nazariyasining asoschilaridan biri B.Zimmerman talabani o‘quv faoliyatidagi muvaffaqiyati, avvalo, uning o‘z oldiga maqsad qo‘yishi, faoliyatini rejalashtirishi, natijalarni monitoring qilishi va o‘zini baholash ko‘nikmalari bilan uzviy bog‘liqligini asoslab bergan. Ushbu nazariyada talaba ta’lim jarayonining passiv ishtirokchisi emas, balki o‘z rivojlanishini ongli ravishda boshqaruvchi faol subyekt sifatida talqin qilinadi [1].

P.Pintrich tomonidan ishlab chiqilgan motivatsion yondashuvda esa o‘z-o‘zini boshqaruvchi ta’limning samaradorligi talabani ichki motivatsiyasi, maqsadga

yo'naltirilganligi va metakognitiv strategiyalaridan foydalanish darajasi bilan izohlanadi [2]. Mazkur qarashlar shaxsiylashtirilgan ta'lim muhitini yaratishda individual motivatsiyani hisobga olish zarurligini ko'rsatadi.

Ta'limni individuallashtirishning psixologik asoslari J.Swellerning kognitiv yuklama nazariyasida ham o'z ifodasini topgan. Mazkur nazariyaga ko'ra, o'quv materialining murakkabligi talabning bilish imkoniyatlariga mos bo'lishi kerak. Aks holda ortiqcha kognitiv yuklama o'quv samaradorligini pasaytiradi. Shu sababli adaptiv o'qitish tizimlari o'quv materialining hajmi va murakkabligini foydalanuvchining joriy bilim darajasiga moslashtirish imkoniyatiga ega bo'lishi zarur [3].

Raqamli ta'lim muhitining rivojlanishi bilan G.Siemens va S.Downes tomonidan ilgari surilgan konnektivizm nazariyasi ham dolzarb ahamiyat kasb etdi. Mazkur nazariyaga ko'ra, bilim alohida shaxsda emas, balki axborot tarmoqlari, raqamli platformalar va ijtimoiy aloqalar tizimida shakllanadi. Shuning uchun zamonaviy ta'lim jarayonida sun'iy intellekt, ta'lim analitikasi va raqamli platformalar o'quv faoliyatining ajralmas komponentiga aylanmoqda [4, 5].

So'nggi yillarda sun'iy intellekt asosidagi adaptiv ta'lim tizimlariga bag'ishlangan tadqiqotlar soni sezilarli darajada ortmoqda. Ushbu ishlarda, asosan, ta'lim analitikasi, mashinali o'qitish algoritmlari, individual ta'lim trayektoriyalarini loyihalash hamda pedagogik qarorlarni ma'lumotlar asosida qabul qilish masalalari yoritilgan. Biroq mavjud ilmiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, tadqiqotlarning aksariyati adaptiv o'qitishning texnologik jihatlariga qaratilgan bo'lib, talabalarining o'z-o'zini rivojlantirishini boshqaruvchi yaxlit pedagogik tizimning nazariy modeli yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Mazkur holat ushbu tadqiqotning ilmiy yangiligini belgilaydi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur maqola konseptual xarakterga ega bo'lib, unda empirik tajriba emas, balki nazariy-pedagogik tahlil amalga oshirildi. Tadqiqot metodologiyasi zamonaviy pedagogika, shaxsiylashtirilgan ta'lim, adaptiv pedagogik tizimlar hamda sun'iy intellekt texnologiyalariga oid ilmiy manbalarni kompleks o'rganishga asoslandi.

Tadqiqot davomida quyidagi ilmiy metodlardan foydalanildi:

- ilmiy-pedagogik adabiyotlarni qiyosiy va tanqidiy tahlil qilish;

- tizimli tahlil orqali adaptiv pedagogik tizimning tarkibiy elementlarini aniqlash;

- analiz va sintez metodlari asosida mavjud ilmiy qarashlarni umumlashtirish;

- konseptual modellash usuli yordamida sun'iy intellekt asosidagi adaptiv pedagogik tizimning nazariy modelini ishlab chiqish;

- mantiqiy umumlashtirish orqali tizimning funksional komponentlari hamda ular o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni asoslash.

Tadqiqotning metodologik asosini shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, kompetensiyaviy yondashuv, tizimli yondashuv, adaptiv o'qitish konsepsiyasi hamda ma'lumotlarga asoslangan pedagogik boshqaruv tamoyillari tashkil etdi. Ushbu metodologik yondashuvlar talabalarining individual rivojlanish ehtiyojlarini hisobga oluvchi adaptiv pedagogik tizimning nazariy modelini ishlab chiqish imkonini berdi.

Natijalar. Mazkur tadqiqot natijasida talabalarining o'z-o'zini rivojlantirishini qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan sun'iy intellekt asosidagi adaptiv pedagogik tizimning

nazariy modeli ishlab chiqildi. Tizimli tahlil asosida ushbu modelning maqsadi, tarkibiy komponentlari, funksional bog'lanishlari hamda ishlash mexanizmi aniqlandi.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, sun'iy intellekt asosidagi adaptiv pedagogik tizimni faqat texnologik platforma sifatida emas, balki pedagogik boshqaruv tizimi sifatida talqin qilish maqsadga muvofiqdir. Mazkur tizimning markazida talaba shaxsi va uning o'z-o'zini rivojlantirish jarayoni joylashadi. Sun'iy intellekt esa pedagogik maqsadlarni amalga oshirishga xizmat qiluvchi intellektual vosita sifatida namoyon bo'ladi.

Nazariy umumlashtirish natijalari shuni ko'rsatdiki, sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish adaptive pedagogik tizimning quyidagi funksional imkoniyatlarini kengaytiradi:

- talabaning bilim darajasi va o'quv faolligini real vaqt rejimida monitoring qilish;

- individual o'quv ehtiyojlarini aniqlash;

- moslashtirilgan o'quv materiallarini tavsiya etish;

- topshiriqlarning murakkablik darajasini avtomatik o'zgartirish;

- akademik xavf guruhidagi talabalarni oldindan aniqlash;

- o'qituvchini pedagogik qarorlar qabul qilishda analitik ma'lumotlar bilan ta'minlash.

Shuningdek, tadqiqot natijasida adaptiv pedagogik tizimning samaradorligini baholash uchun mezonlar tizimi ham taklif qilindi. Ushbu mezonlar quyidagi yo'nalishlarni qamrab oladi:

- talabaning mustaqil ta'lim olish faolligi;

- o'z-o'zini baholash va refleksiya ko'nikmalari;

- individual ta'lim trayektoriyasiga rioya qilish darajasi;

- raqamli ta'lim muhitidagi faollik;

- o'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyasining shakllanish darajasi.

Nazariy modellash natijasida ishlab chiqilgan adaptiv pedagogik tizim modeli oliy ta'limning shaxsiylashtirilgan raqamli ta'lim muhitida talabalar rivojlanishini uzluksiz monitoring qilish, individual pedagogik qo'llab-quvvatlashni tashkil etish hamda ma'lumotlarga asoslangan boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun konseptual asos bo'lib xizmat qilishi aniqlandi.

Tadqiqot natijalarining muhim jihati shundaki, unda adaptiv pedagogik tizimning yakuniy natijasi sifatida faqat akademik ko'rsatkichlarning oshishi emas, balki talabaning o'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyasini shakllantirish ustuvor maqsad sifatida asoslandi. Shu bois tizimning samaradorligi bilim natijalari bilan bir qatorda talabaning mustaqil o'rganish, o'z faoliyatini rejalashtirish, refleksiya yuritish va uzluksiz kasbiy rivojlanishga tayyorligi orqali ham baholanadi.

Natijada ishlab chiqilgan nazariy model sun'iy intellekt, ta'lim analitikasi va adaptiv pedagogik boshqaruvni yagona konseptual tizimga integratsiyalash imkonini berishi aniqlandi hamda u oliy ta'lim muassasalarida shaxsiylashtirilgan raqamli ta'lim muhitini rivojlantirishning nazariy asosi sifatida tavsiya etildi.

Muhokama. Mazkur tadqiqot natijalari sun'iy intellekt asosidagi adaptiv pedagogik tizimni oliy ta'limda talabalar o'z-o'zini rivojlantirishini qo'llab-quvvatlovchi yaxlit pedagogik model sifatida talqin qilish imkonini berdi. Natijalarning tahlili shuni ko'rsatdiki, adaptiv pedagogik tizimning samaradorligi faqat raqamli texnologiyalardan foydalanish bilan emas, balki pedagogik maqsadlar, diagnostika, individual qo'llab-quvvatlash va uzluksiz qayta aloqa mexanizmlarining yagona tizimga integratsiya-

lashuvi bilan belgilanadi. IMRAD yondashuviga ko'ra, muhokama bo'limining asosiy vazifasi olingan natijalarni ilmiy adabiyotlar bilan solishtirish va ularning mazmunini sharhlashdan iborat.

Tadqiqot davomida ishlab chiqilgan konseptual model B.Zimmerman tomonidan ilgari surilgan o'z-o'zini boshqaruvchi ta'lim nazariyasini zamonaviy raqamli ta'lim muhiti sharoitida yangi bosqichga olib chiqadi. Zimmerman ta'kidlaganidek, talabani o'z faoliyatini rejalashtirishi, monitoring qilishi va baholashi uning ta'limdagi muvaffaqiyatini belgilovchi asosiy omillardan biridir. Taklif etilgan adaptiv pedagogik tizim ushbu jarayonlarni sun'iy intellekt algoritmlari yordamida uzluksiz qo'llab-quvvatlash imkonini yaratadi. Natijada o'z-o'zini rivojlantirish faqat talabani shaxsiy faolligiga emas, balki raqamli ta'lim muhitining adaptiv imkoniyatlariga ham tayyanadigan jarayonga aylanadi [1].

Olingan natijalar P.Pintrichning motivatsion yondashuvi bilan ham uyg'unlashadi. Tadqiqotda ishlab chiqilgan model individual ta'lim trayektoriyasini shakllantirishda talabani o'quv faoligi, motivatsiyasi va o'zlashtirish dinamikasi haqidagi ma'lumotlardan foydalanishni nazarda tutadi. Bu esa pedagogik qarorlarni umumiy mezonlar asosida emas, balki har bir talabani rivojlanish xususiyatlariga mos ravishda qabul qilish imkonini beradi [2].

J.Swellerning kognitiv yuklama nazariyasi nuqtai nazaridan ham ishlab chiqilgan model muhim afzalliklarga ega. Adaptiv tizim o'quv materialining murakkablik darajasini talabani tayyorgarligi va o'zlashtirish sur'atiga moslashtirishi orqali ortiqcha kognitiv yuklamaning oldini olishga xizmat qiladi. Shu jihatdan sun'iy intellekt algoritmlari didaktik qarorlarni qabul qilishni avtomatlashtirmaydi, balki ularni ilmiy asoslangan ma'lumotlar bilan qo'llab-quvvatlaydi [3].

Tadqiqot natijalari G.Siemens va S.Downes tomonidan ishlab chiqilgan konnektivizm nazariyasining zamonaviy rivojlanish tendensiyalarini ham tasdiqlaydi. Raqamli ta'lim muhitida bilimlar faqat o'qituvchi tomonidan uzatiladigan axborot bilan chegaralanmaydi. Sun'iy intellekt, ta'lim analitikasi va raqamli platformalar o'rtasidagi o'zaro integratsiya talabani individual rivojlanishini boshqarishga xizmat qiluvchi yangi pedagogik infratuzilmani shakllantiradi [4, 5].

Mazkur tadqiqotning muhim ilmiy jihatlaridan biri shundaki, unda sun'iy intellekt pedagogik jarayonning

mustaqil subyekti sifatida emas, balki pedagogik boshqaruvning intellektual vositasi sifatida talqin qilindi. Ushbu yondashuv o'qituvchining kasbiy faoliyatini sun'iy intellekt bilan almashtirish emas, balki uning analitik imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan. Shuning uchun ham adaptiv pedagogik tizimda yakuniy pedagogik qarorlar o'qituvchi tomonidan qabul qilinadi, sun'iy intellekt esa ushbu qarorlarni qabul qilish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni tahlil qiladi va tavsiyalar ishlab chiqadi.

Shuningdek, tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, adaptiv pedagogik tizimning samaradorligini faqat akademik ko'rsatkichlar orqali baholash yetarli emas. Talabani o'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyasi, refleksiv faoliyati, mustaqil ta'lim olish ko'nikmalari, o'z faoliyatini rejalashtirish va baholash qobiliyati ham tizim samaradorligining muhim indikatorlari hisoblanadi. Shu bois kelgusida adaptiv pedagogik tizimlarni baholash metodikalarida mazkur ko'rsatkichlarni ham kompleks hisobga olish maqsadga muvofiqdir.[6]

Xulosa. Mazkur tadqiqot natijalari talabalarining o'z-o'zini rivojlantirishini ta'minlashda sun'iy intellekt asosidagi adaptiv pedagogik tizim zamonaviy oliy ta'limning shaxsiylashtirilgan va ma'lumotlarga asoslangan modelini amalga oshirishning istiqbolli pedagogik yechimi ekanligini ko'rsatdi. Nazariy tahlillar asosida adaptive pedagogik tizimning mohiyati aniqlandi, uning tarkibiy komponentlari, funksional imkoniyatlari hamda shaxsiylashtirilgan raqamli ta'lim muhitidagi o'rni ilmiy jihatdan asoslandi.[7]

Tadqiqotning muhim ilmiy natijalaridan biri shundan iboratki, unda sun'iy intellekt adaptiv pedagogik tizimning asosiy maqsadi emas, balki pedagogik qarorlarni ilmiy asoslash va o'qituvchining kasbiy faoliyatini qo'llab-quvvatlovchi intellektual vosita sifatida talqin qilindi. Shu sababli tizimning markaziy elementi texnologiya emas, balki talabani o'z-o'zini rivojlantirish jarayoni va uni pedagogik boshqarish mexanizmlari hisoblanadi.[8]

Mazkur maqola konseptual tadqiqot bo'lganligi sababli, ishlab chiqilgan model nazariy asoslar bilan cheklanadi. Kelgusidagi tadqiqotlarda ushbu adaptiv pedagogik tizimni oliy ta'lim muassasalari amaliyotida joriy etish, uning samaradorligini eksperimental sinovdan o'tkazish, sun'iy intellekt algoritmlarining pedagogik natijalarga ta'sirini statistik jihatdan baholash hamda o'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyasining shakllanish dinamikasini empirik ma'lumotlar asosida tahlil qilish maqsadga muvofiqdir [9].

Adabiyotlar

1. Zimmerman B. J. Becoming a Self-Regulated Learner: An Overview. // *Theory Into Practice*. 2002. Vol. 41, No. 2. – P. 64-70.
2. Pintrich P. R. The Role of Goal Orientation in Self-Regulated Learning // *Handbook of Self-Regulation* / Ed. by M.Boekaerts, P.R.Pintrich, M.Zeidner. – San Diego: Academic Press, 2000. – P. 451–502.
3. Sweller J. Cognitive Load Theory // *Psychology of Learning and Motivation*. 2011. Vol. 55. – P. 37–76.
4. Siemens G. Connectivism: A Learning Theory for the Digital Age // *International Journal of Instructional Technology and Distance Learning*. 2005. Vol. 2, No. 1. – P. 3–10.
5. Downes S. Connectivism and Connective Knowledge: Essays on Meaning and Learning Networks. – Ottawa: National Research Council Canada, 2012.
6. Kudenov T. M. O'z-o'zini rivojlantirish tushunchasi va uning pedagogik mohiyati. // *Maktabgacha va maktab ta'limi jurnali*. – Toshkent: 2025, № 7. 177–179-b.
7. Kudenov T.M. Creation of pedagogical software tools in self-development // *Academic Research in Modern Science: International Scientific Online Conference*. –America: 2025. Issue 1, Part 2. –P. 56–59. DOI: 10.5281/zenodo.14608772.
8. Куденов Т.М. Педагогические и психологические основы персонализированного обучения: Проблемы формирования индивидуальных траекторий в цифровую эпоху. // *Qo'qon DPI. Ilmiy xabarlar*. 2026? № 5, C seriya.
9. Kudenov T.M. Adaptive pedagogical systems based on artificial intelligence. // *Science and Innovation international scientific journal*. Volume 5 issue, 6 June 20266 – P. 75-80. (<https://scientists.uz/>)

**BOSHLANG'ICH TA'LIM YOSHIDAGI O'QUVCHILAR TARBIYASIDA
XALQ OG'ZAKI IJODINING O'RNI VA AHAMIYATI****Qadirov Jo'rabek Ayitbayevich – mustaqil tadqiqotchi**qodirovjurabekk@gmail.com*Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti***РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ ФОЛЬКЛОРА В ВОСПИТАНИИ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО
ШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА****Кади́ров Журабек Айти́баевич – самостоятельный соискатель***Нукусский государственный педагогический институт имени Ажинияза***THE ROLE AND SIGNIFICANCE OF FOLKLORE
IN THE UPBRINGING OF PRIMARY SCHOOL-AGE STUDENTS****Qadirov Jurabek Ayitbayevich – independent researcher***Nukus State Pedagogical Institute named after Ajiniyaz*

Tayanch so'zlar: xalq og'zaki ijodi, folklor, boshlang'ich ta'lim, xalq pedagogikasi, milliy qadriyatlar, tarbiya, maqol, ertak, topishmoq, o'quvchi.

Rezyume. Maqolada boshlang'ich ta'lim yoshidagi o'quvchilarni tarbiyalash jarayonida o'zbek xalq og'zaki ijodidan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari tahlil qilingan. Xalq og'zaki ijodi namunalarining o'quvchilarda milliy qadriyatlarga hurmat, ma'naviy-axloqiy fazilatlar, vatanparvarlik, mustaqil fikrlash hamda nutq madaniyatini shakllantirishdagi o'rni ilmiy manbalar asosida yoritilgan. Shuningdek, ertak, maqol, topishmoq, doston va boshqa folklor janrlarining boshlang'ich ta'lim jarayonidagi didaktik hamda tarbiyaviy imkoniyatlari tahlil qilinib, ularni zamonaviy ta'lim jarayoniga integratsiya qilish bo'yicha ilmiy xulosalar bayon etilgan.

Ключевые слова: устное народное творчество, фольклор, начальное образование, воспитание, народная педагогика, национальные ценности, сказка, пословица, загадка, учащиеся.

Резюме. В статье анализируются педагогические возможности использования узбекского устного народного творчества в воспитании учащихся начальной школы. Освещается влияние произведений фольклора на формирование национальных ценностей, нравственных качеств, культуры речи, самостоятельного мышления и патриотического воспитания школьников. Рассматриваются дидактические и воспитательные возможности сказок, пословиц, загадок и эпических произведений, а также обосновывается необходимость их широкого использования в современной образовательной практике.

Key words: oral folk literature, folklore, primary education, folk pedagogy, national values, moral education, fairy tales, proverbs, riddles, students.

Summary. This article examines the pedagogical potential of Uzbek oral folk literature in the moral education of primary school students. It analyzes the role of folklore in developing national values, ethical qualities, patriotism, independent thinking, and speech culture among young learners. The educational significance of fairy tales, proverbs, riddles, and epic works is discussed, and recommendations are provided for integrating folklore into contemporary primary education.

Kirish. Jamiyat taraqqiyoti, avvalo, ma'naviy barkamol, mustaqil fikrlaydigan va milliy qadriyatlarga hurmat ruhida voyaga yetgan yosh avlodni tarbiyalash bilan chambarchas bog'liq. Shu bois O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimini modernizatsiya qilish jarayonida o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy kamolotini ta'minlash, ularda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Mazkur vazifalarni samarali amalga oshirishda xalq og'zaki ijodi muhim pedagogik manba hisoblanadi.

O'zbek xalq og'zaki ijodi xalqning ko'p asrlik hayotiy tajribasi, ma'naviy merosi, urf-odatlar, axloqiy qarashlari va estetik didini o'zida mujassam etgan noyob madaniy boylikdir. Folklor asarlarida ezgulik va yovuzlik, mehnatsevarlik va dangasalik, vatanparvarlik, do'stlik, halollik, mardlik hamda insonparvarlik kabi umuminsoniy qadriyatlar badiiy obrazlar vositasida ifodalangan. Shu sababli folklor namunalari yosh avlodni tarbiyalashning samarali vositalaridan biri sifatida xalq pedagogikasida alohida o'rin egallaydi.

Boshlang'ich maktab davri bolaning shaxs sifatida shakllanishida eng muhim bosqichlardan biri sanaladi. Aynan shu davrda o'quvchilarda axloqiy me'yorlar, estetik

did, nutq madaniyati, milliy o'zlikni anglash va ijtimoiy munosabatlarga oid dastlabki tasavvurlar shakllanadi. Shu nuqtai nazardan, xalq og'zaki ijodi namunalaridan ta'lim-tarbiya jarayonida maqsadli foydalanish o'quvchilarning ma'naviy kamolotini ta'minlashda muhim pedagogic imkoniyatlarni yuzaga chiqaradi.

So'nggi yillarda xalq og'zaki ijodini asrash, o'rganish va ta'lim tizimiga tatbiq etish bo'yicha davlat miqyosida qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, baxshichilik san'atining YuNESKOning Insoniyat nomoddiy madaniy merosi representativ ro'yxatiga kiritilishi hamda milliy folklor merosini rivojlantirishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlarining qabul qilinishi ushbu yo'nalishdagi ilmiy tadqiqotlarning dolzarbligini yanada oshirdi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi boshlang'ich ta'lim yoshidagi o'quvchilar tarbiyasida xalq og'zaki ijodining pedagogik imkoniyatlarini ilmiy tahlil qilish, uning o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy kamoloti, nutq madaniyati va milliy tafakkurini rivojlantirishdagi ahamiyatini asoslashdan iborat.

Yangiligi. Tadqiqotda boshlang'ich ta'lim yoshidagi o'quvchilar tarbiyasida xalq og'zaki ijodi janrlarining

pedagogik imkoniyatlari tizimli ravishda tahlil qilinib, ularni zamonaviy kompetensiyaviy yondashuv asosida ta'lim jarayoniga integratsiya qilishning ilmiy-metodik asoslari ishlab chiqildi.

Amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalaridan boshlang'ich ta'lim fanlari darsliklari va metodik qo'llanmalarini takomillashtirishda, pedagogika oliy ta'lim muassasalarida "Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi", "Xalq pedagogikasi", "O'qish metodikasi" fanlarini o'qitishda hamda umumta'lim maktablarining tarbiyaviy ishlarida foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, xalq og'zaki ijodi boshlang'ich ta'lim tizimida nafaqat o'quvchilarning bilimini boyituvchi, balki ularning ma'naviy-axloqiy kamolotini ta'minlovchi muhim pedagogik vosita hisoblanadi. Folklor namunalarining tarbiyaviy ahamiyati xalqning ko'p asrlik hayotiy tajribasi, dunyoqarashi va axloqiy qadriyatlarini o'zida mujassam etganligi bilan izohlanadi. Shu jihatdan xalq og'zaki ijodi zamonaviy pedagogika tamoyillari bilan uyg'unlashib, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim jarayonida samarali didaktik vosita sifatida namoyon bo'ladi.

Mahmud Koshg'ariyning «Devonu lug'otit turk» asarida maqol va hikmatli iboralarning keng qo'llanilishi xalq donishmandligi til va tafakkur taraqqiyotining muhim omili ekanligini ko'rsatadi. Keyingi davrlarda Hodi Zarifov, To'ra Mirzayev, Bahodir Sarimsoqov, Omonulla Madayev va boshqa folklorshunos olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda ham folklor namunalarining tarbiyaviy, estetik va ma'rifiy imkoniyatlari ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Mazkur tadqiqot natijalari ushbu ilmiy qarashlarni to'ldirgan holda, xalq og'zaki ijodidan boshlang'ich ta'lim jarayonida tizimli foydalanish o'quvchilarning shaxsiy kompetensiyalarini rivojlantirishga sezilarli ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi [3].

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh va psixologik xususiyatlari xalq og'zaki ijodi namunalarining mazmuni bilan uzviy bog'liqdir. Ertaklardagi obrazlarning yorqinligi, voqealarning qiziqarliligi hamda ezgulik va yovuzlik o'rtasidagi qarama-qarshilik bolalarda voqelikni badiiy idrok etish, axloqiy mezonlarni anglash va xulq-atvorni baholash ko'nikmalarini shakllantiradi. Bu esa o'quvchilarning emotsional intellekti, ijtimoiy faolligi va muloqot madaniyatining rivojlanishiga xizmat qiladi.

Maqollar va matallar o'quvchilarda qisqa, lo'nda va mazmunli fikr bildirish ko'nikmasini rivojlantiradi. Ularning dars jarayonida muntazam qo'llanilishi o'quvchilarning lug'at boyligini kengaytirish, nutq madaniyatini yuksaltirish hamda mantiqiy tafakkurini rivojlantirishga yordam beradi. Ayniqsa, ona tili va o'qish savodxonligi darslarida maqollardan foydalanish ta'limning amaliy yo'naltirilganligini kuchaytiradi.

Topishmoqlar o'quvchilarning analiz, sintez, taqqoslash va umumlashtirish kabi tafakkur operatsiyalarini faollashtiradi. Ularni yechish jarayonida bolalar muammoli vaziyatni hal qilish, dalillarni tahlil qilish va xulosalar chiqarish malakasini egallaydilar. Shu sababli topishmoqlarni zamonaviy interfaol metodlar bilan uyg'unlashtirish boshlang'ich ta'lim samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Doston va rivoyatlarda ifodalangan vatanparvarlik, jasorat, sadoqat, ota-onaga hurmat, do'stlik va fidoyilik kabi fazilatlar o'quvchilarning fuqarolik pozitsiyasini

shakllantirishda muhim tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, "Alpomish", "Go'ro'g'li" turkumidagi dostonlar hamda xalq qahramonlari haqidagi rivoyatlar yosh avlodni milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi.

Shuningdek, xalq og'zaki ijodining sinkretik tabiati, ya'ni so'z, kuy va ijro elementlarining uyg'unligi boshlang'ich sinf o'quvchilarining estetik didini rivojlantirishga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Baxshichilik, lapar va xalq qo'shiqlaridan sinfdan tashqari mashg'ulotlarda foydalanish bolalarda milliy madaniyatga qiziqishni kuchaytiradi hamda ularning ijodiy faolligini rag'batlantiradi.

Tadqiqot davomida aniqlangan natijalar shuni ko'rsatdiki, xalq og'zaki ijodi namunalaridan dars va sinfdan tashqari tarbiyaviy mashg'ulotlarda tizimli foydalanish o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyasi, ijtimoiy moslashuvi, milliy o'zligini anglash darajasi va ma'naviy barkamolligini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bois boshlang'ich ta'lim dasturlarida folklor materiallaridan foydalanish metodikasini yanada takomillashtirish dolzarb pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi.

Metodlar. Mazkur tadqiqotda boshlang'ich ta'lim yoshidagi o'quvchilar tarbiyasida xalq og'zaki ijodining pedagogik imkoniyatlarini aniqlash maqsadida nazariy va qiyosiy tahlil metodlaridan foydalanildi. Tadqiqotning metodologik asosini O'zbekiston Respublikasining ta'lim sohasiga oid normativ-huquqiy hujjatlari, xalq pedagogikasi nazariyasi, zamonaviy pedagogika hamda folklorshunoslikka oid ilmiy tadqiqotlar tashkil etdi.

Tadqiqot davomida ilmiy adabiyotlarni tizimli tahlil qilish, tarixiy-qiyosiy yondashuv, pedagogik kuzatish, umumlashtirish va mantiqiy tahlil metodlari qo'llanildi. Xususan, Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asari, M.Koshg'ariy [1], M.H.Zarifov [2], T.Mirzayev [3], O.Madayev [6], B.Sarimsoqov [4], M.Jo'rayev [5] va boshqa folklorshunos olimlarning ilmiy qarashlari o'rganildi. Shuningdek, boshlang'ich ta'lim darsliklari hamda xalq og'zaki ijodi namunalarining tarbiyaviy imkoniyatlari qiyosiy tahlil qilindi.

Tadqiqot obyekti sifatida o'zbek xalq og'zaki ijodi namunalarining boshlang'ich ta'lim jarayonidagi tarbiyaviy imkoniyatlari tanlandi. Tadqiqot predmeti esa folklor janrlarining o'quvchilarda ma'naviy-axloqiy fazilatlar, nutq madaniyati, ijodiy tafakkur va milliy qadriyatlarni shakllantirishdagi pedagogik ahamiyatidan iborat.

Natijalar. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, xalq og'zaki ijodi boshlang'ich ta'lim tizimida o'quvchilarning shaxs sifatida kamol topishiga xizmat qiluvchi muhim pedagogik vositalardan biridir. Folklor namunalari xalqning ko'p asrlik hayotiy tajribasi, ma'naviy merosi va axloqiy qadriyatlarini o'zida mujassam etgani sababli ularning tarbiyaviy imkoniyatlari boshqa badiiy manbalarga nisbatan kengroq namoyon bo'ladi.

Folklor namunalarining o'ziga xos xususiyatlaridan biri ularning og'zaki ijod mahsuli sifatida avloddan avlodga o'tib kelayotganidir. Ana shu jarayonda asarlar xalqning ijtimoiy hayoti, ma'naviy qarashlari va tarixiy tajribasi bilan boyib borgan. Natijada ertak, doston, maqol, topishmoq va rivoyatlar nafaqat badiiy meros, balki xalq pedagogikasining muhim vositasiga aylangan.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, folklor janrlarining har biri boshlang'ich sinf o'quvchilarining rivojlanishiga turlicha ta'sir ko'rsatadi.

Ertaklar bolalarda yaxshilik va yomonlikni farqlash, adolat, halollik, mehnatsevarlik va insonparvarlik kabi axloqiy fazilatlarini shakllantirishga xizmat qiladi. Ertak qahramonlarining xatti-harakatlarini tahlil qilish orqali o'quvchilarda mustaqil fikrlash va voqea-hodisalarni baholash ko'nikmalari rivojlanadi.

Maqollar xalqning hayotiy tajribasi va donishmandligining qisqa hamda mazmunli ifodasidir. Ular o'quvchilarda mantiqiy fikrlashni rivojlantirish, nutq boyligini oshirish hamda axloqiy me'yorlarni anglashga yordam beradi. Dars jarayonida maqollardan foydalanish o'quvchilarning fikrini lo'nda, aniq va mazmunli ifodalash ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Topishmoqlar esa o'quvchilarning tafakkuri, kuzatuvchanligi, topqirligi va mantiqiy xulosa chiqarish qobiliyatini rivojlantiruvchi samarali didaktik vosita hisoblanadi. Topishmoqlarni yechish jarayonida bolalar

analiz, taqqoslash va umumlashtirish kabi intellektual operatsiyalarni faol qo'llaydilar.

Bundan tashqari, **tez aytishlar** o'quvchilarning talaffuzini yaxshilash, nutq apparatini rivojlantirish va og'zaki nutq ravonligini oshirishda muhim vosita hisoblanadi. Ayniqsa, boshlang'ich sinf o'quvchilarida fonetik ko'nikmalarni shakllantirishda tez aytishlarning pedagogik samaradorligi yuqori hisoblanadi [2].

Xulosa qilib aytganda, xalq og'zaki ijodi boshlang'ich ta'lim tizimida ma'naviy barkamol, milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalangan, mustaqil fikrlovchi va ijodkor shaxsni shakllantirishning muhim pedagogik omillaridan biri hisoblanadi. Shu sababli uning tarbiyaviy imkoniyatlarini zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan uyg'unlashtirish ta'lim tizimining dolzarb vazifalaridan biri bo'lib qolmoqda.

Adabiyotlar

1. Koshg'ariy M. Devonu lug'otit turk. – Toshkent: «Fan», 1960.
2. Zarifov H. O'zbek folklori masalalari. – Toshkent: «Fan», 1965.
3. Mirzayev T. Xalq dostonlari va ularning ilmiy o'rganilishi. – Toshkent: «Fan», 2004.
4. Sarimsoqov B. O'zbek folklorining janrlar tarkibi. – Toshkent: «Fan», 1986.
5. Jo'rayev M. O'zbek xalq og'zaki ijodi. – Toshkent: «Akademya», 2017.
6. Madayev O. O'zbek xalq og'zaki ijodi. – Toshkent: «Mumtoz so'z», 2010.

**DIFFERENSIAL GEOMETRIYADA EGRI CHIZIQLAR NAZARIYASINI
O'QITISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA
TEKNOLOGIYALARINING DIDAKTIK IMKONIYATLARI**

Qaypnazarova Guljaxan Xojanazarovna – fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent
guljahon_77@mail.ru

Kaipnazarova Damegul Ungarbaevna – magistrant
damiykaipnazarova@gmail.com

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

**ДИДАКТИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ ИНФОРМАЦИОННО-КОММУНИКАЦИОННЫХ
ТЕХНОЛОГИЙ В ПОВЫШЕНИИ ЭФФЕКТИВНОСТИ ПРЕПОДАВАНИЯ ТЕОРИИ КРИВЫХ
В ДИФФЕРЕНЦИАЛЬНОЙ ГЕОМЕТРИИ**

Кайпназарова Гулжахан Хожаназаровна – кандидат физико-математических наук, доцент

Кайпназарова Дамегуль Унгарбаевна – магистрант

Нукусский государственный педагогический институт имени Ажинияза

**DIDACTIC CAPABILITIES OF INFORMATION AND COMMUNICATION TECHNOLOGIES
IN ENHANCING THE EFFECTIVENESS OF TEACHING THE THEORY
OF CURVES IN DIFFERENTIAL GEOMETRY**

Kaipnazarova Guljaxan Xojanazarovna – Candidate of Physical and Mathematical sciences, associate professor

Kaipnazarova Damegul Ungarbaevna – master's student

Nukus State Pedagogical Institute named after Ajiniyaz

Tayanch soʻzlar: differensial geometriya, egri chiziq, topologik taʼrif, parametrik tenglama, GeoGebra, AKT, metodik yondashuv, grafik tafakkur, pedagogik tajriba.

Rezyume. Maqolada differensial geometriya fanining "Egri chiziqlar" mavzusini oʻqitishda topologik yondashuv hamda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT), xususan GeoGebra dasturidan foydalanishning ilmiy-metodik asoslari tahlil qilingan.

Ключевые слова: дифференциальная геометрия, кривая, топологическое определение, параметрическое уравнение, GeoGebra, ИКТ, методический подход, графическое мышление, педагогический эксперимент.

Резюме. В статье анализируются научно-методические основы использования топологического подхода и современных информационно-коммуникационных технологий (ИКТ), в частности программного обеспечения GeoGebra, при обучении теме «Кривые» в курсе дифференциальной геометрии.

Key words: differential geometry, curve, topological definition, parametric equation, GeoGebra, ICT, methodological approach, graphical thinking, pedagogical experiment.

Summary. The article analyzes the scientific and methodological foundations of applying a topological approach and modern information and communication technologies (ICT), particularly the GeoGebra software, in teaching the 'Curves' topic in differential geometry.

Kirish. Bugungi kunda oliy taʼlim tizimida matematika fanlarini, xususan, abstrakt nazariy tushunchalarni oʻqitish metodikasini takomillashtirish dolzarb pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. Differensial geometriya yuqori darajadagi mantiqiy va fazoviy tafakkurni talab etuvchi fan sifatida talabalarda ilmiy tafakkur va geometric modellashtirish koʻnikmalarini shakllantirishda muhim oʻringa ega.

Differensial geometriyani oʻqitishning anʼanaviy yondashuvida asosiy eʼtibor maʼruzalar, matnlar va formulalar bilan ishlashga qaratiladi. Bu usullar bazaviy matematik tayyorgarlikni taʼminlasa-da, har doim ham materialni chuqur tushunish va oʻzlashtirishga xizmat qilmaydi. Mazkur tadqiqotning asosiy eʼtibori axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining didaktik imkoniyatlarini tizimli ochib berishga qaratilgan boʻlib, ular vositasida differensial geometriya kursidagi abstrakt tushunchalarni vizual modellashtirish, talabalarning grafik tafakkurini rivojlantirish va fanni oʻqitish samaradorligini sifat jihatidan yangi bosqichga koʻtarish nazarda tutiladi.

Metodlar. Tadqiqot jarayonida ilmiy-metodik adabiyotlar tahlili, pedagogik kuzatuv, tajriba-sinov va grafik modellashtirish metodlaridan foydalanildi. Oʻquv jarayoni 80 daqiqalik model asosida 4 bosqichda tashkil etildi:

1. Topologik kirish: Chiziqni intervalning uzluksiz obrazi ($\gamma: I \rightarrow R^n$) sifatida kiritish. Dastlab talabaga chiziqni misol tariqasida harakat izlari, iplarning shakli, spirallar, yoʻllar, grafiklar koʻrinishida tasavvur ettirish orqali intuitiv anglashga yordam beriladi. Keyinchalik bu tasavvurlar rasmiy matematik formulalar bilan mustahkamlanadi.


Mavzuni oʻqitishda quyidagi klassifikatsiyalarni bosqichma-bosqich kiritish maqsadga muvofiqdir:

- **elementar chiziqlar** – sodda analitik ifoda bilan beriladigan chiziqlar;
- **sodda chiziqlar** – oʻzini kesib oʻtmaydigan chiziqlar;
- **umumiy chiziqlar** – oʻzini kesib oʻtishi yoki murakkab topologik xossaga ega boʻlishi mumkin boʻlgan chiziqlar;
- **silliqlik chiziqlar** – parametrik funksiyalari yetarli darajada differensiallanuvchi chiziqlar.

Mazkur tushunchalarni talabalarga faqat taʼrif orqali emas, balki grafik misollar bilan tushuntirish oʻzlashtirish samaradorligini oshiradi

2. Geometrik talqin: Nuqtaning fazodagi harakat trayektoriyasini vizual anglash. Differensial geometriyada **chiziq** (yoki **egri chiziq**) – bu fazoda yoki tekislikda harakatlanayotgan nuqtaning izidir. U koʻplab real

jarayonlar va shakllarni matematik modelashtirishda asosiy vosita sifatida xizmat qiladi. Fazoda $x = t, x = t^2, z = t^3$ tenglama bilan chiziq berilgan, Geogebra dasturida chiziqning ko'rinishini nuqtalar bilan, so'ng ularni tutashtirish amaliyatini bajaramiz [1]. Berilgan chiziq quyidagi ko'rinishni oladi.



1-rasm. $x = t, x = t^2, z = t^3$ tenglama bilan berilgan chiziq.

3. Analitik va parametrik ifodalash: Aniq, noaniq va parametrik tenglamalar tizimini tahlil qilish. Chiziqlarni berishning asosiy usullari o'rganildi:

Aniq tenglama: $y = f(x)$

Bu usul eng sodda ko'rinish bo'lib, talaba chiziqni funksiyaning grafigi sifatida qabul qiladi. Misol: $y = x^2$

Noaniq tenglama: $F(x, y) = 0$

bu usulda egri chiziq to'g'ridan-to'g'ri $y = f(x)$ ko'rinishda emas, balki ikki o'zgaruvchili tenglama orqali beriladi. Misol: $x^2 + y^2 - 1 = 0$

Parametrik tenglama: tekislikda $x = x(t), y = y(t)$, fazoda $x = x(t), y = y(t), z = z(t)$. Misol: $x = \cos t, y = \sin t$

Mazkur usul differensial geometriyada eng muhim usullardan biri bo'lib, chiziqni nuqtaning harakat trayektoriyasi sifatida talqin qilish imkonini beradi.

4. IT asosida vizualizatsiya: GeoGebra muhitida parametrik tenglamalarni dinamik o'zgartirish va tahlil qilish.

GeoGebra dasturida egri chiziqlar qurildi, parametrlarning o'zgarishi bilan grafik shaklning o'zgarishi kuzatildi, noaniq tenglamalar vizual tahlil qilindi.

1-misol. Aniq ko'rinishdagi tenglama bilan egri chiziq berilgan:


$$y = \frac{x^3}{x^2 - 3}$$

GeoGebra'ga kiritish: $y = x^3 / (x^2 - 3)$

Mazkur misolda talabalar:

- funksiyaning aniqlanish sohasini topdi;
- uzilish nuqtalarini aniqladi;
- vertikal asimptotalarni kuzatdi;
- grafikning turli sohalaridagi vaziyatini tahlil qildi.

Topologik nuqtai nazardan, mazkur elementar chiziq uchta bog'lanishli bo'lmagan komponentdan tashkil topgan. Har bir komponent o'z navbatida ochiq intervalga gomeomorfdir. GeoGebra'dagi dinamik tahlil ushbu komponentlarning uzluksiz deformatsiyaga uchrashi va ularning topologik tabiatini tushunishda vizual ko'makchi vazifasini o'taydi.



2-rasm. $y = \frac{x^3}{x^2 - 3}$ tenglama bilan berilgan egri chiziq

grafigi.

Mazkur grafikni GeoGebra yordamida qurish talabalarga egri chiziqlarning uzilish nuqtalari, asimptotik xossalari va lokal vaziyatini vizual ravishda kuzatish imkonini beradi.

2-misol. Parametrik tenglama bilan egri chiziq berilgan

$$x = \frac{3at}{1+t^3}, y = \frac{3at^2}{1+t^3}$$

GeoGebra'ga kiritish. Avval: $a = 1$


So'ng: Curve($3*a*t/(1+t^3)$, $3*a*t^2/(1+t^3)$, t, -10, 10) malumoti kiritiladi.

Mazkur misolda talabalar:

- parametrik chiziqni qurdi;
- t parametrining geometrik ma'nosini tushundi;
- a parametrining grafik shaklga ta'sirini kuzatdi;
- nuqtaning trayektoriya bo'ylab harakatini modelashtirdi.

Bu tenglama Dekart yaprog'i deb nomlanuvchi algebraik egri chiziqni ifodalaydi. Ushbu chiziq differensial geometriya kursida o'zini o'zi kesish nuqtasi (singular nuqta) mavjud bo'lgan chiziqlarni tahlil qilish uchun klassik misol bo'lib xizmat qiladi.

Topologik nuqtai nazardan, bu chiziq yagona bog'langan komponentdan tashkil topgan bo'lib, u singulyar (o'zini o'zi kesuvchi) nuqtaga ega bo'lgan murakkab algebraik egri chiziqdir. Uning yopiq qismi (ilmoq) topologik jihatdan aylanaga gomeomorf bo'lsa, cheksiz tarmoqlari ochiq intervallar bilan ekvivalentdir. GeoGebra muhitidagi dinamik modelashtirish talabalarga chiziqning singulyar nuqta atrofidagi vaziyatini va uning topologik yaxlitligini vizual anglashda ko'maklashadi.



3-rasm. $x = \frac{3at}{1+t^3}$, $y = \frac{3at^2}{1+t^3}$ tenglama bilan berilgan egri

chiziqlar grafi.

Parametrik chiziqlarni GeoGebra muhitida qurish talabalarda parametrik tafakkurni shakllantiradi. Talaba chiziqni endi faqat tenglama emas, balki nuqtaning trayektoriyasi sifatida qabul qiladi.


3-misol. Aniq emas ko'rinishda tenglama bilan egri chiziqlar berilgan: $xy^2 - y^2 - 4x = 0$.

GeoGebra'ga kiritish: $x^3 + x*y^2 - x^2 - y^2 = 0$
Mazkur misolda talabalar:

- noaniq tenglama bilan berilgan chiziqni tahlil qildi;
- asosiy nuqtalarni aniqladi;
- grafik shakl va simmetriya xossalari kuzatildi;
- algebraik ifoda bilan geometrik shakl orasidagi bog'lanishni tushundi.

Noaniq tenglamalar bilan berilgan chiziqlarni GeoGebra yordamida tasvirlash talabalarda analitik ifoda bilan geometrik obraz o'rtasidagi bog'lanishni mustahkamlaydi. Bu usul ayniqsa differensial geometriyaning boshlang'ich bosqichida samarali hisoblanadi.

Topologik jihatdan bu chiziqlar ham uzilishga ega va bir nechta komponentdan iborat. Ular $x=1$ vertikal asimptotasi orqali ajraladi. Har bir komponent o'z navbatida ochiq intervalga gomeomorfdir. GeoGebra muhitidagi dinamik modellash talabalarga chiziqning $x=1$ asimptotasi yaqinidagi giperbolik vaziyatini va uning Ox o'qiga nisbatan simmetrik tuzilishini vizual anglash imkonini beradi.



4-rasm. $xy^2 - y^2 - 4x = 0$ tenglama bilan berilgan egri chiziqlar grafi.

Tadqiqot jarayonida ilmiy-metodik adabiyotlar tahlili, pedagogik kuzatuv va ikki guruhda tashkil etilgan eksperiment metodlaridan foydalanildi. Tajriba uchun ikki guruh tanlab olindi:

1. **Nazorat guruhi:** Darslar an'anaviy metodika (ma'ruza va yozma mashg'ulotlar) asosida o'tildi.

2. **Eksperimental guruh:** Dars jarayoniga topologik yondashuv hamda GeoGebra asosidagi interaktiv laboratoriya mashg'ulotlari joriy etildi.

O'quv jarayoni 80 daqiqalik model asosida, topologik kirishdan vizual modellashgacha bo'lgan bosqichlarda amalga oshirildi.

Natijalar. Pedagogik tajriba-sinov ishlari natijalari quyidagi qiyosiy tahlilni ko'rsatdi:

1-jadval. Pedagogik tajriba-sinov natijalarining qiyosiy tahlili

Guruhlar	Dastlabki natija	Yakuniy natija	O'sish ko'rsatkichi
Nazorat guruhi (An'anaviy)	56%	68%	+12%
Eksperimental guruh (GeoGebra/IT)	57%	86%	+29%

Statistik ma'lumotlar shuni tasdiqlaydi: dastlabki bilimlari deyarli teng bo'lgan ikki guruhda eksperiment yakuniga ko'ra, AKT va interaktiv yondashuv qo'llanilgan guruh (29% o'sish) an'anaviy usuldagi guruhga (12% o'sish) nisbatan sezilarli darajada yuqori ko'rsatkich qayd etdi.

Muhokama. An'anaviy darslarda talabalar formulalarni mexanik yodlashga moyil bo'lsalar, AKT vositalari (GeoGebra) yordamida egri chiziqlar "jonli obyekt"ga aylanadi. Bu yondashuv abstrakt tushunchalarni ko'rgazmali tarzda idrok etishga yordam beradi. Tadqiqot jarayonida differensial geometriya fanida maxsus laboratoriya mashg'ulotlarini joriy etish nafaqat qulay, balki zamonaviy ta'lim uchun zaruriy ehtiyoj ekanligi isbotlandi. Topologik yondashuvni vizual modellash bilan uyg'unlashtirish talabalarda parametrik tafakkur va mustaqil izlanish ko'nikmalarini sezilarli darajada kuchaytiradi.

Xulosa. "Egri chiziqlar" mavzusini o'qitishda topologik ta'rifdan boshlab, uni IT vositalari bilan vizualizatsiya qilish ta'lim sifatini tubdan oshiradi. Olingan natijalar asosida quyidagi amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. "Egri chiziqlar" mavzusini topologik yondashuv asosida kiritish orqali mavzuning mohiyatini chuqurlashtirish.

2. Differensial geometriya o'quv dasturiga raqamli laboratoriya bloklarini kiritish va amaliy mashg'ulotlarda GeoGebra muhitidan faol foydalanish.

3. Har bir nazariy qoidani dinamik grafik model-lashtirish bilan uyg'unlashtirish orqali talabalarda grafik tafakkurni rivojlantirish.

Adabiyotlar

1. Narmanov A.Ya., Sharipov A.S., Aslonov J.O. Differensial geometriya va topologiya kursidan masalalar to'plami. – Toshkent: Universitet, 2014.
2. Qaypnazarova G.X. Ways of Using the GeoGebra Program for Constructing the Polyhedrons Section // Academic Research in Educational Sciences. 2023. Vol. 4. № 5. – P. 112-118.
3. Hohenwarter M., Jones K. GeoGebra and Dynamic Mathematics Environments in Education // Proceedings of the 13th International Congress on Mathematical Education. 2016. – P. 345–350.

UDK 372.857

UGLEVODORODLAR TEMASÍN OQÍTÍWDA KEYS STADI USÍLÍNAN PAYDALANÍW

Qutlimuratova Shahnóza Aralbay qızı – magistrant

Aytbaeva Hurliman Berdax qızı – talaba

Aymurzaeva Liza Gulmurzaevna – texnika ilimleri boyınsha filosofiya doktori, docent

aymurzaevaliza591@gmail.com

Ájiniyaz atındaǵı Nókis mámleketlik pedagogikalıq instituti

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ МЕТОДА КЕЙС-СТАДИ ПРИ ОБУЧЕНИИ ТЕМЕ УГЛЕВОДОРОДОВ

Кутлымуратова Шахноза Аралбаевна – магистрант

Айтбаева Хурлиман Бердаховна – студент

Аймурзаева Лиза Гулмурзаевна – доктор философии технических наук, доцент

Нукуский государственный педагогический институт имени Ажинияза

THE USE OF THE CASE STUDY METHOD IN TEACHING THE TOPIC OF HYDROCARBONS

Kutlimuratova Shakhnoza Aralbayevna – master's student

Aytbaeva Hurliman Berdakhovna – student

Aymurzaeva Liza Gulmurzaevna – Doctor of Philosophy in Technical Sciences, Associate Professor

Nukus State Pedagogical Institute named after Ajiniyaz

Tayanch so'zlar: pedagogik texnologiya, keys-stadi, muammoli vaziyat, uglevodorodlar, neft mahsulotlari, tabiiy gaz, plastmassa, sintetik tola, kauchuk.

Rezyume. Maqolada umumta'lim maktablarida kimyo fanining muhim bo'limi hisoblangan uglevodorodlar mavzusini o'qitishda keys-stadi (case study) usulidan foydalanish masalalari yoritilgan. Keys-stadi usulining pedagogik imkoniyatlari, o'quv jarayonidagi roli hamda o'quvchilarning analitik fikrlashini rivojlantirishdagi ahamiyati tahlil qilingan.

Ключевые слова: педагогическая технология, кейс-стади, проблемная ситуация, углеводороды, нефтепродукты, природный газ, пластмасса, синтетическое волокно, каучук.

Резюме. В статье рассматриваются вопросы использования метода кейс-стади (case study) при преподавании темы углеводородов, являющейся одним из важных разделов химии в системе общего среднего образования. Проанализированы педагогические возможности метода кейс-стади, его роль в учебном процессе, а также значение в развитии аналитического мышления учащихся.


Key words: pedagogical technology, case study, problem situation, hydrocarbons, petroleum products, natural gas, plastics, synthetic fibers, rubber.

Summary. The article examines the use of the case study method in teaching the topic of hydrocarbons, which is one of the important sections of chemistry in the system of general secondary education. The pedagogical potential of the case study method, its role in the educational process, and its significance in developing students' analytical thinking are analyzed.

Kirisiw. Házirgi kúnde bilimlendiriw sistemasın modernizaciyalaw procesinde oqıw procesine zamanagóy pedagogikalıq texnologiyalardı engiziw úlken áhmiyetke iye bolmaqta. Ásirese, tábiyyıy pánlerdi, sonın ishinde, ximiya pánin oqıtıwda oqıwshılardıń erkin pikirlewdi rawajlandırıw, mashqalalı jaǵdaylardı tallaw hám ilimiy juwmaqlar shıǵarıw kónlikpelerin qalıplestiriw áhmiyetli máselelerden biri esaplanadı. Usı kózqarastan interaktiv oqıtıw metodlarınan paydalanıw bilimlendiriw nátiyjeliligın arttırıwda áhmiyetli faktor bolıp xızmet etedi. Ximiya pániniń áhmiyetli bólimlerinen biri bolǵan uglevodorodlar teması organikalıq ximiya tiykarların úyreniwde ayrıqsha áhmiyetke iye. Uglevodorodlar tek uglerod hám vodorod atomlarınan quralǵan organikalıq birikpeler bolıp, olar neft, tábiyyıy gaz, kómir sıyaqlı tábiyyıy resurslardıń tiykarǵı quram bólegin quraydı. Bul zatlar zamanagóy sanaatta keńnen qollanıw, janıǵı, plastmassa, sintetikalıq talshıqlar, kauchuk, eritiwshiler hám basqa da kóplegen ximiyalıq ónimler islep shıǵarıwda áhmiyetli shiykizat esaplanadı [1-3].

Uglevodorodlar ximiyalıq dúzilisine qaray alkanlar, alkenler, alkinler hám aromatlı uglevodorodlar sıyaqlı klaslarǵa bólinedi. Olardıń ximiyalıq qásiyetleri, reakciyaları hám de ámeliy qollanıw tarawların úyreniw oqıwshılardıń organikalıq ximiya boyınsha bilimlerin qalıplestiriwde áhmiyetli rol oynaydı [4]. Sol sebepli bul temanı oqıtıwda nátiyjeli pedagogikalıq metodlardan

paydalanıw zárúr. Sonday metodlardan biri keys-stadi (case study) usılı esaplanadı.



Sońǵı jılları bilimlendiriw procesinde keys-stadi (case study) usılınan paydalanıw keń tarqalmaqta. Bul usıl real turmıshlıq jaǵdaylar tiykarında mashqalalı tapsırmalardı talqılaw arqalı oqıwshılardıń analitikalıq pikirlewın, óz betinshe qarar qabıl etiw qábiletin hám dóretiwshilik qatnasın rawajlandıradı. Keys-stadi usılı ásirese ximiya pánin oqıtıwda nátiyjeli bolıp, oqıwshılardıǵa teoriyalıq bilimlerdeń ámeliy jaǵdaylar menen baylanıstırıw imkaniyatın beredi.

Uglevodorodlar temasın keys-stadi usılı tiykarında oqıtıw arqalı oqıwshılar neft ónimleri, tábiyyıy gaz, polimerler hám basqa ximiyalıq procesler menen baylanışlı real turmıshlıq mashqalalardı analizlewdi úyrenedi. Bul bolsa olardıń ximiyalıq pikirlewın rawajlandırıw, bilimlerdeń tereń ózlestiriw hám pánlerge bolǵan qızıǵıwshılıǵın arttırıwǵa xızmet etedi. Sońǵı waqıtları "Keys-stadi" usılı

sırt ellerdiń bilimlendiriw ámeliyatında nátiyjeli qollanılıp kelinmekte hám búgingi kúnde respublika bilimlendiriw sistemasında da bargan sayın ǵabalasıp barmaqta. Sol sebepli usı orında usıl (texnologiya) mánisi haqqında sóz etiledi. “Keys-stadi” texnologiyası (ingl. “case” - jıynaq, anıq maǵlıwmat, usıl, “study” - mashqalalı jaǵday; jaǵdaylıq talqılaw yamasa mashqalalı jaǵdaylardı talqılaw) - 1) oqıwshılarda anıq, real mashqalalı jaǵdaydı talqılaw arqalı eń maqul variantların tabıw kónlikpelerin qalıplestiriwge xızmet etetuǵın texnologiya; 2) real jaǵdaylardı bayanlawda qollanılauıń oqıtıw texnikası sıpatında qaraladı [1].

Temaǵa tiyisli ádebiyatlar analizi. “Keys-stadi” texnologiyası dáslep 1870-jılı AQShtń Garvard universitetiniń huqıq mektebinde bilimlendiriw procesinde qollanılǵan. Bul texnologiya Garvard universitetiniń biznes mektebinde 1920-jılı qollanılı baslanǵan. Keyslerdiń dáslepki toplamı 1925-jılı biznes haqqında Garvard universiteti esabatları tiykarında basıp shıǵarılǵan. Házirgi waqıtta texnologiya sırt ellerde ekonomika, biznes tarawlarında da keńnen qollanılmaqta. Ózbekstanda bul texnologiyalı bilimlendiriw procesine engiziw jolındaǵı háreketler ǵárezsizlik jıllarında jedellesti [1-3]. Oqıw materialınıń xarakterinen kelip shıqqan halda ápiwayı, quramalı strukturalıq dúziliske iye bolmaǵan, yaǵnıy mini keyslerden de paydalanıw ámeliy qunǵa iye ekenligi bilimlendiriw ámeliyatında óz tastıyǵın tapqan.

Ózbekstan sharayatında da bul keyslerden nátiyjeli paydalanıw múmkin. Sonıń menen birge úyrenilgen temanı bekkemlew maqsetinde kishi kólemli, ápiwayı – mini keyslerden de paydalanıw múmkin. Quramalı hám ápiwayı mini keysler arasındaǵı eń áhmiyetli ayırmashılıqlar – olardıń kólemi, quramalılıq dárejesi hám strukturalıq dúzilisinde sáwlelenedi.

Bul usıl mashqalalı bilim beriw usılınan parıqlı túrde real jaǵdaylardı úyreniw tiykarında anıq qararlar qabıl etiwge tiykarlanadı. Eger ol oqıw procesinde belgili bir maqsetke erisiw jolı sıpatında qollanılsa, usıl xarakterine iye boladı, qanday da bir processti izertlewde basqıshpa-basqısh, belgili bir algoritim tiykarında ámelge asırılsa, texnologiyalıq tárepin ózinde sáwlelendiredi.

Usıldın tikkeley maqseti. Oqıwshılar birgeliktegi háreketleri arqalı jumıs penen arnawlı bir jaǵdayında júz bergen wazıypa (case) analiz etiledi hám ámeliy sheshim islep shıǵıladı; processtiń juwmaǵı – usınıs etilgen algoritimdi bahalaw hám qoyılǵan mashqala sheńberinde eń jaqsısı, optimalın tańlaw.

1-keste. Keys-stadi usılın ámelge asırıw basqıshları

Basqıshlar	Basqısh maqseti
Arnawlı bir jaǵday menen tanısıw	Mashqalalı jaǵdaydı hám qarardı qabıllaw hám mazmunın ańǵarıw
Izlew: wazıypa materiallarınan alınǵan hám erkin kiritilgen informaciyaǵa ataq beriw	Sheshimdi izlew hám bahalaw ushın zárúr bolǵan informaciyanı tabıwdı úyreniw
Talqılaw: alternativ qararlar múmkin-shiliklerin talqılaw	Alternativ pikirlewdi rawajlandırıw
Atap ótiw: toparlarda qarar shıǵarıw	Qarar variantların salıstırıw hám bahalaw
Tartıs: hár bir topar óz sheshimin qorǵaydı	Qararlardı tıyanaqlı qorǵaw
Nátiyjelerdi salıstırıw: gruppalarda qabıl etilgen qararlardı salıstırıw	Bólek sheshimli máplerdiń óz ara baylanısına ataq beriw

«Uglevodorodlar» teması boyınsha mini-keys

1-keys: Benzinniń sapası hám oktan sanı.

Jaǵday: Avtomobil janılǵı quyıw shaqapshasında eki túrli benzin bar: AI-80 hám AI-95. Aydawshı AI-95 benzini qımbatıraq bolsa da onı tańladı.

Mashqala: Ne ushın AI-95 benzini AI-80 ge qaraǵanda nátiyjelirek esaplanadı?

Tapsırmalar:

Oktan sanı ne ekenligin túsindiriw.

Uglevodorodlardıń qaysı túri oktan sanın arttıradı?

Benzin quramında qanday uglevodorodlar bolıwı múmkin?

Ne ushın ayırım avtomobiller tek joqarı oktanlı benzinde júredi?

Kútilip atırǵan nátiyje: Oqıwshılar alkanlar, izoalkanlar hám aromatlı uglevodorodlar benzinniń oktan sanına tásir etiwın túsinedi.

2-keys: Tábiyiy gazden paydalanıw.

Jaǵday: Bir shańaraqta gaz plitasında awqat pisirilmekte. Gaz janıwı waqtında kók reńdegi jalındı kóriw múmkin.

Mashqala: Ne ushın tábiyiy gaz janıwı kók reńli jalın beredi?

Tapsırmalar:

Tábiyiy gazdıń tiykarǵı komponentin anıqlań?

Metanniń janıw reakciyasın jazıń?

Tolıq hám tolıq emes janıw arasındaǵı ayırmashılıqtı túsindiriw?

Eger gaz jeterli kislorodsız jansa qanday zat payda boladı?

Kútilip atırǵan nátiyje: Oqıwshılar metan, janıw reakciyası hám CO payda bolıw qáwipi haqqında túsiniкке iye boladı.

3-keys: Polietilen paketler mashqalası.

Jaǵday: Dúkanlarda paydalanılauıń polietilen paketler qorshagan ortalıqqa zıyan jetkermekte.

Mashqala: Polietilen qanday uglevodorodtan alınadı hám ne sebepten ol júdá áste tarqaladı?

Tapsırmalar:

Polietilen qaysı monomerden alınadı?

Etilen formulasın jazıń.

Polimerleniw reakciyasın jazıń.

Plastik shıǵındılardı azaytıw jolların usınıs etiń.

Kútilip atırǵan nátiyje: Oqıwshılar alkenler hám polimerleniw reakciyası haqqındaǵı bilimlerin bekkemleydi.

4-keys: Acetilen hám kepserlew.

Jaǵday: Metaldı kesiw hám kepserlew procesinde acetilen gazınan paydalanıladı.

Mashqala: Ne ushın acetilen kepserlewde júdá nátiyjeli esaplanadı?

Tapsırmalar:

Acetileniń formulasın jazıń?

Ol qaysı uglevodorodlar klasına kiredi?

Acetileniń janıw reakciyasın jazıń?

Ne ushın onıń jalını júdá joqarı temperatura beredi?

Kútilip atırǵan nátiyje: Oqıwshılar alkinlerdiń qásiyetleri hám energetikalıq mánisi haqqında túsiniкке iye boladı.

5-keys: Neftti qayta islew.

Jaǵday: Neftti qayta islew zavodında túrli ónimler: benzin, kerosin, dizel janılǵısı alınadı.

Mashqala: Birdey shiykizat – neftten qalay túrli ónimler alınadı?

Tapsırmalar:

